O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
IQTISODIYOT FAKULTETI
“ O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI” KAFEDRASI

“DAVLAT TILI: TADQIQI, TA’LIMI VA AMALIYOTIDA QO‘LLANILISHI”

mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-amaliy konferensiyasi
MATERIALLAR TO‘PLAMI
(2021- yil 21- oktabr)

SAMARQAND-2021

“Davlat tili: tadqiqi, ta’limi va amaliyotda qo‘llanilishi” mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Samarqand. SamISI. 2021- yil 21- oktabr. 155 –bet.

To‘plam Samarqand iqtisodiyot va servis instituti O‘quv uslubiy kengashining 2021 yil _sonli yig‘ilishining qarori bilan chop etilgan.

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi: Z.Sh.Ashurova- SamISI “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi

Nashr uchun mas’ullar:

S.Adilova. – SamISI “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi katta o‘qituvchisi, f.f.n.

D.Norboyeva.- SamISI “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi katta o‘qituvchisi

M.Komilova.-SamISI “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi

Respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy anjuman materiallarida professor-o‘qituvchilar, yosh olimlar, katta ilmiy xodim izlanuvchilar, magistrantlar va iqtidorli talabalarning davlat tili tadqiqiga oid dolzarb muammolariga bag‘ishlangan.

To‘plamdagi materiallardan professor-o‘qituvchilar, yosh olimlar, katta ilmiy xodim izlanuvchilar, mustaqil tadqiqotchilar, magistrantlar, iqtidorli talabalar va amaliyot xodimlari o‘z ilmiy faoliyatlarida foydalanishlari mumkun.

Maqolalar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas’ul.

©Davlat tili: tadqiqi, ta’limi va amaliyotda qo‘llanilishi
©Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2021- y.

DAVLAT TILIGA E’TIBOR – MILLAT RAVNAQIGA E’TIBOR

M.E.Po‘latov
SamISI rektori, i.f.d., professor

Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili o‘zlikni anglash, millatimizning boyligi, faxri va g‘ururidir. Hech shubhasizki, hech qaysi davlat yo‘qki, o‘z ona tilini ulug‘lamagan, uning sha’ni va obro‘si uchun kurashmagan. 1989- yil 21- oktabrda “Davlat tili haqida”gi Qonnunning qabul qilinishi istiqlolga erishish yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi. Ona tilimiz o‘z o‘rni va mavqeiga ega bo‘ldi. O‘zbek tili xalqaro miqyosda e’tirof etildi.

Ko‘plab ta’lim-tarbiya maskanlari, ommaviy axborot vositalari o‘zbek tili bilan birga qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg‘iz, tojik, turkman tillarida faoliyat ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonunda televideniya va radio eshittirishlari davlat tilida, shu bilan bir qatorda boshqa tillarda ham olib borilishi belgilab qo‘yilgan. Xorijiy davlatlardagi oliy o‘quv yurtlarida o‘zbek tili va adabiyotining o‘qitilishi, sohada ilmiy izlanish va tadqiqotlar olib borayotgan chet ellik olimlar safining ortib borayotganligi ona tilimiz ravnaq topib borayotganligidan dalolatdir.

Yurtimizda davlat tiliga bo‘lgan e’tibor ortdi. Bunday e’tiborning namunasi sifatida yoshlarning iste’dodi va ijodiy salohiyatini rivojlantirish maqsadida o‘zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy ijod maktabi, Muhammad Yusuf nomidagi ona tili va adabiyot fanini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan atoqli shoir va adiblarimiz nomlaridagi maktablarning tashkil etilganligi, o‘sib kelayotgan yosh avlod qalbi va ongiga Ona Vatanga, o‘z tiliga bo‘lgan g‘urur va iftixorning belgisi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar ko‘lamida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 21- oktabrdagi Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi apparati tarkibiy bo‘linmasi hisoblangan Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil qilindi.

Bu kabi siljishlar, o‘zgarishlarga qaramay, davlat tilida ish yuritish masalasi ayrim davlat tashkilotlari uchun ham og‘riqli masala bo‘lib qolmoqda. Ba’zi tashkilotlarda ish yuritish hamda muloqot jarayoni hali hamon o‘zbek tilida olib borilgani yo‘q. Shuningdek, bo‘limlarda ish yuritish, rasmiylashtirish davlat tilida bo‘lishi kerakligiga alohida ahamiyat bermog‘imiz lozim.

Ma’rifatparvar alloma, o‘z davrining mohir tarjimoni, shoir, yozuvchi Ishoqxon Ibratning “Bizning yoshlar albatta boshqa tilni bilish uchun sa’y-harakat qilsinlar, lekin avval o‘z tilini ko‘zlariga to‘tiyo qilib, ehtirom ko‘rsatsinlar. Zero, o‘z tiliga sadoqat-bu vataniy ishdir” degan so‘zlarini , ayniqsa, bugungi davr yoshlari uchun o‘z ona tilini qadrlashi lozilmligini his qilib turibdi.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi tashabbusi bilan “Davlat tili: tadqiqi, ta’limi va amaliyotida qo‘llanilishi” mavzusida tashkil eilgan respublika an’anaviy ilmiy-amaliy konferensiyasi davlat tilining sofligini saqlash, ta’lim tashkilotlarida davlat tilini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirishga qaratilgan.

Bugungi ilmiy anjuman ishiga muvaffaqiyat tilar ekanman, mazkur tadbirda o‘zbek tilini siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy –ma’rifiy shuningdek, tashkilotlarda, o‘zbek tilini muntazam boyitib borishda davlat tili o‘qitilishi hamda o‘zbek tili va adabiyotini yanada rivojlantirish borasidagi ilmiy, ilmiy-amaliy izlanishlarda muhim ahamiyat kasb etishiga ishonaman.

TIL DARSLARIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISh METODIKASI

Odilova S.A. f.f.n
SamISI dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada til darslarida interfaol usullardan foydalanish yo‘llari, ularning paydo bo‘lish tarixiga nazar tashlanadi. Dars mavzusidan kelib chiqqan holda interfaol usullarning qaysi turidan foydalanishi mumkinligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so’zlar: interfaol usullar, muhokama, raqobatbardosh, hamkorlik.

Аннотация: В данной статье идет речь о применение интерактивных методов обучения,об истории их появления и о принципах выбора этих методов исходя из специфики темы.

Ключевые слова: планирование урока, интерактивные методы обсуждение, конкурентоспособность, критическое мышление, сотрудничество.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” Oliy o‘quv yurtlari oldiga qo‘ygan talablari quyidagilardir: oliy ta’lim muassasini bitirgan mutaxassislar har tomonlama yetuk insonlar bo‘lib shakllanishi; ikkinchidan, o‘z sohasini yaxshi biladigan erkin va tanqidiy fikrlay oladigan, har qanday raqobatga bardosh bera oladigan mutaxassilar tayyorlashdir.

Qo‘yilgan maqsadni amalga oshirish avvalo dars jarayonidan boshlanadi. Dars u yoki bu masalani to‘g‘ri mantiqiy izchillikda aniq izohlab berish bo‘lib, olimlarning ta’kidlashlaricha, dars olib boruvchi o‘qituvchining barcha boyligi uning ongi, irodasi, tuyg‘usi, bilimi, tajribasi va e’tiqodi orqali talabalar ichki dunyosi bilan muloqotda bo‘ladi, dars esa ana shunday jonli muloqotning samarali shaklidir.

Til darslarini rejalashtishda o‘tilalayotgan mavzuning mohiyatidan kelib chiqqan holda turli usullar faol, nofaol va interfaol usullarda foydalanishmasa, darslari asosan amaliy mashg‘ulotlardan iborat bo‘lgani, o‘qituvchilar darsni

boshidan bir xil metodda olib borish mumkin emas. Darsda tilning ayrim qonuniyatlari o‘qituvchilar tomonidan tushuntirilsa ham, lekin ko‘p qismi talabalarning faol ishtirokisiz zerikarli bo‘lib qoladi. Shuning uchun interfaol usullar til darslarida ko‘plab qo‘llanib keladi. Endi interaktiv metodlar nima? Ular qayerda nima sababdan kelib chiqgan? degan savollarga javob berishda olimlarning an’anaviy o‘qitish usullari va interaktiv metodlarni qiyoslab, o‘rganib chiqib, keltirgan dalillarga bir nazar tashlasak, agar biz o‘qish jarayonini piramida deb olsak, o‘qitganimizni 10%, eshitganimizni, 20%, ko‘rganimizni 30%, ko‘rib hamda eshitganimizning 50%, gapirib bersak, 70% o‘zimiz ishtirok etsak 90% eslab qolar ekanmiz. Ularning fikri bo‘yicha o‘qitish usuli aktiv va interaktiv usullar bilan olib borilar ekan. Shuning uchun interaktiv o‘qitish metodikasi eng dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Endi bir necha interaktiv o‘qitish turlari o‘qitish turlari haqida gapirib o‘tamiz. Bu sohada maktab yaratgan olimlar Bespalko, Talizin, Davidov va boshqalar interaktiv o‘qitish usullaridan ko‘pini ko‘rsatib o‘tgan. Biz asosan, treninglar aqliy xujum, muzyorarlar, muzokara keskin fikrlash, taqdimot, turli o‘yinlar va boshqalarining kelib chiqish tarixi va qanday auditoriya, necha kishilik guruhda qo‘llanilishi mumkinligini o‘rganib chiqdik. Interaktiv metod turlaridan qaysilari amaliy mashg’ulotlarda qo‘llash mumkin ekanligi haqida mulohazamizni izhor etishga harakat qildik. Ozroq tarixga nazar tashlar ekanmiz, interaktiv o‘qitish usullardan ayrimlari sharqona o‘qitish usullaridan ham mavjud bo‘lganligini aniqladik. Masalan, akademik Botir Valixo‘jaev o’zining “Madrasalar tarixi” asarida o‘qitish jarayonida munozara, tahlil, savol – javob, ilmiy mushohada o’qitish usullari mavjud bo‘lganligi haqida Abu Rayxon Beruniy, Al – Xorazmiy, Farobiy, Ibn Sino, Umar Xayyomning bilish haqidagi ilmiy asarlarida eslatib o‘tilganligi haqida xabar beradi. Madrasalardagi ana shunday o‘qitish usullari balki bizning dunyoga mashhur bobokalonlarimiz Al-Farobiy, Beruniy, Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi allomalarimizni shakllanishi muhim ahamiyat kasb etgan bo‘lsa ajab emas. Yevropada interfaol usullarning paydo bo‘lishiga va bu usullar haqida so‘z boshlanganiga yarim asrdan ko‘proq vaqt o‘tdi. Interfaol usullar ichida eng keng tarqalgani trening (guruhli treningi) bo‘lib, u asosan yirik korxonalar, kompaniyalar tomonidan tuzilgan proektlari xalq ommasi muhokamasidan o‘tkazish, ularning fikr va mulohozalarini o‘rganish va e’tiborga loyiq g‘oyalarni proektga kiritishdir. Guruhli trening o‘qitish shakli sifatida o‘zining yarim asrdan ortiqroq tarixga ega. Birinchi trening guruhi 1936 yilda kutilmaganda yuzaga kelgan. Amerikalik mashhur sotsiolog va psixolog olim Kurt Levin nomi bilan bog’liq. O‘sha yillarda Amerika hukumati tomonidan “ishga yollash haqida qonun” proekti chiqarilgan edi. Uninig maqsadi biznesmenlar va kasaba uyushmasi yo‘l boshlovchilarga shu qonunni takomillashtirishda yordam ko‘rsatishdan iborat edi. Shu loyiha doirasida olimlar fuqarolar orasidan tanlab olishgan maxsus guruhlar bilan

mashg‘ulotlar o‘tkaza boshladilar. Kechqurunlari fuqarolardan tashkil qilingan guruhlardan olingan natijalar jamlanib, olimlar tomonidan muhokama va tahlil qilinardi. Shunday kechalardan birida fuqarolardan tuzilgan guruh kechqurun qolib, muhokamada ishtirok etishga istak bildirdi. Shunda ma’lum bo‘ldiki, olimlarning kuzatishlari bilan oddiy xalqning idrok etishi har doim xam mos kelavermas ekan. Bunday uchrashuvlar muayyan tus oldi va o‘qitishning samarali usuliga aylandi. 1937- yilda MEN shtatidagi Botem shahrida trening labaratoriyasining yaratilishiga sabab bo‘ldi va o‘qitishning samarali usuli sifatida o‘rganila boshladi. Trening guruhi ishining samaradorligi ko‘pincha trening jarayonida foydalaniladigan uslublarni tanlab olishga bog’liqdir. Har bir ishtirokchining boshqalaridan afzal ko‘radigan o‘zi yaxshi biladigan va muvaffaqiyatli qo‘llay oladigan o‘z uslubi bo‘ladi. Qat’iy qarorga kelishda har doim o‘qitishning oxirgi maqsadi, auditoriya va materialning o‘ziga xosligi, treningning umumiy strukturasi va boshqa faktorlar nazarda tutilishi zarur.

Adabiyotlar:

1. Талызина Н. Ф. Усвоение научных понятий в школе. Москва 1999 г.
2. Давыдов В. В. Научное обеспечение образования в свете нового педагогического мышления // Новое педагогическое мышление. Москва, 1989г.
3. ў Интерактивные технологии и методы обучения на уроке русского языка.
4. https://urok.1sept.ru/ Использование интерактивных методов обучения на занятиях русского языка и литературы.
5. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии, Москва 1989г.

ҲУСАЙН ВОИЗ КОШИФИЙ ИНСОННИНГ ИЖТИМОИЙ ФАОЛИЯТИДА ТИЛНИНГ АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА

А.Азизқулов СамИСИ доценти

А.Алимов СамИСИ ўқитувчиси

Темурийлар ҳукмронлиги даврида илм-фан ва маданият маркази сифатида равнақ топган Ҳирот шаҳрида кўплаб олиму мутафаккирлар, уламолар етишиб чиқди. Бевосита Алишер Навоий ҳомийлигида баракали ижод қилган шундай алломалардан бири Ҳусайн Воиз Кошифийдир. Кошифий ўзининг серқирра ижодий фаолиятида кўплаб диний, илмий, фалсафий ва ахлоқий асарлар яратди. Ҳусайн Воиз Кошифий (1442/46-1505) ислом динининг йирик назариётчиларидан бири бўлиши билан бир қаторда фалсафий ахлоқий соҳаларда ҳам нодир асарлар битган етук алломадир. Хусайн Воиз Кошифийнинг Қуръон тафсирига оид “Тафсири Ҳусайний” асари машҳурдир. Шунингдек, аллома илми нужум, фалсафа, адабиётшунослик, тилшунослик, фиқҳ бўйича ҳам бир қатор асарлар муаллифидир. Ҳусайн Воиз Кошифий Алишер Навоийга бағишлаб “Мавоҳиби олия” (“Олий туҳфалар”) асарини ёзган. Ҳусайн Воиз

Кошифийнинг сермазмун ва баракали ижодий фаолиятида Алишер Навоийнинг таъсири катта бўлган. Алишер Навоий Ҳусайн Воиз Кошифийни ўз ҳимоясига олар экан, унга яқиндан ҳомийлик қилган ҳамда унинг истеъдодини юқори баҳолар экан, “Мажолис ун нафоис” тазкирасида унга алоҳида ўрин ажратган[1].

Ҳусайн Воиз Кошифий ўз асарларида ахлоқ-одоб қоидаларини баён этишга алоҳида эътибор қаратади. Шунинг учун аллома асарларини Шарқ ахлоқ фалсафасининг нодир дурдонаси деб баҳолаш мумкин. Ҳусайн Воиз Кошифийасарларида ахлоқ одоб мавзусида яратилган кўплаб Шарқ мутафаккирларининг асарларини чуқур таҳлил этиб, ўзининг хулосалари билан мазмунан бойитади. Алломанинг “Ахлоқи муҳсиний” асаридан бошқа асарларида ҳам ахлоқ-одоб масалалари етакчи ўринни эгаллайди. Хусусан, “Футувватномаи Султоний ёхуд Жавонмардлик тариқати” асари суфийлик тариқатининг назарий ва амалий масалалари баён этилган бўлиб, унда тасаввуф аҳлининг риоя этиши лозим бўлган таом ейиш ва сув ичиш одоби, ўтириш ва суҳбат қилиш одоби, кийим кийиш ва сафар қилиш одоби, меҳмон кутиш ва йўлда юриш, салом бериш, биродарлар ҳақини адо этиш адаблари батафсил ёритилади. Ҳусайн Воиз Кошифий муомала маданияти хусусида ҳам батафсил тўхталиб ўтади. Муомала одоби хусусида мулоҳазаларини баён этар экан, инсон фаолиятида тилнинг ўрни муҳим эканлигига алоҳида эътибор қаратади. Аввало аллома нутқ қобилиятини аҳамиятини шундай изоҳлайди: “Билгилки одамизотнинг шарафи нутқи билан ва нутқ одобига риоя қилмаган одам бу шарафдан бебаҳрадир. Сўз ҳамма вақт савоб учун ишлатилиши, тўғри ва ҳаққоний бўлиши керак. Агар шундай бўлмаса, жим турган маъқул”[2]. Инсон ҳаётида тилнинг моҳиятини тушунтиргандан сўнг Ҳусайн Воиз Кошифий нутқ жараёнида нималардан сақланиш зарурлигини, муомала этикетини қуйидагича тушунтириб беради: “Тилни сақлаш лозим бўлган нарсалар қайси, деб сўрасалар, айтгил: биринчидан, ёлғон гапиришдан, зеро ёлғончи худонинг душманидир. Иккинчидан, ваъдага хилоф гапириш ва мунофиқона сўз айтишдан.Учинчидан, ғийбат ва бўҳтон гаплардан, чунки буҳтон фосиқлар ишидир. Тўртинчидан, беҳуда баҳсу мунозашадан, айб қилишдан ва гап ташишдан. Булар шайтон васвасасига киради. Бешинчи, ўзини мақташ ва таърифлашданки, бу худбинликка олиб келади. Олтинчи, навкар ва хизматкорларни лаънатлашдан. Еттинчиси, қарғишдан, дуои бад қилишдан,

[1]Алишер Навоий Мажолис ул-нафоис.Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. 9-жилд.-Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2011й. 377-378 бетлар

[2]Ҳусайн Воиз Кошифий.Футуватномаи султоний. Ахлоқи муҳсиний. Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашри, 2011.. – 64 бет

чунки бу жону дилнинг офатидир. Саккизинчи, мазах-масхара қилиш ва ҳазил-ҳузулдан»[3].

Ҳусайн Воиз Кошифийнутқ муомаласи жараёнида киши эътибор бериши лозим бўлган ахлоқ-одоб қоидалари мавжудлигини таъкидлайди.Унинг фикрига кўра, мазкур одоб қоидалари иккига бўлинади, яъни, муайян мартабага, малакага эга бўлганлар, масалан, устозлар, мураббийлар ёки тариқат пирлари риоя этиши шарт бўлган қоидалар ҳамда малакага, мартабага эга бўлмаганлар,масалан ўқувчилар, шогирдлар, ёки тариқат муридлари амал қилиши лозим бўлган қоидалар. Дастлаб мартабага эришганлар, яъни устозлар риоя этиши лозим бўлган нутқ одоби қоидаларини тушунтириб берар экан, шундай дейди: “Шайхлар ва бошқа мартабага эришганлар учунҳам, ҳали мартабага эришмаган кишилар, муридлар учунҳам риоя қилиниши зарур бўлган бир қанча суҳбат одоби мавжуд. Агар мартабага эришганлар суҳбатда қайси қоидаларга амал қилиши керак, деб сўрасалар, айтгил, қуйидаги саккиз қоидани сақлашлари керак: биринчидан ҳар кимнинг аҳволига қараб, муносиб сўз айтсин. Иккинчидан, дағаллик қилмасдан, лутф ва мулойимлик билан гапирсин. Учинчидан, гапираётганда табассум қилиб, очилиб гапирсин. Тўртинчидан, овозини баланд кўтармасин, эшитувчига малол келтирмайдиган қилиб гапирсин. Бешинчидан, одамларга нафи тегадиган маъноли гапларни гапирсин. Олтинчидан, агар сўзнингқиммат-қадри бўлмаса, уни тилга олмасин, чункиулуғларнингсўзи бамисоли уруғдир, агар уруғпуч ёки чириган бўлса, уни қаерга экманг униб чиқмайди»4.Суҳбат жараёнида устозлар риоя этиши лозим бўлган ахлоқ-одоб қоидаларини баён этгандан сўнг, муридларнинг, яъни, шогирдларнинг нутқ одобларни қуйидагича шарҳлайди: “Агар мартабага етмаганларнинг суҳбат одоби нечта деб сўрасалар, бу ҳам саккизта деб айтгил. Биринчидан, сўрамагунларича гапирмасин. Иккинчидан, гапираётганда овозини баланд кўтармасин. Учинчидан, гапираётгандан ўнги сўлига қарамасин. Бешинчидан, қаттиқ гапирмасин ва бетга чопарлик қилмасин. Олтинчидан, пушаймон бўлмаслик учун уйлаб гапирсин. Еттинчидан, одамлар гапини бўлиб сўз қотмасин. Саккизинчидан, кўп гапирмасин. Чунки кўп гапириш ақли ноқислик белгисидир. Оз бўлса ҳам, аммо соз гапиришни шиор этсин»5.

Ҳусайн Воиз Кошифий устоз ва шогирдларнинг муомала маданиятида риоя этиши лозим бўлган этикет қоидаларини алоҳида-алоҳида тушунтириб беради.

Мусулмон шарқ халқлари муомала маданияти этикетини баён этишда

[3]Ўшаерда
[4]Ўшаасар, 71 бет
[5]Ўша асар, 72 бет

Ҳусайн Воиз Кошифий рационаллик тамойили асосида ёндашади ҳамда кишиларни доимо нутқ маданиятини ўзи баён этган ахлоқий қоидалар асосида такомиллаштириб боришларига даъват этар экан, шундай дейди "Агар қайси тил билан сўз сўзлайсан, деб сўрасалар, сидқу садоқат тили билан, деб айтгил.Агар сўзни қайси қулоқ билан эшитасан, деб сўрасалар, қабул қулоғи билан, деб айтгил»[6].

Ҳусайн Воиз Кошифий кишиларни беҳуда сўзлашдан фойда йўқлигини, аксинча, доимо тўғри ва манфаатли муомалани тарғиб этиб, шундай дейди: "Агар яхши сўз қайси, деб сўрасалар, кишиларга нафи тегадиган сўз, деб айтгил. Ёмон сўз қайси, деб сўрасалар, бировга зарари тегадиган сўз, деб жавоб бергил"[7]. Ҳусайн Воиз Кошифий кишиларни ўзаро муомала маданиятида риоя қилишлари лозим бўлган одоб қоидаларини мана шундай батафсил тушунтириб беради. Аллома томонидан баён этилган сўзлашиш одоби ва нутқ маданияти хусусидаги фикрлари ҳозиргача ўз аҳамиятини йўқотмаган. Таълим тарбия жараёнида мазкур ахлоқий тамойиллардан фойдаланиш мураккаб глобаллашув жараёнида ёш авлодни тарбиялашда муҳим аҳамият касб этади. Хулоса қиладиган бўлсак, авало, Марказий Осиё халқлари юксак даражадаги муомала этикетига эга бўлганлар. Иккинчидан Ҳусайн Воиз Кошифий рационаллик тамойили асосида сўзлашиш одобини назарий жиҳатдан асослаб бера олган.Учинчидан, аллома илгари сурган сўзлашиш одоб қоидалари бугунги ахборотлашган жамият босқичида ҳам баркамол авлодни тарбиялашда зарурий тавсиялардан бири бўлиб хизмат қилади.

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMI UCHUN YARATILADIGAN ELEKTRON O'QUV-METODIK MAJMUALARGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Katta o'qituvchi, I.B.Kulanov, JizPI
Z.A.Qarshiboyeva, SamVMI

Annotatsiya: Maqolada uzluksiz ta'lim tizimi uchun yaratiladigan elektron o'quv-metodik majmualarga qo'yiladigan talablar yoritilgan.

Kalitli so'zlar: uzluksiz ta'lim tizimi, elektron o'quv-metodik majmua.

Axborot texnologiyalarining ta'lim tizimida o'z mavqeini tobora keng egallashi mavjud bo'lgan ko'pgina tushunchalarni ham mazmunan, ham mohiyatan qayta ko'rib chiqishni taqoza etdi. Shu bois, ta'lim va o'qitish jarayonlariga boshqacha

[6]Ўша асар, 72 бет
[7]Ўша асар, 72 бет

yondashuv hamda e’tibor bilan qarala boshlandi. Ushbu jarayon elektron o‘quv-uslubiy majmualar, shu jumladan, elektron o‘quv adabiyotlari - elektron darsliklar, video va audio kassetalar, kompyuter dasturlari, televizion va radio o‘quv kurslari bilan uyg‘unlashib bormoqda. Bu jarayonda o‘qitish o‘quvchining ko‘proq ichki imkoniyatlari, intellektual potensiali, axborotni qabul qilish va o‘zlashtirish xususiyatlariga bevosita bog‘liq.

Elektron o‘quv-uslubiy majmualar mustaqil ta’lim olishni, ijodiy fikrlashni, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish orqali o‘quv materiallari va ilmiy ma’lumotlarni har tomonlama chuqur o‘zlashtirilishga mo‘ljallangan bo‘lib, ushbu turdagi majmualar ilmiy ma’lumotlarning jamlanganligi, ko‘rgazmalarga boyligi, ya’ni turli xil animatsiyalardan foydalanganligi, ta’lim oluvchilarning yoshi va fiziologik xususiyatlarini hisobga olganligi jihatidan an’anaviy o‘quv adabiyotlaridan afzalroqdir[3].

Ta’lim muassasalari uchun tayyorlanadigan elektron o‘quv adabiyotlarda matnlar jozibali, ta’sirli shaklda bayon etilishi, asosiy tushuncha va ta’riflar aniq va ravshan yozilishi, shu bilan bir qatorda foydalanuvchilarning bilimlarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim[1-3].

Elektron o‘quv majmualar yaratuvchi mualliflar tomonidan o‘quv adabiyotlarning faqat elektron versiyasini yaratishga katta ahamiyat berilmoqda. Sababi birinchidan, elektron versiyada axborotlar zamonaviy usulda multimediya va animatsiya vositalari yordamida osonlikcha yoritiladi. *Ikkinchidan* olingan bilimlarni interaktiv usulda nazorat qilish oson kechadi. Uchinchidan, o‘quv adabiyotlarning bugungi holati o‘quvchiga og‘irlik qiladi, binobarin uning elektron versiyasini disketaga olib, undan boshqa kompyuterlarda ham foydalanish imkoni mavjud. Agar o‘quv adabiyotining elektron versiyasi serverga joylashtirilsa, undan bir vaqtda bir necha o‘quvchi turli kompyuterlarda foydalanishi mumkin.

Zamonaviy elektron o‘quv-metodik majmualar o‘quv materiallarining turli shakllari (elektron, qog‘oz va hokazo) majmuasi bo‘lib, ular fan dasturlariga mos keluvchi, auditoriya mashg‘ulotlarining barcha turlari va mustaqil ta’limni o‘quv-metodik ta’minotini o‘zida mujassamlashtiradi.

Elektron o‘quv-metodik majmualar - zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida o‘qitishning didaktik, dasturiy va texnik interaktiv majmuasidan tashkil topadi va ular o‘quv materiallarini kompyuter texnologiyalari hamda audio-video vositalar asosida yaratish, tizimlashtirish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish imkoniyatini beruvchi manbadir.

Elektron o‘quv-metodik majmualardagi o‘quv materiallari Davlat ta’lim standarti talablariga mos kelishi hamda bilimlarning o‘quvchilar tomonidan mustaqil o‘zlashtirilishiga zarur resurslarni o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lishi zarur.

Elektron o‘quv-metodik majmualar tashkiliy-metodik, axborot-o‘rgatuvchi va nazorat qiluvchi didaktik funksional bloklardan tashkil topadi. Resurslarning pedagogik-psixologik vazifalari o‘quv materiallarini gipermedia muhitida taqdim etish, o‘quvchilar bilan o‘qituvchilar orasidagi didaktik muloqot va ta’lim vositalari orqali amalga oshiriladi.

Elektron o‘quv-metodik majmua resurslari ta‘lim jarayonini individuallashtirish va differensiyalash, o‘quvchining o‘quv faoliyatini o‘zi nazorat qilish va to‘g‘ri yo‘naltirish, kompyuterning hisoblash imkoniyatlaridan foydalanish tufayli o‘quv vaqtini tejash, o‘quv materiallarini vizuallashtirish, o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish, ularni imitatsiyalashtirish, turli pedagogik vaziyatlarda optimal qaror qabul qilish malakasini shakllantirish, fikrlashning aniq bir shakli(ko‘rgazmali-obrazli, nazariy)ni rivojlantirish, bilish faoliyati madaniyatini shakllantirish kabi imkoniyatlarni beradi.

Elektron o‘quv-metodik majmualar asosida o‘quv jarayonini tashkil etish multimedia texnologiyalarini qo‘llanilishi o‘quvchilarda o‘qishga qiziqishni orttirishi, ta’limning interaktiv xususiyati asosida o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishi va o‘quv materiallarini o‘zlashtirilishining samaradorligini oshirishi, real holatlarda namoyish qilinishi qiyin, yoxud murakkab bo‘lgan jarayonlarni modellashtirish va kuzatish imkoniyatini berishi o‘quv materiallarining o‘zlashtirilishi nafaqat darajasiga ko‘ra, balki o‘quvchilar erishgan mantiq va qabul qilishlari darajasiga ko‘ra ham samarali bo‘lishini ta`minlashi, an`anaviy hamda masofaviy ta’lim o‘quv-metodik ta`minotining samarali integratsiyasini ta’minlashi, o‘quvchilarga mustaqil izlanish yo‘li bilan materiallarni topish, o‘rganish hamda muammoli masalalarni hal etish orqali ularda ma’lum tadqiqot ishlarini amalga oshirish ko‘nikmalarini shakllantirishil o‘quvchilarning kurs, malakaviy bitiruv ishlarini bajarishda, magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlashda o‘quv materiallari bilan mustaqil tanishish, tanlab olish, axborot hamda ma`lumotlarni tahlil eta olish kabi malakalarni shakllanishi uchun sharoit yaratishi kabi didaktik vazifalarni amalga oshiradi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida elektron o‘quv-metodik majmualarning ta’lim vositalari tarkibiga o‘quv darsliklari, qo‘llanmalarning elektron versiyalari, kompyuter multimediali o‘rgatuvchi tizimlar, audio o‘quv-axborot materiallaril video o‘quv-axborot materiallaril virtual laboratoriya ishlaril trenajyorlar, ma`lumotlar va bilimlar bazasi, elektron kutubxonalar, ekspert o‘rgatuvchi tizimlar asosidagi o‘qitish vositalaril virtual reallik asosidagi o‘qitish vositalari kiradi.

Elektron o‘quv-metodik majmualarning tarkibiy qismlari tuzilishining modulliligi, mazmunining to‘laqonligi, mantiqiy bayon etilganligil o‘quv materiallarini o‘rganish bo‘yicha yo‘riqnomaga egaligi, nazorat topshiriqlarining

mavjudligi, izohli lug‘at va manbalar ro‘yxatining tavsiya etilganligi kabi talablarga javob berishi kerak.

Elektron o‘quv-metodik resurslar ta’lim muassasasining o‘quv-metodik komissiyasi tomonidan tegishli ekspertizadan o‘tkazilishi va o‘quv jarayonidan foydalanishga tavsiya etilishi kerak.

O‘quv jarayonlarini axborotlashtirish maqsadlariga ko‘ra elektron majmualar kvantlash - o‘quv materiallarini mazmunan yopiq, minimal hajmga ega modullarga ajratish, modullar bir necha tashkil etuvchidan iborat bo‘lishi, to‘laqonlilik - o‘quv materiallarining asosiy mazmunini qamrab olgan har bir modul o‘zida to‘laqonli resurslarga ega bo‘lishi), ko‘rgazmalilik -modullar matn va vizuallashtirilgan materiallarning ma`lum nisbatini saqlagan holda illyustratsiyalar va kadrlar jamlanmasidan iborat bo‘lishi, erkin boshqarish - o‘quvchilar kompyuter ekranidagi kadrlarning almashishini mustaqil boshqarishlari, zarur materiallarni istalgan marta ekranga chiqarishlari va nazorat topshiriqlarini bajarish orqali bilimlarini mustaqil sinashlari imkoniyatlariga ega bo‘lishi, moslashuvchanlik elektron majmualar o‘quv jarayonida ma’lum bir foydalanuvchining ehtiyojlariga moslanishni ta`minlashi, o‘rganilayotgan materialning murakkabligini va chuqurligini, uning amaliy yo‘naltirilganligini o‘zgartirish, foydalanuvchining ehtiyojlaridan kelib chiqib, qo‘shimcha illyustrativ materiallarni shakllantirish imkoniyatlariga ega bo‘lishi, *kompyuter ko‘magi* -o‘quv materiallarining mohiyatiga e’tibor qaratish maqsadida o‘quvchi istalgan vaqtda kompyuter ko‘magiga ega bo‘lishi kabi tamoyillarni qanoatlashtirishi kerak.

O‘quv-metodik majmualardan samarali foydalanish uchun o‘quvchilar informatika va hisoblash texnikasining asosiy tushunchalari, kompyuter texnikasining funksional imkoniyatlari, zamonaviy operatsion tizimlar va ularning asosiy buyruqlari, zamonaviy dasturiy vositalar va ularning vazifalaril matn muharrirlari, algoritmlar va dasturlashtirish haqida asosiy tushunchalar, amaliy dasturlardan, Internet tizimidan foydalanish kabi kompyuter texnologiyalari mazmunini bilishi va egallashlari lozim.

Elektron o‘quv-metodik majmualar tarkibiga ta`lim yo‘nalishi yoki mutaxassislikning Davlat ta’lim standarti, Davlat ta’lim standartiga mos ravishda yaratilgan namunaviy dastur, fanning maqsadi, vazifalarini, ma`ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarining mazmunini, nazorat hamda kurs ishlarining mavzularini, masalalar, topshiriqlarni, yakuniy nazorat savollarini va fanning o‘quv-metodik ta’minoti, mustaqil ta’limni tashkil etishga doir yo‘riqnomani o‘zida mujassamlashtirgan ishchi dastur, o‘quv-uslubiy harita va kalendar tematik rejalar, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari va boshqa o‘quv materiallarining elektron versiyalari, mashg‘ulotlarda pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar, nazariy bilimlarni qo‘llash bo‘yicha ko‘nikma va

malakalarni shakllantiruvchi amaliy hamda laboratoriya mashg‘ulotlarining elektron ishlanmalari va metodik ta’minoti, audio va video materiallarl o‘quv-malakaviy amaliyot dasturi, uni tashkillashtirish bo‘yicha metodik qo‘llanmalar nazariy va amaliy o‘quv materiallarini o‘zlashtirilganlik darajasini aniqlashga qaratilgan nazorat topshiriqlari va testlar, fan bo‘yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar bo‘yicha ballar taqsimoti, topshiriqlar turi, baholash mezonlari tavsiya etiladi.

Elektron o‘quv-metodik majmualarning asosiy fayllari html formatida yaratiladi. Qo‘shimcha fayllar dos, pdf, .djvu, .rtf, .xis vaaudio, videofayllar formatlarda bo‘lishi mumkin. Formulalar .gif formatida rasmlar ko‘rinishida bajariladi. Barcha materiallar ta’lim muassasasining serverida joylashadi, CD, DVD elektron tarqatuvchisiga yoziladi. Joylashtirilgan resurslarga mulkiy mualliflik huquqlari ta’lim muassasasiga tegishli bo‘ladi, mualliflik huquqlari muallif-ishlab chiquvchi mutaxassisga taalluqli bo‘ladi.

Elektron o‘quv resurslar Internet Explorer va Netscape brauzerlarining asosiy turlari bilan munosib, xatosiz ishlashi kerak.

Zamonaviy o‘quv-metodik majmualar o‘quv-metodik materiallarining turli shakllari (elektron, qog‘oz va h.k.) kompleksi bo‘lib, ular har bir fanning kasbiy ta’lim dasturlariga mos keluvchi, auditoriya darslarining barcha turlari va mustaqil ta`limni tashkil etish bo‘yicha o‘quv-metodik ta`minotdan foydalanish metodikasini o‘zida mujassamlashtirgan bo‘ladi.

Axborot texnologiyalari muhitida o‘qitishning muammoli usuli axborot-reseptiv va reproduktiv metodlari bilan birgalikda keng qo‘llaniladi. Bu muhitda elektron o‘quv-metodik majmualar o‘quv mazmunini taqdim etish, o‘quvchining bilish faoliyatini boshqarish va nazorat qilish vositalari sifatida ishlatiladi. Aynan bir o‘quv materiali bir qancha vositalar bilan taqdim etilishi mumkin. Masalan, o‘quv materiallari nashr, audio, video, CD-disklar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. O‘qitishning har bir vositasi o‘ziga xos didaktik imkoniyatlarga egadir. O‘qituvchi bunday imkoniyatlarni yaxshi bilishi va o‘quv materiallarini bu vositalar bo‘yicha taqsimlay olishi, hamda ulardan didaktik masalalarni yechimiga bag‘ishlangan o‘quv axborotlarini eltish tizimi sifatidagi o‘qish vositalarini shakllantirishi lozim.

EO‘MM tashkiliy-metodik, axborot-o‘rgatuvchi va nazorat qiluvchi didaktik funksional bloklardan tashkil topadi. Resurslarning pedagogik-psixologik vazifalari o‘quv materiallarini gipermedia muhitida taqdim etish, talabalar bilan o‘qituvchilar orasidagi didaktik muloqot va ta`lim vositalari orqali amalga oshiriladi.

Ta’kidlash lozimki, o‘qitishning elektron vositalari yangi axborot texnologiyalari vositalari orqali joriy etiladi. An’anaviy darsliklar, o‘quv-metodik qo‘llanmalar va boshqa nashr materiallarning elektron formatdagi nusxalari elektron o‘quv-metodik majmualar yaratishda ishlatiladi.

Uzluksiz ta’lim tizimida qo‘llaniladigan elektron didaktik materiallarni yaratishda dastlab quyidagilarga alohida e’tibor qaratmoq kerak:

- elektron o‘quv qo‘llanmalari mazmunan shunday tuzilgan bo‘lish kerakki, ulardan qo‘shimcha o‘quv axborotlarini olish uchun o‘quvchi aslo qiynalmasligi kerak;
- o‘quv materiallarini tarkibiy tuzilmasini shakllantirishda modul tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqligi;
- mustaqil ta’limni tashkil etish va o‘quv materiallarini o‘rganish bo‘yicha to‘liq yo‘riqnoma keltirilgan bo‘lishi;
- nazorat topshiriqlari, o‘z-o‘zini tekshirish savollari va javoblari, mashq qildiruvchi topshiriqlarning bo‘lishi.

Elektron shakldagi o‘quv darsliklari eng oddiy holda nashr o‘quv materiallarining elektron varianti ko‘rinishida bo‘ladi. Ammo elektron shakldagi darsliklar kompyuter xotirasida yoki boshqa tashqi magnit eltuvchida qulay saqlanish, tezkor o‘zgartirish va elektron pochta orqali uzoq masofalarga uzatish imkoniyatining mavjudligi bilan ajralib turadi.

Adabiyotlar:

1. Begimqulov U.Sh. Oliy ta’lim muassasalarining yagona axborot makonini tashkil etish va uni rivojlantirish istiqbollari //Xalq ta’limi jur. № 4, 2006 - 4-7 betlar.
2. Jo‘rayev R.H., Taylaqov N.I., Rasulova G.A. Uzluksiz ta’lim tizimi uchun elektron o‘quv qo‘llanmalar yaratishga oid ilmiy–metodik talablar//Uzluksiz ta’lim. – 2005. –№2. –B. 14–27.
3. Джураев Р.Ҳ., Тайлаков Н.И., Маргарита Ц.Н. Создание электронных учебников: теория и практика. Государственное научное издательство «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» –Т.: - 2007. -192 с.

TIL VA MADANIYAT

T.K.Mardiyev- SamISI
“Tillarni o‘qitish” kafedrasi mudiri,(PhD)

Til kommunikativ faoliyatning komponenti sifatida qaraladi. Til olamni o‘zgartirishning muhim usuli, informatsion, ta’minot va shaxslararo munosabatni tartibga keltiruvchi, ta`sir etuvchi vosita sifatida kishilarni u yoki bu xarakterga chorlovchi, ijtimoiy munosabatlarni qayd qilishga undovchi, deb tahlil qilinadi. Kollektiv tajribaning eng muhim xazinasi sifatida til madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi. Bunda, yuqorida aytilganidek, til va madaniyatning o‘zaro munosabatini o‘rgana turib, madaniy lingvistika integral xarakterga ega bo‘ladi, chunonchi, a) falsafiy-madaniy va lingvistik an`analar tizimining yaratilishiga; b) til va madaniyatni

kompleks tasvirlashga; v) xilma-xil tillar va madaniyatlarni qiyoslashga zamin yaratilishi kabilarga imkon yaratadi.

“Tilda har doim qadimiy tilga xos qotishmani topamiz, bu narsani til orqali millatning xarakteridan bilamiz. Tilni xalqning fikrlari va his-tuyg‘ular quroli sifatida o‘rganishga, haqiqiy til izlanishlari sifatida qarashga asos borligini anglaymiz. Til so‘zlovchi dunyoqarashi va ma’naviyatining aks etishidir” [3, 373]. Bundan kelib chiqadiki, til uning sohiblari milliy – madaniy mentalitetini taqdim etish qobiliyatiga ega, u bilish vositasi sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Bu narsa milliy-lisoniy bilish kategoriyasini tilda o‘z ifodasini topgan olamni talqin qilishning o‘ziga xos (etnospetsifik) usuli sifatida qarash imkoniyatini beradi. Bu usul u yoki bu *madaniy lingvistika* uyushmasiga xos bo‘ladi.

Lisoniy tasavvur yoki olamni bilish usuli lisoniy mentallik bilan bog‘liq bo‘ladi. So‘zlashuvchi jamoa tomonidan olamni o‘ziga xos (etnospetsifik) talqin qilayotgan lisoniy mentallik lisoniy ong tushunchasining asosini tashkil etadi, uni bo‘laklarga ajratganda, odatda “tilda xalqning hayotiy va madaniy xususiyatlarini aks etishi” tushuniladi [5,110-112]. Lisoniy ong kategoriyasida “leksik-frazeologik vositalarning verballashgan tizimida insonning ijtimoiy ong kategoriyalarida anglashilgan butun hayoti qayd qilinadi, talqin etiladi va umumlashtiriladi” [2,96]. U yoki bu tilning so‘zlari mazmunida shakllanayotgan lisoniy ongda “olamning milliy-sub`ektiv obrazi” o‘z ifodasini topadi va unga xos bo‘lgan “umumxalq, stereotip tasavvurlar” ham aks etadi [4,98]. Lisoniy ongni ko‘pincha insonlarning bevosita kundalik tajribasi va ijtimoiy hayotda hukmronlik qiluvchi xususiyatlarga asoslangan tasavvur, ko‘rsatma va stereotip majmuiga tenglashtirishadi. Jamiyatda “kundalik ongni saqlaydigan va yuzaga chiqaradigan asosiy manba til hisoblangan” [7,99].

Til lisoniy ong insongagina xosligini isbotlovchi omillardan biridir. Xo‘sh, ilmiy nuqtai nazardan til deganda o‘zi nima tushuniladi? Til– bu, eng avvalo, muayyan belgilar tizimi demakdir. Ammo tilning xususiyatlarini shu bilangina cheklash mumkin emas. Negaki muayyan belgilar tizimi hayvonlarga ham xos. Ular yordamida jonzotlar o‘rtasida muayyan axborot almashinuvi sodir bo‘ladi. Lekin jiddiy e`tibor beriladigan bo‘lsa, jonzotlardagi belgi signallar uzoq davom etgan evolyusiya davomida hosil qilingan reflekslar ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin. Xatti-harakat yoki boshqa belgilar yordamida uzatilayotgan axborotning mazmuni muayyan vaziyatdagi holat bilan belgilangan bo‘ladi. Bundan farqli o‘laroq inson nutqi, tili konkret vaziyat, makon va zamondan xoli bo‘lishi, unga bog‘liq bo‘lmasligi ham mumkin. Boshqacha aytganda, u o‘zida o‘tmishni, mavjud (hozirgi) holatni va istiqbolni ham ifodalashi mumkin. Bu inson tilining belgilar tizimi sifatida hayvonot dunyosida amal qiladigan belgilardan tub farqini ko‘rsatuvchi muhim xususiyat sanaladi. Shu kabi inson tili ong bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. A.Abduazizovning fikricha, “Tilning eng asosiy poydevori va boyligi so‘zdir.

Aytilgan so‘zni kishi eshitar ekan, uni ongli ravishda borliqdagi biror tushuncha bilan bog‘laydi. Demak, so‘zning aytilishi va ifoda etgan tushunchalar hamda tushunchalarning umumlashuvi natijasida hosil bo‘lgan ma`no tilda doim o‘z aksini topadi.” [1,69].

Ong in’ikos shakllari uzoq davom etgan evolyusiyasining tabiiy hosilasi bo‘lganidek, u bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan inson nutqi ham axborot uzatishga xizmat qiladigan belgilarning murakkablashib borishi jarayonining zaruriy natijasidir. SH.Safarovning fikricha, botiniy nutq jarayonida konseptbirinchidan, ma`lum mazmun shaklini olsa, ikkinchidan, lisoniy belgi tanlovi bosqichiga tayyorgarlik ko‘radi. Xuddi shu hozirlik lisoniy moddiylashuvdan oldingi xarakterlar vositasida nominativ birlikning denotativ asosini, mazmunini boyitadi. Bu bilan lisoniy tanlov imkoniyati ham kengayadi. Lisoniy tanlov esa alohida ko‘rinishdagi lisoniy tafakkur faoliyati natijasidir. Bu faoliyatning kechishi til o‘zlashtirilishi va nutqiy qobiliyat hosil bo‘lishi jarayonlariga mos ravishda kechadi. Ma’lumki, inson til va moddiy olamni bir xil usulda hamda bir xil yo‘nalishda o‘zlashtiradi. Moddiy olamning idroki ayni paytda idrok etilayotgan predmet – hodisalar haqida tushuncha tug‘ilishini, keyinchalik ushbu tushuncha mental namuna - konsept sifatida shakllanib, moddiy nom olishni taqozo qiladi. Bu xildagi ko‘p bosqichli lingvopsixik faoliyatning natijali kechishida asosiy rolni lisoniy xotira o‘ynaydi [6, 24–25].

Demak, til belgilar tizimi sifatida kelib chiqishidan qat’iy nazar, faqat insongagina xos bo‘lib, u ong bilan uzviy bog‘liqdir. Negaki tilda ong gavdalanadi. Til yordamidagina ong kishining o‘zi va boshqalar uchun voqelikka aylanadi. Tilda ifodalanayotgan ma’no-mazmunning anglashilishi insonning umumiy bilim darajasi, qiziqishi, qobiliyati, konkret sharoitidagi kayfiyati kabi omillarga ham bog‘liq bo‘ladi. Til fikrni ifodalash quroli, muloqot vositasi sifatida doimiy takomillashadi. Ayni paytda insoniyat biz kundalik hayotda qo‘llaydigan tabiiy til bilan bir qatorda muloqotning rang-barangligini ta’minlaydigan fikrni ifodalashga xizmat qiladigan o‘ziga xos imo-ishoralar raqs, musiqa “tili”ga ham ega bo‘ladi. Shunday bo‘lsa-da, ular so‘zga ko‘chgandagina anglashiladi, undagi mazmun tushunarli bo‘ladi. Chunonchi, ijodkor Abulbarokat Qodiriy shunday deb yozadi: *Bir kuni buzrug Mehriddindan; - So‘zlash yaxshimi yoki sukutmi? deb so‘radilar. U esa: “So‘zlash!”*– deb javob berdi. Undan: “Nega bo‘lmasa o‘tmish hakimlari doimo aksini aytib keldilar?”– deb so‘rashdi. Buzrug Mehri: “So‘zlash afzal deganimning ma`nosi shuki, agar bu vosita bo‘lmaganda edi, sukutdagi beqiyos xislatlar ochilmay qolardi!” – deb javob berdi. [8,175].

Xullas til va madaniyat bevosita bir- biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, tilsiz etnos (xalq) ham, madaniyat ham bo‘lmaydi. Chunki insonning insoniyligi, madaniyligi til orqali aks etadi yoki yuzaga chiqadi.

Adabiyotlar:

1. Алефиренко Н.Ф. Проблемы вербализации концепта: теоретическое исследование. – Волгоград.: Перемена, 2003.-96 с.
2. Гумбольдт В. фон. Язык и философия культуры – М.: Прогресс, 1985.-450 с.
3. Зубкова Я.В. Время в языковом сознании: подходы к изучению // Языковая личность: проблемы коммуникативной деятельности: Сб. науч. тр. / ВГПУ – Волгоград.: Перемена, 2001.-196 с.
4. Попова З.Д., Стернин И.А. Язык и национальное сознание. Вопросы теории и методологии. – Воронеж.: ВГУ. 2002.- 314 с.
5. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006.-91б.
6. Толочко О.В. Образ как составляющая концепта “школа”. // Языковая личность: проблемы лингвокультурологии и функционалной семантики. – Волгоград.: 1999.- 181 с.
7. Шомақсудов Ш., Ш.Шораҳмедов. Маънолар маҳзани. – Т.: ЎЗМЭ, 2001.-448 б.
8. Абдуазизов А. Тилшунослик назариясига кириш 2-нашр.–Т.Шарқ, 2010.-150 б.

НОВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ РОДНОГО ЯЗЫКА: ЗАИМСТВОВАНИЯ, СЛЕНГ И ЖАРГОНИЗМЫ

Маматкулова К.А. - ст.преподаватель СамИСИ
Садыков О.Б. – преподаватель СамИСИ

Annotation: The article highlights some new trends in the development of the Uzbek language, expresses the attitude towards foreign borrowings in the language, slang and jargon, substantiates the need for state support of the Uzbek language.

Key words: Uzbek language, borrowings, slang, ecological service of the language, maqoms, dastans.

Аннотация: В статье выделяется некоторые новые тенденции развития узбекского языка, выражается отношение к иностранным заимствованиям в языке, сленгу и жаргонизмам, обосновывается потребность в государственной поддержке узбекского языка.

Ключевые слова: узбекский язык, заимствования, сленг, экологическая служба языка, макомы, дастаны.

21 октября – день предоставления узбекскому языку статуса государственного. Именно в этот день в 1989 году был принят Закон «О государственном языке».Согласно принятому 21 октября 1989 года Закону «О государственном языке» узбекский язык был объявлен государственным языком.

Президент Узбекистана Шавкат Мирзиёев 21 октября 2019 года выступил на торжественном собрании, посвященном 30-летию придания узбекскому языку статуса государственного.

«Узбекский язык, один из древних и богатых языков мира, является для нашего народа символом национального самосознания и государственной независимости, огромной духовной ценностью. Тот, кто хочет ощутить всю красоту, очарование и богатство нашего языка, его огромные возможности, пусть послушает колыбельные наших матерей, древние дастаны и макомы, песни наших хафизов и бахши», — сказал руководитель страны. Это очень точно сказано, потому что язык – это неписанная конституция государства. [Мирзиёев,2019]

Узбекский язык, входящий в большую семью тюркских языков, — один из крупнейших в мире. На нем говорят почти 50 миллионов человек, узбекский язык преподают в 60 странах.История узбекского языка, входящего в большую семью тюркских языков, неразрывно связана с многовековой историей, стремлениями и чаяниями, горестями и потерями, достижениями и победами нашего народа.Именно родной язык был для наших предков главным фактором национальной самоидентификации. На этом языке они создавали величайшие образцы культуры, научные открытия, художественные шедевры.

В каком же состоянии находится сегодня наш родной узбекский язык?

Всегда во время серьезных перемен в общественной жизни язык претерпевал некоторые изменения, ведь языковая система - динамичная, саморазвивающаяся, подвижная. Если сравнивать сегодняшнее время с XIX или XX веком, то можно заметить, как сильно изменился наш язык. И в первую очередь заметным изменениям подвергается лексика. Одни слова входят в обиход, другие уходят и забываются. Морфологическая структура менее подвержена изменениям, и они менее заметны.

На данный момент в родном языке существуют две беды. Во-первых, это активное проникновение в родной язык иностранных слов. Вообще, заимствования неизбежно сопровождают любой язык. И это вполне нормально, если один язык расширяет свой состав за счет другого. Но это норма лишь в том случае, если иностранное слово означает, то явление, которого раньше не было и для его обозначения не существует аналога. Скажем, компьютеры пришли к нам из-за рубежа, поэтому вполне нормально, что все, что с ними связано, обозначается иноязычной лексикой. Беда в том, что часто заимствования возникают как дублеты, когда исконные слова заменяются иноязычными параллелями.

Заимствования - вредная вещь для носителей языка, поскольку ведет к его оскудению. Употребляя иноязычное слово вместо исконно родного, мы сужаем свой кругозор.

Вторая беда - это так называемый сленг, который проникает в язык молодежи и культивируется СМИ и телевидением. Хотя журналисты не должны опускаться до того, чтобы говорить на "полуродном" языке, а наоборот, обязаны нести культуру родного языка в массы.

Вместе с тем у слова "нация" есть пять признаков, в числе которых и язык. Если мы не сохраним его в чистоте, то можем рассыпаться как нация. Разве что преподаватели в учебных заведениях еще держат этот уровень. СМИ перестали быть эталоном, и даже в художественную литературу пробралось это явление.

Разумеется, бороться с засоренностью языка можно только на государственном уровне. Нужна программа по борьбе со сквернословием. Такие программы есть в ряде стран. Лучшая из них, на мой взгляд, действует во Франции. Там отслеживают, какие слова проникают из других языков, и потом специальная комиссия оглашает списки слов, использование которых запрещено. И вот тогда, если, например, какая-нибудь газета употребит запрещенное слово, она подвергнется наказанию - внушительному штрафу. У нас же отсутствует "экологическая" служба языка.

Мы видим, что наши бизнесмены уже мыслят исключительно на английском, в результате чего нас в Узбекистане окружают сплошь английские названия. «Ну зачем же вы называете свою организацию, например, "FoodCity", “GoldenCity”, “KumuchGarden”, “AziaHoll” и д.р. Найдите какие-нибудь узбекские названия? Нет, отвечают нам, обязательно только "FoodCity", “GoldenCity”, “KumuchGarden”,“AziaHoll” и д.р.

Все же защита языка - это дело каждого, но в первую очередь преподавателей и журналистов.О том, что наш родной язык деградирует из-за низкого образования граждан, плохой начитанности, изобилия разного рода сленга и неоправданных заимствований – об этом в последние годы писали все журналисты. Интернет вместо книг, социальные сети вместо литературы – всё это становится причиной крайне бедного словарного запаса, тотальной безграмотности и неумению стройно, последовательно и убедительно выражать свои мысли. Давно известно, что проще сразу правильно учить, чем потом переучивать. Тем более что у взрослых людей и времени на самообразование меньше, и, соответственно, шансов для коррекции оставшихся с детства пробелов тоже. Многие как со школы начинают неправильно говорить и писать, так всю жизнь и продолжают. Либо, что ещё хуже, со временем их язык только сильнее портится.

Сочинение – одна из древнейших форм проверки знаний, усвоенных учеником. Ещё с античных времён использовалась именно она.Многие преподаватели отмечают, что для многих школьных предметов вообще система оценки знания через тесты неприемлема.Необходимо понять, что крестики и галочки – это недостаточно по целому ряду предметов. И поэтому мне кажется, что введение сочинения – это уже очень большой шаг вперёд, но важно, чтобы к этому тесту, который не был бы тотальной и единственной методикой определения знаний, был добавлен, несомненно, устный компонент.А устная экзаменация – это не только гуманитарные предметы, такие как литература, история, география, обществознание, но и многие естественнонаучные. В химии, биологии, физике без устной составляющей невозможно точно узнать, действительно ли ученик усвоил знания и правильно ли понимает основные законы и принципы или же только натренировался на однотипных задачах в нужных местах уравнений вписывать исходные данные и получать верный ответ, не понимая сути решаемой задачи.Поступающий абитуриент должен был продемонстрировать приёмной комиссии, что он не просто наловчился решать типовые уравнения, а действительно понимает суть и смысл физических процессов и законов, которым они подчиняются.
Вопросы родного языка и литературы мы обсуждаем не впервые, и они заслуживают, может быть, и большего, чем сделано до сих пор, и большего внимания. Потому что речь идёт о сохранении – ни больше ни меньше – национальной идентичности, о том, чтобы быть и оставаться народом со своим характером, со своими традициями, со своей самобытностью, не утратить историческую преемственность и связь поколений.

Похоже, что нам тоже стоит начать серьёзно относиться к своему языку, религии и культурным корням, не разбрасываясь этим богатством словно бросовым товаром. Мы – нация со славной историей и богатыми культурными традициями – так нам ли превращаться в «родства не помнящих», променяв это на глупое и ненужное подражание чужой культуре и обычаям? Если что-то из достижений Запада мы считаем уместным принять, то можем сделать это так, как делали наши предки. Наши предки перенимали западное общественное устройство ровно в той мере, в какой считали нужным, с учётом наших собственных традиций и условий. Также делали Китай, Япония и другие азиатские страны, которые и в мыслях не имеют отказаться от родного языка или родной культуры, заменив их на ущербный вариант западного культурного наследия.

Нужно обратиться и к лучшим мировым традициям, к лучшей мировой практике, учесть опыт коллег из Королевского литературного общества Великобритании, Итальянского института культуры и испанского Института

Сервантеса, немецкого Института Гёте и китайского Института Конфуция, в том числе в вопросах популяризации национальных языков и культуры за рубежом.

Президент Узбекистана Шавкат Мирзиёев ранее подчеркивал важность повышения престижа узбекского языка и критично высказывался об уличных надписях и указателях на иностранных языках. В октябре прошлого года он подписал о повышении роли и авторитета узбекского языка. Заниматься этим было поручено специальному департаменту, образованному при Кабинете министров. Первой же его задачей был указан мониторинг за соблюдением языкового законодательства и внедрение «эффективных форм общественного контроля» в этой сфере. Новой структуре также было поручено заняться разработкой законопроектов по развитию языка, введением в оборот новых слов, созданием узбекских альтернатив современных терминов, а также ускорить внедрение узбекского алфавита на основе латинской графики. Указ утвердил 21 октября Днем узбекского языка. [Мирзиёев,2019]

Язык – это наше национальное достояние, которым мы по праву гордимся и которое обязаны сохранять.Необходимо остановить засорение нашего языка обильными иностранными включениями.Запретить писать вывески на иностранном языке в городах или писать крупно на узбекском, а мелкими буквами внизу - на иностранном.Причём названия гостиниц, магазинов, салонов и пр., а также реклама должны быть узбекскими и по написанию, и по смыслу, удобоваримыми, благозвучными и корректными.За этим должна следить исполнительная власть на основании закона.

Наше отношение к государственному языку мы должны рассматривать как отношение к нашей независимости, преданность и уважение к нему – как преданность и уважение к Родине.

Литература:

1. Закон «О государственном языке» 21 октября 1989 года.Статья 1. настоящего Закона и статья 4. Конституции Республики Узбекистан.№26-28, ст.453.
2. Закон Республики Узбекистан №ЗРУ-615 «Об установлении дня праздника узбекского языка». 10 апреля 2020 года.
3. Президент Узбекистана Ш.М.Мирзиёев. Указ «О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка как государственного языка» 2019г. 21 октябрь.
4. Кононов А. Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. — М., Л.: Издательство АН СССР, 1960.

5. Ходжиев А. П. Узбекский язык // Языки мира: Тюркские языки. — М.: Институт языкознания РАН, 1996. — С. 426

ДАВЛАТ ТИЛИГА ЭЪТИБОР ҲАР БИР ФУҚАРО БУРЧИДИР

Муродқосим Абдиев Давлат тилида иш юритиш ва малака ошириш марказининг Самарқанд бўлими раҳбари, профессор

Мустақиллик йилларининг дастлабки пайтларидаёқ жамиятимизда бўлган юз берган ўзгаришлар натижасида тилимизда мавжуд бўлган айрим сўз ва терминлар муомалага қайта кириб кела бошлади. Бу даврда ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ошди, ижтимоий вазифаси ва қўлланиш даражаси анча кенгайди. Истеъмолда бўлган жуда кўплаб сўз ва терминлар аслий ҳолатига, яъни, шарқона ифодасига қайтарилиши борасида анча ишлар қилинди. Аммо баъзи бир русча –байналмилал терминларни шарқона муқобиллари билан алмаштириш яхши натижа бермади. Масалан, газета – рўзнома, журнал –мажалла, жарижа, ойнома, институт – илмгоҳ, олийгоҳ, билимгоҳ, аэропорт – тайёрагоҳ, бандаргоҳ, қўналға, район-ноҳия, стадион-ўйингоҳ, факультет -куллиёт кабилар. Ваҳоланки, буларнинг асосий қисми тилимизга рус тили орқали кириб келган бўлиб, луғат бойлигимизда мустаҳкам ўрин олган лотин, юнон француз, инглиз ва бошқа ғарб тилларига хос сўз ва терминлардир.

Аммо ўтган ўттиз йил давомида “Давлат тили” ҳақидаги қонун талабларига риоя этиш ҳамда лотин алифбосини жамият ҳаётига жорий этиш борасида анча сусткашликка йўл қўйилди. Давлат тили байрами номигагина 21 октябрь куни Алишер Навоий бобомиз ҳайкалига гул қўйиш ва она тилимиз қадри ҳақида нутқ ирод қилиш, шеърлар ўқиш ҳамда оммавий ахборот воситаларида чиқишларни ташкил қилиш ва ҳакозалар билан “хўжа кўрсинга” ўтказилар эди.

Давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёев 2019 йил 21 октябрда “Давлат тили ҳақида” ги қонун қабул қилинганлигининг 30 йиллиги муносабати билан сўзлаган нутқида бу масалага алоҳида тўхталиб, ўзбек тилининг нуфузи ва мавқеини янада кўтариш масаласига алоҳида эътибор бердилар. Ўзлари ҳам Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг сентябрь ва февраль ойларида бўлиб ўтган сессияларида ўзбек тилида нутқ сўзладилар. Президентимизнинг она тилимизга бўлган эҳтироми халқимиз ҳамда чет эллардаги ватандошларимизнинг тилимизга бўлган эътиборини янада кучайтиришга шукуҳ бағишлади.

Мазкур йилда ҳукуматимизнинг 2021 йил 10 февралда “Лотин ёзувига асосланган ўзбек алифбосига босқичма босқич тўлиқ ўтишни таъминлаш бўйича “Йўл харитаси” ҳамда 2021 йил 16 мартда “ Савдо, ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш объектларига ном беришни такомиллаштириш тўғрисида”ги қарорлари қабул қилинди.

Ушбу ҳукумат ҳужжатларда кўрсатилишича, 2023 йилнинг 1-январидан бошлаб, республика ҳудудида тўлиқ лотин алифбоси жорий этилади. Айни пайтда уни босқичма босқич амалга ошириш ишлари олиб борилмоқда.

Иккинчи қарорга мувофиқ эндиликда ташқи ёзув, пешлавҳа, реклама ва эълонлар ҳамда товар ва хизмат кўрсатиш белгилари давлат тили қоида ва меъёрларига мувофиқ келадиган, миллий қадриятларга мос келадиган тарзда қонун талабларига мувофиқ равишда номланишига алоҳида эътибор берилади.

Ҳукуматимизнинг мазкур қарорларини амалга ошириш учун жойларда тушунтириш ишлари амалга оширилмоқда. Аммо “шоли курмаксиз бўлмаганидек” ушбу қарорлар ижросини таъминлашни турли баҳоналар билан пайсалга солаётган фуқаролар ҳам онда-сонда бўлса-да, учраб туради. Менга касбим тақозаси билан “Давлат тили ҳақида”ги қонун талаблари асосида Самарқанд шаҳри кўчаларидаги турли тиллардаги ёзувларни лотин алифбосига алмаштириш бўйича тузилган ишчи комиссияси таркибида иштирок этишимга тўғри келиб қолди.

Шаҳримизда давлат сиёсати ва ҳукумат қарорларидан яхши хабардор ва унинг ижросини ўз вақтида амалга оширишга амал қилиб келаётган фуқароларимиз ҳам талайгина. Аммо буни тушуниб етса ҳам амалга оширишни хоҳламайдиган баъзи шахслар ҳам орамизда борлигидан афсусланиб кетасан, киши. Баъзиларига давлат тили тўғрисида гапирсангиз, энсаси қотади-да, қачондан бери ўзбекча ёзиладиган бўлди?,-дейди. Биз сиз ҳали ҳам собиқ Иттифоқ фуқаросимисиз ёки Россияникими? – десангиз, дарров сергак тортади-да: йўқ, Ўзбекистон фуқаросиман, -дея жавоб беради.

Гўшт дўконингизга “Мясо” дан кўра “Гўшт” –деб ёзсангиз маъқул эмасми? –десангиз. Дўкон эгасидан ҳамма шундай ёзяпти-ку, -деган жавоб оласиз. Товуқ гўшти сотувчисига: “Куринный дом”дан кўра “Товуқ гўшти” шаклида ёзганингиз маъқул эмасми?-деган саволингизга у ўзбекча ёзсак кулгили бўлади-да. Ўзингиз ҳам бир ўйлаб кўринг, кулгили-да, деб саволимизга эътироз билан жавоб беради. Мен бир оз эҳтиросга берилиб, 50 миллиондан ортиқ кишининг она тилиси бўлган ўзбек тили қачондан бери кулгили бўлиб қолди, ука! Гапни ўйнаб бўлса ҳам ўйлаб гапиринг, дейиш билан чекландим, холос. Фикри тор, дунёқараши эски мафкура билан шаклланган кишига нимани ҳам тушунтириб бўларди? Ёки сартарошга: “Нега “Парикмахерская” деб ёзгансиз, ичкаридаги ёзувларингиз инглизча –ку” –десам. Бу ерга туристлар келади,-деган жавобни

олдим. Ажабо, 10 кунга келадиган турист Самарқандга келиб соч олдирса-я. Майли, балки шундайдир. Лекин давлат тилига ҳурмат шуми? Қонунда ҳам кўрсатилган муассаса номи биринчи навбатда давлат тилида, эҳтиёж бўлса, бошқа тилда ёзилиши керак эмасми?

Ишчи гуруҳ аъзолари билан дўконлардан бирининг номи фақат рус тилида ёзилган номини олиб қўйишни эгасига тушунтирдик. Ёзувни олаётган пайтимизда ёшгина лейтенат участка нозири (Геофизика қўрғонидан жойлашган 6-шаҳар милиция бўлими ҳудудига қарашли) менга қараб, агар ёзувга ва деворга зарар етказилса, биласизми, нима бўлади? Бунинг зарарини сизнинг ойлигингиздан жарима сифатида ундириб олади-я, - деб пўписа қила бошлади. Участка нозирининг менга берган дашноми дўкон эгасини руҳлантириб юборди. Олмайсизлар, деб туриб олса бўладими ....? Ёзувни бир амаллаб олдик. Ана энди эртаси куни ўша дўкон соҳиби менга телефон қилиб, сўкина бошлади. Ишчи гуруҳ аъзолари-ю, ҳокимиликдагилар ҳам қолмади. Телефон номеримни унга ким берган? Албатта, участка нозири берган. Чунки биз мазкур ҳудудга келаётганимизда, у билан бир неча марта қўнғироқлашган эдик-да.

Ана шундай. Минг афсуски, жамиятимизда фақат ўз манфаатини ўйлайдиган кишилар ҳамон орамизда сувараклардек яшамоқда. Кийимида Ўзбекистон герби акс этган ёш йигитчада на Ватан ғурури, на Ватан тили, на давлат тилига, хусусан, ўз она тилисига бўлган ҳурмат ва унга эҳтиром кўрсатишдек туйғудан заррача ҳам йўқ. Мамлакатимизда бўлаётган жиддий ислоҳотлардан хабардор ҳам эмас. Бундай кишилар фақат бугун билан яшайди, холос. Эртани, Ватан ва миллат келажагини ҳеч қачон ўйламайди.

Ушбулардан келиб чиққан ҳолда ёзувларни алмаштириш жараёнидаги баъзи бир пайдо бўлган масалаларни ҳал этиш борасида ўзимнинг тажрибамдан келиб чиқиб, тавсияларни беришга ҳаракат қилдим.

Баъзилар қаҳвахона ёки ресторанлар пешлавҳа ёки ташқи ёзувининг нотўғри ёзилганига эътироз билдирсангиз, ўзбекча-ку, кафе Юлдуз ёзганман, дейди. Бу биринчидан, ўзбек тилининг жумла қурилишига тўғри келмайди, русча қолип, ўзбекчаси “ Yulduz qahvaxonasi” шаклида бўлиши лозим. Иккинчидан, ўзбек тилида кафе эмас, қаҳвахона бўлади.

Ёки “ Бек шашлык” “доставка” сингари пешлавҳаларга кўзингиз тушиб қолади. Шашлик сўзи оғзаки сўзлашув нутқига хос бўлиб, бунинг устига ўзбек тилининг крилл алифбосида “ы “ ҳарфи йўқ. “Шашлык” – адабий тилда кабоб, деб номланади. “Доставка” сўзини “Yetkazib berish”, “ Бек шашлык” ни эса ” Bek kabobi” ёки “Bek kabobi qahvaxonasi” шаклида бериш мақсадга мувофиқдир.

Шаҳар тугул узоқ туманларда ҳам “Мы открылись” шаклида ёзувга кўзингиз тушади. Барока топкур “Ishni boshladik”, “Faoliyatimizni boshladik” тарзида ёзсанг бўлмайди, дегинг келади.

Баъзилари эса русча жумлаларни ўзбекчага қандай ёзсак бўлади, - деган савол билан ҳам мурожаат қилишади. Масалан, “Ремонт глюшитель все автомарки, автогенная работа” ни “Barcha rusumdagi avtoulovlar motori ovozini rostalash va avtopayvand ishlari”, “Мотор ходовой замена масла”ни “ Avtoulov motori va yurish qismini ta` mirlash, moyini almashtirish” шаклида бериш мумкин.

“Гўзаллик салони” ни очган хонимлар ҳам ўзбекчасини топа олмаяпмиз, деб қолишади. Назаримизда, уларни шундай ёзиш дурустроққа ўхшайди. Гўзаллик салони. Мижозларга қуйидаги хизматларни кўрсатамиз: сочни текислаш, сочни қирқиш, сочни турмаклаш, юзни пардозлаш, тирноқ бўяш ва ҳакоза.

Хуллас. “қидирган имкон топади” –деганларидек, ватанпарвар киши имкон даражасида русча –байналмилал сўзларнинг муқобилларини топишда ҳам соҳа мутахассислари ва тилшунослар билан маслаҳатлашган ҳолда ҳукуматимиз қарорларига оғишмай амалга қилишга интилади. Хоҳиши бўлмаган, эскича фикрлайдиганлар эса баҳона излаш билан авора бўлиб юраверади. Лекин ҳар бир кишининг кўнглида “ВАТАН” деган туйғу доимо жўш уриб туриши лозим.

КУЛОЛЧИЛИК ТЕРМИНЛАРИНИНГ СИНТАКТИК УСУЛ БИЛАН ЯСАЛИШИ

Сариев Ш. (СамДУ Ўзбекистон-Финландия педагогика институти)

Маълумки, тилшуносликда соҳа терминларининг турли жиҳатларини ёритишга доир анчагина изланишлар олиб борилган. Г.О.Винокур, Д.С.Лотте, А.А.Реформатский, О.С.Ахманова, В.П.Даниленко, А.В.Суперанская каби тилшунослар терминология ривожига муносиб ҳисса қўшдилар.[8] Ўзбек терминологиясида ўтган асрнинг 50-йилларидан кейин қатор салмоқли илмий ишлар амалга оширилди. С.Иброҳимов, С.Усмонов, С.Акобиров, А.Ҳожиев, Н.Маматов, Р.Дониёров, А.Мадвалиев каби тилшуносларнинг тадқиқотларини бу соҳада олиб борилган самарали ишлар сифатида қайд этиш мумкин.[9] Шу билан бирга, ўзбек тили лексикаси масалалари “Ҳозирги ўзбек адабий тили”[10],

[8]Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии//Труды МИФЛИ. Т.5. Сборник статей по языковедению. – М., 1939. – С.3-54

[9]Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-ҳунар лексикаси. I. – Тошкент: Фан, 1956

[10]Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o’zbek tili – Toshkent: Universitet, 2006.

“Ўзбек тили лексикологияси”[11]каби тадқиқотлар ва дарсликларда ҳам ўз ифодасини топган.

Мустақиллик йилларида терминларга хос хусусиятларни янги аспектда тадқиқ қилиш кўзга ташланади. Жумладан, М.Абдиев, И. Пардаева, Н.Усмонов, З. Исақова, З.Мирхолиқов, Ғ.Исмаилов, А.Тўрахожаева каби тилшуносларнинг номзодлик ишларида соҳалар терминологиясининг ўзига хос лисоний хусусиятлари ўз аксини топган.[12] Ўзбек тилшунослигида терминларнинг бадиий матнда қўлланиш хусусиятларига дастлаб Ҳ.Шамсиддинов эътибор қаратди. Унинг номзодлик диссертациясида шеърий нутқда терминларнинг услубий вазифалари ҳамда терминлар функционал-семантик синонимларининг қўлланиш хусусиятлари ўрганилган.[13] Аммо, таъкидлаш лозимки, тилшунослигимизда шу вақтга қадар кулолчилик терминларнинг лингвистик хусусиятлари монографик аспектда тадқиқ қилинмаган.

Ўзбек тилининг кулолчилик лексикаси таркибидаги ясама сўз ва атамалар умумтил сўз ясалиш системаси қоидалари ва принсиплари асосида юз берган. Кулолчилик буюмлари, бу буюмларда ишланган чизма, шакл ва безак номлари, кулолчилик касби билан шуғулланувчи шахс номлари сўз ясалишининг қуйидаги усуллари асосида юз берган ва шаклланган:

1. Ўзакка қўшимча қўшиш (морфологик усул) орқали.
2. Сўзларни қўшиш (синтактик усул) орқали.

Биз ушбу ишимизда кулолчилик терминларининг синтактик усул билан ҳосил бўлиши хусусида фикр билдирамиз.

Синтактик усул билан сўз ясалиши кулолчилик лексикасида энг сермаҳсул эканлиги кузатилади. Соҳа лексикаси таркибига кирувчи қўшма сўзларнинг ясалиш қолипларини ва ясовчи бирликлар орасидаги муносабатни қуйидагича белгилаш мумкин:

1. Сифатловчи–сифатланмиш синтагмасини эслатадиган қўшма сўзлар. Қўшма сўзларининг бу қолип асосида юзага келиши уларнинг аслида сифатловчи-сифатланмиш муносабатини билдирувчи сўз бирикмаларидан ўсиб чиққанлигини кўрсатади. Кулолчилик лексикасида бу қолип асосида ясалган номлар бир талай: *карнайгул, қиёқўт, лолагул, бурагул, ғунчагул, қўшхат, учхат, тўртхат, мунчоқгул, гажакгул, тоштароқ, гажакбарг, туғбарг, найзабарг, чорбарг, бинафшагул, гандумгул, тўпмунчоқ, палакгул, оқсоқол, оқтош, оқ ранг, яшил ранг, мовий ранг, сариқ ранг, ҳаво ранг, оқ йўл каби.*

---

[11]Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981.
[12]Пардаева И.Ўзбек тилининг заргарлик терминологияси: Филол. фан. номз.дисс. ... автореф. – Тошкент, 1994
[13]Шамсиддинов Х. Термины в художественной речи:Автореф. дисс. …канд. филол. наук. –Ташкент, 1984.

2. Қаратқич-қаралмиш синтагмасини эслатадиган қўшма сўзлар. Бу типда яралган сўзлар бир нечта бўлиб, уларнинг ўзига хос хусусиятлари мавжуд. Қаратқич-қаралмиш муносабатидаги сўз бирикмалари қўшма сўзга айлангач, биринчи компонент таркабидаги қаратқич кўрсаткичи, иккинчи компонентдаги эгалик (ИИИ шахс) кўрсаткичи қисқаради: *нажжорбоши, устабоши, анорғул, бодомгул, қалампиргул, нокгул, пистагул, қовоқгул, гулқўчқароқ, жийдагул, чумчуққанот, қарғатирноқ, гилосбарг, пистагул, толбарг, нокбарг, қовоқбарг, қалампиргул, пистагул, қовоқгул, анжиргул, чойбарг, ўсмагул, каптардуми, палакгул, қушкўзи каби.*

Қўшма сўзларни такрибий тузилишига кўра ҳам алоҳида типларга ажратиш мумкин: Бу типлар тадқиқотларда қайд этилган. Қўшма ўйин номларини таркибий тузилишига кўра қуйидаги типларга бўлиш мумкин:

1. Сифатловчи - сифатланмиш синтагмаси асосида тузилса:

ОТ+ОТ: *карнайгул, қиёқўт, лолагул, бурагул, ғунчагул, мунчоқгул, тоштароқ, туғбарг, найзабарг, бинафшагул, гандумгул, тўпмунчоқ, палакгул.*

СИФАТ+ОТ: *гажакгул, гажакбарг, оқ ранг, яшил ранг, мовий ранг, сариқ ранг, ҳаво ранг, оқ йўл.*

СОН+ОТ:*қўшхат, учхат, тўртхат, чорбарг каби.*

2. Қаратқич-қаралмиш синтагмасини эслатадиган қўшма сўзларнинг таркибий тузилиши қуйидагича:

ОТ+ОТ: *устабоши, нажжорбоши, анорғул, бодомгул, қалампиргул, нокгул, пистагул, қовоқгул, гулқўчқароқ, жийдагул, чумчуққанот, қарғатирноқ, гилосбарг, пистагул, толбарг, нокбарг, қовоқбарг, қалампиргул, пистагул, қовоқгул, анжиргул, чойбарг, ўсмагул, палакгул каби.*

Ўзбек тилининг кулолчилик терминологиясида аффиксатсия усулида ясалиш энг сермаҳсул усуллардан саналади. Соҳа терминологиясини ясашда *-чи, -гир, -хона, -каш, -кор, -дон, -лик, -чилик, -симон* сингари аффикслар фаол иштирок этиши кузатилди. Уларнинг ясаш унумдорлиги турличадир.

4. Сўзларни қўшиш ёки синтактик усул билан ясалиш ҳам соҳа терминологияси учун хос хусусиятдир. Бундай ясалишнинг қуйидаги қолиплари мавжудлиги кузатилди: ОТ+ОТ, СИФАТ+ОТ, СОН+ОТ сингари қолипларда терминлар ҳосил қилиш анча фаоллиги маълум бўлди.

Хуллас, терминологияда, хусусан, кулолчиликда термин ҳосил қилишнинг синтактик усули анча фаол бўлиб, унинг кенг тадқиқ этиш тилшунослигимиз олдидаги долзарб масалалардан бири ҳисобланади.

Адабиётлар:

1. Ўзбек тилининг илмий-техникавий терминлари тарихидан. – Тошкент: Фан, 1979;
2. Маматов Н. Ўзбек пахтачилик терминологияси: Филол. фан. номз.дисс. ...автореф. – Тошкент, 1995;
3. Ҳожиев А. Термин танлаш мезонлари. Ахборот. 11 – 12-чиқарув. – Тошкент: Фан, 1996;
4. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017.
5. Тўрахожаева А. Мустақиллик шароитида ўзбек тили ижтимоий-сиёсий лексикасининг тараққиёти: Филол. фан. номз.дисс. ... автореф. – Тошкент, 2012.

NOFILOLOGIK YO‘NALISHLARDA O‘ZBEK TILINI DARSLARINI O’QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Kosse Rulen Bekirovich

SamISI “Jismoniy madaniyat” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek tili xususida fikr yuritilib, o‘zbek tili darslarini tashkil etishda axborot texnologiyalari hamda pedagogik usullardan foydalanish haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek, maqolada o‘zbek tili va uning amaldagi tadbiqi, oliy ta’lim muassasalarida o‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili fanining o‘qitilishi haqida yozilgan.

Kalit so’zlar: Til, tafakkur, metod, tarbiya texnologiyasi, interfaol metod, o‘qitish texnologiyasi, pedagogik texnologiya, ta’lim usuli, ta’lim metodi.

Til eng buyuk milliy qadriyatdir. Til nafaqat muloqot vositasi, balki tafakkur mahsuli hamdir. Til ijtimoiy xususiyat kasb etib, insonlar orasida o‘zaro muloqotni amalda qo‘llash jarayoni hamdir.

Mamlakatimizda o‘zbek tilining davlat tili sifatida qabul qilinishi, o‘zbek tilining imkoniyatlarini, nufuzini yanada oshirdi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir. O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millatlar va elatlarning tillari urf-odatlari va an’analari hurmat qiliishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi” deya keltirib o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasii Oliy Kengashining 1989- yil 21- oktabrda bo‘lib o‘tgan sessiyasida ona tilimizga “Davlat tili” maqomini berish to‘g‘risidagi Qonun qabul qilindi. Qonunning qabul qilinishi respublikamizdagi barcha ta’lim muassasalari, davlat tashkilotlarida o‘zbek tiliga bo‘lgan e’tibor kuchaydi. Ish

yuritish hujjatlariga alohida e’tibor qaratildi. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu Qonunning 19- moddasida shunday deyilgan: Qo‘shma korxonalarning “Muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari muhrlari, tamg‘alari, ish qog‘ozlarining matnlari davlat tilida bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan xalqaro tashkilotlar va muassasalar, qo‘shma korxonalarning, shuningdek, milliy madaniy jamiyatlar va markazlarning muhrlari, tamg‘alari, ish qog‘ozlari matnlarining tarjimasi davlat tilida takrorlanadi”.

Oliy ta’lim muasssalarida “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedralarining tashkil etilishi ushbu sohada yangidan yangi izlanishlarni, tadqiqotlarning yaratilishiga keng imkoniyatlar yaratmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-sonli Farmonida 2020-2030- yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasi hamda mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanish, davlat tilining xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzini oshirish, bu borada xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish alohida belgilab qo‘yilgan.

Talabalarning “O‘zbek tili” fanini o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or va interfaol usullaridan foydalanish katta ahamiyatga egadir. Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, kompyuter dasturlari, elektron materiallardan foydalaniladi. Ma’ruza va amaliy darslarda mos ravishdagi ilg‘or pedagogik texnologiyalar qo‘llaniladi. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol usullar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarni qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday usul o’quvchilarni tayyor bilimlarni o‘zlari qidirib topishga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlarga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalashiga sharoit yaratadi. Shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik funksiyasini bajaradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim-tarbiya jarayonining bir tizimga soligan ilmiy-nazariy va metodik asoslangan yangi shakl, usul vavositalarining majmuidir. Bunda yangi mazmun, shakl, usul va vositala uyg’unligida maqsad, vazifa, faoliyat va pedagogik natija yaxlitligi ta’minlanadi hamda o‘quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o‘quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv eng avvalo, tasvirlash emas, balki loyihalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi, amaliy, ko‘rsatmali tuzilmada o‘z ifodasini topadi. Pedagogik jarayonda atamalarni to‘g‘ri qo‘llash uchun ularning ma’nolarini aniq bilib olish lozim deb

hisoblaymiz. Masalan, pedagogik faoliyatimiz davomida metod, usul, pedagogik texnologiya, interfaol metodlar kabi br qancha terminlardan foydalanamiz.

Metod –so‘zi yunoncha tadqiqot, maqsadga erishish yo‘li, usuli deganidir. Bu so‘zning kelib chiqishi ining ilmiy kategoriya sifatidagi talqinida ham aks etgan. Metod - eng umumiy ma’noda maqsadga erishish usuli, ma’lum tarzda tartibga solingan faoliyat. Nutq jarayonida tovushlarning o‘zgarishi modulini o‘qitishda samarali metodlardan foydalanish lozim. Har bir metodni qo‘llash jarayonida uning samaradorligini inobatga olish lozim.

Ta’lim metodlari deyilganda, nutq jarayonida tovushlarning o‘zgarishi modulini egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etishga doir o‘qituvchining o‘rgatuvchi ishi va o‘quvchilar o‘quv – bilish faoliyatini tashkil etish usullari yig‘indisi tushuniladi.

Ta’lim usuli – nutq jarayonida tovushlarning o‘zgarishi modulini o‘qitish metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni. Usul va metod butun va qism sifatida bir-biriga bog‘lanadi. Usullar yordamida faqat o‘quv vazifasini bir qismi hal qilinadi.

Metodika – qat’iy ketma ketlikka (algoriymik xarakterga), ilgari o‘rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilish, biror bir ishni maqsadga muvofiq amalga oshirish metodlari, yo‘llari majmui. “Metodika” tushunchasi turli fanlarni o‘qish bilan bog‘liqlikda ham qo‘llanib, ma’lum sohani o‘qitish jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalar yig‘indisida o‘z aksini topadi.

Pedagogik texnologiya – bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo‘naltrilgan hamda ushbu maqsadning natijalarini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayoning mazmunidir.

O‘qitish texnologiyasi – o‘quv mashg‘ulotlarining har bir bosqichi alohida-alohida loyihalash, kutiladigan natijalarni oldindan aniqlashtrish, har bosqichda qo‘llaniladigan shakl, metod va vositalarni oqilona tanlab olish, o‘qituvchi va o‘quvchining harakatlarini oydinlashtrishga qaratilgan algoritmik ketma-ketlik.

Tarbiya texnologiyasi – nutq jarayonida tovushlarning o‘zgarishi modulini o‘qitishda tarbiya natijalariga asoslanib, tarbiyaning maqsad va vazifalarini oydinlashtrish, tarbiya jarayoninng har bir bosqichini alohida – alohida loyihalash, tarbiyaning shakl, metod va vositalarini aniq belgilab olishga qaratilgan tizimli jarayon.

Interfaol metod – o‘quv jarayonining tarkibiy qismi bo‘lib, bir vaqtida ham o‘qituvchi, ham o‘quvchini faollashtrishga yo‘naltrilgan o‘qitish usullari majmui. Bunda nutq jarayonida tovushlarning o‘zgarishi modulini o‘qitishda interfaol metodlarni qo‘llash va bundan samarali natijalarni olish kerak. Ushbu modulni o‘rganishda” Venn diagrammasi” , “FSMU” kabilarni aytib o‘tish mumkin.

ONA TILI DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL USULLARINING QO‘LLANILISHI

Botirova Gulchehra Qosimovna
Samarqand shahridagi 42-umumta‘lim maktabi
ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili darslarini tashkil etishda interfaol metodlardan foydalanish keltirib o‘tilgan. Interfaol metodlarning tuzilmasi ham keltirib o‘tilgan bo‘lib, mazmun va shakl, vositalar, hamkorlik, o‘qituvchiga qo‘yiladigan talablar interfaol usullarda tashkil etilgan ta’lim tuzilmasida aks etgan.

Kalit so’zlar: interfaol metod, grafik organayzer, reproduktiv metod, evristik suhbat.

Grafik organayzerlar – o‘quv jarayonida nutq jarayonida tovushlarning o‘zgarishi modulini o‘rganishda qo‘yilgan maqsadga erishishda yordam beruvchi chizma, jadval, grafiklar dan foydalanish ham yuqori natijalarni kafolatlaydi. Agar grafik organayzerlarni o‘qituvchi tayyor (to‘ldirilgan) holda qo‘llasa, vosita vazifasini, o‘quvchilarning mashg‘ulot mavzusiga doir bilimlarni mustahkamlash va fikrlashini rivojlantrish maqsadida ishlatilsa, metod vazifasini bajaradi. Masalan, shunday grafik organayzerlardan “Qanday”, “Nima uchun”, “BBB” kabi organayzerlarini misol keltirish mumkin.

Interfaol metod – o‘quv jarayonining tarkibiy qismi bo‘lib, bir vaqtida ham o‘qituvchi, ham o‘quvchini faollashtrishga yo‘naltrilgan o‘qitish usullari majmui. Bunda nutq jarayonida tovushlarning o‘zgarishi modulini o‘qitishda interfaol metodlarni qo‘llash va bundan samarali natijalarni olish kerak. Ushbu modulni o‘rganishda ”Venn diagrammasi” , “FSMU” kabilarni aytib o‘tish mumkin.

Pedagogik texnologiyalar sohasidagi yangi izlanishlar bilan tanishish, o‘qitishning faol usullarini bilish va qo‘llay olish har bir pedagog oldiga qo‘yayotgan zamon talablarining asosiylaridandir. Keyingi manbalarda e’lon qilingan axborotlarni tahlil etgan holda quyidagi ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan interfaol usullarni keltirib o‘tamiz.

O‘qituvchi o‘quv jarayonini turli xil ta`lim usullari yordamida tashkil etadi. “Ta’lim metodi, bu – o‘quvchilarning bilim, malaka va ko‘nikmalarini o‘stirish, ularda dunyoqarashni shakllantirish, o‘zlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirish-o‘qituvchi qo‘llaydigan ish usullaridir“. Usul amaliy mashg‘ulotda o‘z mohiyatiga mos usullar orqali qo‘llanadi. “...ta’lim va tarbiya priyomlari ma’lum sharoitda o‘z ta’sir doirasini kengaytiradi, ta’lim va tarbiyaga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Bunday vaqtda biz ayrim priyomdan metod sifatida foydalanamiz yoki boshqacha aytganda, priyom metodga aylanadi”.

Ta’lim jarayoni ikki tomonlamalik xarakteriga ega: o‘qituvchi o‘qitadi, o‘quvchi o‘qiydi. Tabiiyki, o‘qituvchining ham, o‘quvchining ham faoliyatida ma’lum maqsad bo‘ladi. O‘qituvchi faoliyatidagi asosiy maqsad-ta’lim berish, unda anglash ko‘nikmasini hosil qilish, his etish madaniyatini, axloqiy tushunchalarni rivojlantirish, uni ma’naviy pok kishi qilib voyaga yetishtirishdir. O‘quvchi faoliyatidagi asosiy maqsad-o‘qituvchining topshirig‘ini bajarish, o‘quv jarayonida beriladigan bilimni o‘zlashtirishdir.

O‘quvchi, ayniqsa, kichik yoshdagi o‘quvchi o‘qituvchi faoliyatidagi maqsadning mohiyatini tushunmasligi, ta’lim va tarbiya jarayonini to‘liq tasavvur qila olmasligi mumkin. Ammo u o‘qituvchi topshirig‘ini bajarish kerakligini biladi, his qiladi.

O‘quvchi o‘qituvchining u yoki bu topshirig‘ini bajarish bilan o‘z bilimi ortib, bilish faoliyati rivojlanayotganini sezadi, lekin o‘qiyotgan fani usulini egallab borayotganini his etmaydi.

Shunga ko‘ra, o‘qituvchi ta’lim berish jarayonida o‘quvchilarda anglash faoliyatini hosil qilish, ularga adabiy materialni ongli va chuqur qabul qilish yo‘llarini, mustaqil vazifalarni bajarishda bu yo‘llardan foydalanishni o‘rgatishi lozim.

Evristik suhbat yangi bilimlarni muammoli tarzda egallashga yo‘naltiriladi. Bunda savollar shunday ketma-ketlikda berilishi zarurki, natijada ularga “ha” yoki “yo‘q” tarzidagi javoblarni olish emas, aksincha, o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, ularda faollikning yuzaga kelishini ta`minlash, ularni tahlil qilishga undash, dalillarni ilgari surishga erishish imkoniyati yaratilsin.

Demak, evristik suhbat jarayonida o‘quvchilar bilimlarni o‘zlarining tirishqoqliklari va mustaqil fikr yuritish layoqatiga egaliklari bois o‘zlashtira olsinlar.

Ta’lim-tarbiya jarayonida birgalikda o‘qish metodlaridan foydalanish har bir o‘quvchini doimiy qizg‘in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o‘rgatish, ularda shaxs sifatida mustaqillikni tarbiyalash, insoniy qadr-qimmat tuyg‘usini vujudga keltirish, o‘z kuch va qobiliyatiga ishonchi tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiladi. Birgalikdagi ta’lim har bir o‘quvchining o‘z muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishi yoki aksincha bo‘lishini anglagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o‘quv topshiriqlarini sifatli bajarishga, o‘quv materialini puxta o‘zlashtirishiga intilishni shakllantiradi.

Masalan, Interfaol ta’limning samarali usuli bu “**Charxpalak**” metodidir.

“**Charxpalak**” metodi mavzu yuzasidan ma’lumotlarni umumlashtirgan holda puxta o‘zlashtirishda samarali usul sanaladi. Ushbu usulni qo‘llash quyidagicha amalga oshirilishi mumkin:

1. Auditoriya kichik guruhlarga bo‘linadi.
2. Har bir guruhga savollar bo‘lib beriladi.

3. Har bir guruhga qog‘oz beriladi va guruh a’zolari 4-5 daqiqa mobaynida o‘zaro fikrlashib, javobni qog‘ozga yozadilar.

4. Belgilangan vaqt o‘tgach, o‘qituvchining ishorasi bilan mikroguruhlar raqamiga qarab javoblar yozilgan qog‘ozni keyingi guruhga uzatadilar.

5. Guruh har bir savolga o‘zidan oldingi guruh yozgan qo‘shimcha javobiga qo‘shimcha qiladilar.

6. Har bir guruh a’zolari o‘zining yozgan javobini izohlab beradi.

7. Har bir guruhning savollarga yozgan javobi boshqa guruhlarning qo‘shimcha izohlari berilgan holatda o‘ziga qaytib keladi. Demak, savollar yozilgan qog‘oz guruhlar orasida aylanib, to‘ldirilgan javoblar shaklida keladi.

Ushbu metodning afzalligi shundan iboratki, bunda guruh a’zolari oldindan tayyorlab qo‘yilgan mazmunni, ya’ni savollarga bo‘lib tashlangan mavzuni to‘liq o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Har bir guruhning fikrlari muhokama qilinishi natijasida guruh a’zolari o‘z yutuq va kamchiliklarini aniqlab oladi. Eng muhimi, o‘quvchilar mustaqil fikrlashga, faollikka yo‘naltiriladi va ularda bilim shakllanibgina qolmay, bir-birlarini baholay olish ko‘nikmasi ham paydo bo‘ladi. Shu yerda muammoli va hamkorlikdagi ta’lim usullari o‘zaro uyg‘unlashadi. Ya’ni, o‘quvchi ham yolg‘iz izlanadi, ham o‘z fikrini o‘rtoqlariga yetkazib, asoslash orqali birgalikda bilim o‘zlashtiradi.

O‘ZBEK TILIDA TENG BOG‘LOVCHILI QO‘RILMALAR SEMANTIKASI

Norboyeva D.J.
SamISI katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada til birliklarining sintaktik imkoniyati, nutq jarayonidagi boshqa birliklar bilan munosabati va ayrim sintaktik qo‘rilmalar tarkibida muayyan presuppozitsiyaga ishora qilib, uni mazmunan murakkablashtirilgani tahlil qilingan. Til birliklari jumla tarkibida bevosita ifodalanmaganida ularning o’rni presuppozitsiya yordamida to‘ldirilib, zaruriy munosabatlar hosil qilinishi ko‘rib chiqilgan.

Kalit so’zlar: sintaktik imkoniyat, lisoniy birliklar, teng bog’lovchi, sintaktik qo‘rilmalar, mazmun, munosabat, presuppozitsiya, axborot, mrfologik, lingvistik, sintaktik.

O‘zbek tilida teng bog‘lovchilarning lisoniy birliklar o‘rtasida sintaktik munosabatni shakllantirishi ma’lum (1-3). Biroq, teng bog‘lovchilarning vazifasi shu bilan chegaralanmaydi. Ular ayrim sintaktik qo‘rilmalar tarkibida muayyan presuppozitsiyaga ishora qilib, uni mazmunan murakkablashtiradi.

Ma’lumki, morfologik so‘z shakllarining lug‘aviy ma’nosi, sintaktik imkoniyati jumlaning tarkibiy qismlari orasidagi mazmuniy munosabatlarni belgilashda muhim o‘rin tutadi. Xususan, teng bog‘lovchili qo‘rilmalarda aks etgan mazmuniy munosabatlarni belgilashda bu bog‘lovchilarning sintaktik imkoniyati ahamiyatli.

Lingvistik presuppozitsiya jumla mazmunining to‘g‘ri anglanishi uchun zaruriy uzvlardan biri hisoblanadi. Presuppozitsiya gapning semantik strukturasida aks etgan yashirin axborotni muayyan til vositasi orqali tinglovchiga yetkazadi (4-6).

Ma’lumki, lingvistik presuppozitsiya mantiqiy presuppozitsiyadan farqli ravishda ma’lum ifodalanish shakliga – moddiy vositasiga, tashqi signallariga ega (7-8). Masalan, o‘zbek tilidagi “Karim ham keldi” jumlasida yana boshqa kimdir keldi presuppozitsiyasi anglashiladi. Bu presuppozitsiyaning moddiy substrati – tashqi signali ham yuklamadir. Chunki shu yuklama presuppozitsiya uchun yo’l ochadi (8).

Teng bog‘lovchilar xam sintaktik strukturada to‘liq shakllanmagan yoki qismlari tushirib qoldirilgan gap unsurlarining mazmunini tiklash va uni tinglovchiga to‘la yetkazishda presuppozitsiya signallari vazifasini o‘taydi. Bunday holatda teng bog’lovchilar sintaktik qo’rilmada moddiy shakllanmagan axborotga – presuppozitsiyaga ishora qiladi. Teng bog‘lovchilardan va bog‘lovchisi hamma biriktiruv bog‘lovchilarga xos bo‘lgan umumiy biriktirish vazifasidan tashqari, ba’zi sintaktik qo‘rilmalarda presuppozitsiyaga ishora qiluvchi vosita sifatida gapning mazmuniy tuzilishini murakkablashtiradi. Buni quyidagi misollar tahlilida ko’rib chiqamiz: “Chiroq miltiragan bir xonadan sekretar qiz va ikki yigitcha yugurib chiqdi “ (Oybek, “Oltin vodiydan shabadalar”). Ushbu gapda va bog‘lovchisi uyushiq bo‘laklarni (sekretar qiz va ikki yigitcha) bog‘lashga xizmat qilgan. Shu bilan birga qo‘rilmaning “Chiroq miltiragan bir xonadan sekretar qiz” qismidan tushirib qoldirilgan yugurib chiqdi predikatiga ishora qilib, sodda gapni mazmunan murakkablashtirgan. Berilgan gapda va bog‘lovchisining presuppozitsiyaga ishorasi asosida “Chiroq miltiragan bir xonadan sekretar qiz yugurib chiqdi” axboroti ifodalangan. “Eshik va deraza tutqichlari oltin jiloli kumushdan yasalgan” (G‘afur G‘ulom, “Netay”) gapida va bog‘lovchisi uyushgan bo‘laklarni bog‘lash bilan birga tejash tamoyili asosida sintaktik qo‘rilmadan tushib qolgan “Eshik to‘tqichlari oltin jiloli kumushdan yasalgan” axborotiga ishora qilgan.

Anglashiladiki, sintaktik qo‘rilmadan tushirib qoldirilgan gap predikatining mazmunini aks ettirish va bog‘lovchisining zimmasiga yuklatilgan.

Til birliklarining nutq jarayonida yuzaga chiquvchi sintaktik imkoniyatlari gapning tarkibiy qismlari orasidagi mazmuniy munosabatni belgilashda ahamiyatli.

O‘zbek tilida zidlov bog‘lovchilari lisoniy birliklar o‘rtasida qarama-qarshi munosabatni shakllantirishi ma’lum. Shu bilan birga bu bog‘lovchilar ishtirokida tuzilgan ayrim sintaktik qoliplar ham presuppozitsiyaga ishora qilib gapning mazmuniy tuzilishini murakkablashtiradi. Zidlik munosabatining ifodalanishi uchun

doimo zidlanuvchi a’zolarning to‘liq ishtirok etishi shart bulavermaydi. Bunday sintaktik qo‘rilmalarda lingvistik presuppozitsiya gap va uning bulaklari orasida zidlik munosabatining shakllanishiga yo‘l ochadi. Bu xolat ayrim tasdiq-inkor xarakteridagi gaplarda kuzatiladi. Tasdiq-inkor gaplarda zidlik biror predmet voqea-hodisani rad qilish yoki tasdiqlash va boshqa predmet, voqea-hodisaga zid qo‘yish orqali shakllanadi. Bu turdagi gaplarda o‘zaro zidlanuvchi a’zolari to’liq ishtirok etmagan xolatlarda zidlik munosabati yashirin ifodalanadi. Masalan: 1. Xat yozmoqchi edim, biroq... (So‘zlashuv). 2. Qishloqqa ketmoqchi edi, ammo ishi ko‘p (“Saodat” jurnali). Birinchi gap tasdiq xarakterida bo‘lib, zidlanuvchi a’zolari to‘liq aks etmagan. Gapning “-moqchi edi + biroq” sintaktik qolipi orqali “xat yozmadi” inkor presuppozitsiyasi shakllangan. Yashirin ifodalangan bu axborot “Xat yozmoqchi edi” axborotiga zid qo‘yilgan. Presuppozitsiya hisobiga sintaktik qo‘rilmada ochiq va yashirin axborotlar o‘zaro zidlik munosabatini yuzaga keltirgan.

O‘zbek tilida ... – moqchi edi + ammo... (lekin),
... – moqchi edi-yu + biroq... (ammo; lekin),
... – moqchi edi-ya (a) + biroq... (ammo; lekin),
... – digan edi+ biroq (ammo; lekin),
... – digan edi-yu (u) + biroq... (ammo; lekin),
... – aro edi+biroq ... (ammo; lekin),
... – ar edi-yu (u) + biroq ... (ammo; lekin),
... – ar edi-ya (a) + biroq ... (ammo; lekin)

tuzilishidagi sintaktik qolipli gaplarda xam presuppozitsiya hisobiga yashirin zidlik munosabati shakllanadi.

Zidlov bog‘lovchilari har doim ham presuppozitsiyaga ishora kilmaydi. Tejash tamoyili asosida shaklan ixchamlashtirilgan gaplarda zidlov bog‘lovchilariga tushirib koldirilgan bo‘lakning mazmunini aks ettirish vazifasi yuklanadi.

Teng bog‘lovchili qo‘rilmalarda aks etgan mazmuniy munosabatlarni belgilashda ayiruv bog‘lovchilarining xam sintaktik imkoniyati ahamiyatli. Buni quyidagi misollar tahlilida ko‘rishimiz mumkin: “Bolam, kuch degan yo suyakdan, yo go‘shtdan bo‘lar ekan” (G‘..G‘ulom. “Yodgor”).

Ushbu gapda yo bog‘lovchisi uyushiq bo‘laklarni (yo suyakdan va yo go‘shtdan) bog‘lashga xizmat qilgan. Shu bilan birga qo‘rilmaning “Bolam, kuch degan suyakdan” qismidan tushirib qoldirilgan bo‘lar ekan predikatiga ishora qilib, sodda gapni mazmunan murakkablashtirgan. Berilgan gapda yo bog‘lovchisining presuppozitsiyaga ishorasi asosida “Bolam, kuch degan suyakdan bo‘lar ekan” axboroti ifodalangan.

“O‘ktam dam cholga, dam tegirmonga qarab indamay turaverdi” (Oybek “Oltin vodiydan shabadalar”). Bu gapda dam bog‘lovchisi takror holda qo‘llanilib, uyushgan bo‘laklarni bog‘lagan, shu bilan birga sintaktik qo‘rilmaning “O‘ktam dam cholga”

qismidan tushirib qoldirilgan qarab indamay turaverdi predikatiga ishora qilib matnni semantik murakkablashtirgan. Dam bog‘lovchisining presuppozitsiyaga ishorasi asosida “O‘ktam cholga qarab indamay turaverdi” axboroti ifodalangan. Yuqoridagi misollardan anglashiladiki, tejash tamoyili asosida sintaktik qo‘rilmadan tushirib qoldirilgan gap predikatining mazmunini aks ettirish birinchi qurilmada yo bog‘lovchisi, ikkinchi qo‘rilmada dam bog‘lovchisi zimmasiga yuklatilgan.

Xullas, til birliklarining sintaktik imkoniyati nutq jarayonidagi boshqa birliklar bilan munosabatida namoyon bo‘ladi. Til birliklari jumla tarkibida bevosita ifodalanmaganida ularning o‘rni presuppozitsiya yordamida to‘ldirilib, zaruriy munosabatlar hosil qilinadi. Bu holat teng bog‘lovchili qurilmalarda ham kuzatiladi.

Adabiyotlar:

1. Abdujjabborova F., Mataeva U. Teng bog‘lovchili qo‘rilmalar semantikasi. TVDPI. 2005. 1-4b.
2. Muhtorov J. O’zbek tilida bog‘lovchilar. –Samarqand: 2005.
3. O‘zbek tili grammatikasi (jamoa nashri). I jild. –T.: Fan, 2007. –566 bet.
4. Tursunov O‘. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: O‘qituvchi, 2004. –B. 67.
5. Mahmudov N. Presuppozitsiya va gap // j. O’zbek tili va adabiyoti. – 2006. -№6. –B. 28-31.
6. Nurmonov A. Ko‘makchili konstruktsiyalar presuppozitsiyasi // j. O’zbek tili va adabiyoti. –2006. -№6. –B. 42-45.
7. Rahimov O‘. O’zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi: Fil.fan.nomz..diss. avtoref. –Samarqand: 2014. –22 b.
8. Nurmonov A. Gapning presuppozitsiya aspekti.
9. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixo‘jaeva S. O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi. –T.: Fan, 1992. –B. 115, 126.

ARAB MAMLAKATLARI ORASIDA “TUYA” TERMININING QO‘LLANILISHI VA UNING MAZMUN MOHIYATI

Islomov Muhiddin Numonxonovich

Samarqand Davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola arab dunyosida tuyaning o‘rni va ahamiyati haqida bo‘lib, unda tuya haqida umumiy ma’lumotlar, shu jumladan, arab terminologiyasida tuya so‘zining ifodasi, ma’nosi va go‘zalligi to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud.

Kalit so‘zlar: tuya, sahro kemasi, klassik va zamonaviy arab tili, transport, BBA, Baqtriya va Dometriya tuyalari, tuya poygasi, j-m-l tushunchasi, tuya go‘zallik, festival, ummon.

Tuya - katta va kuchli chol hayvonidir. “Sahro kemasi” nomi bilan mashhur bo‘lgan tuyalar issiq va quruq qumli hududlarda deyarli kunlar davomida oziq -ovqat va suvsiz katta masofani bosib o‘tishlari mumkin,

Tuya - noyob hayvon. Tuyalar insonlarga turlicha xizmat qiladi. Ular odamlarni va og‘ir yuklarni tashiydilar, chunki cho‘llarda boshqa transport vositalari mavjud emas tuyalarni sog‘ib, sutlaridan odatda qatiq yoki pishloq ishlab chiqarishda uchun foydalaniladi. Bundan tashqari, tuya junidan gilam va kiyim tikiladi. Tuyalar bir necha kun va hatto oylar davomida suvsiz yashay oladi.Tuya bir kunda taxminan 200 litr suv ichishi mumkin. Tuyaning tana harorati kunduzi ko'tariladi va kechasi soviydi. Tuya burun teshigini yopishi yoki ichkariga qum kirmasligi uchun mayda teshik qoldirishi mumkin. “Sahro kemasi” yorlig‘i tuyaning yurishidan kelib chiqadi. Tuya bir vaqtning o‘zida ikkala oyog’ini ham tananing bir tomonida harakatlantiradi, bu esa dengizdagi kemaning aylanma harakatiga o‘xshaydi. Tuyaning quloqlari juda mayda va tukli, lekin eshitish qobiliyati juda kuchli.

“Tuya” so‘zi arabcha “go‘zallik” so‘zidan kelib chiqqan.

Odatda Birlashgan Arab Amirliklarida ikkita turdagi tuya bor: Baqtriya tuyasi va Dromedari tuyasi. San -Diyego hayvonot bog‘idagi ma’lumotlarga ko‘ra, baqtriya tuyasining vazni 600 dan 1000 kg gacha. To‘liq o‘sgan tuyaning yelkasigacha balandligi olti fut atrofida. Uzunligi o‘n futga yaqin o‘sadi.

Dromedari tuyasi to'liq o‘sganda 400 dan 600 kg gacha vaznga ega bo'lishi mumkin. To'liq o'sganida uning elkasi balandligi 6,5 fut atrofida.

Tuya poygasi - Birlashgan Arab Amirliklarida mashhur tadbir bo‘lib, Birlashgan Arab Amirliklarining sobiq hukmdori Shayx Zayd bu o'yinni doimo targ‘ib qilardi. Hukmdorlar bu o‘yindan zavqlanishadi. Poyganing shartlari quyidagicha: Tuyaga irqchilik asoslarini o‘rgatish va jokey nima deyayotganini tushunish uchun ikki yil kerak bo‘ldi. Shundan so‘ng, tuya ikki kilometrlik birinchi yugurishga tayyor bo‘lib, u tuyaning poygada yugurishga qodir yoki yo‘qligini hal qiladi.

Tuya arab madaniyatida shunday go‘zal hayvon hisoblanadiki, uning nomi ham j-m-l ildizidan iborat. Ushbu jadvalda J-M-L ildizi ingliz tilida izohlangan:

jameel (m)	جميل	beautiful (masc.)
jameela (w)	جميلة	beautiful (fem.)
Jameela	جميلة	first name for female Jameela / Dschamila
Jamaal	جمال	Beauty
Jamaal	جمال	first name for male Jamal
Ajmal	أجمل	more beautiful
Tajmeel	تجميل	beautification, decoration,
Saaluun at-tajmeel	صالون التجميل	beauty salon
A`maliyya at-tajmeel	عملية التجميل	beauty operation

Mujaamala	مجاملة	compliment
Jamal	جَمل	camel (singular)
Jimaal	جِمال	camels (plural)

Hatto ko‘plab arab va ko‘rfaz mamlakatlarida tuyalar uchun go‘zallik tanlovlari o‘tkaziladi, unda hakamlar tuyalarning lablari, yonoqlari, boshlari va tizzalari hajmini baholaydilar.

Arablar va ayniqsa, badaviylar uchun asrlar davomida oziq -ovqat va transport uchun ishlatilgan tuyadan muhimroq narsa yo'q.

Saudiya Arabistoni hukumati har yili an’anaviy ravishda tuya poygalari, ko‘rgazma tanlovlari va auktsionlar o‘tkaziladigan tuya festivalini o‘tkazadi. Festivalga oziq-ovqat do‘konlari va hayvonot bog'i, tuyalarning qum haykallari qo‘yilgan muzey va tuya suti va tuya junidan to‘qimachilik qo‘yilgan do‘konlar kiradi. Hatto arablar qanday qilib sahroda tuyalar bilan yurganini, boshqarganini ko‘rsatuvchi planetalar ham mavjud.

Ummonda ham har yili o‘tkaziladigan tuya go‘zalligi tanlovi bo‘lib o‘tdi, u yerda sultonlikning turli hududlaridan kelgan tuya egalari yig‘ilishadi. Biroq, dunyoning boshqa joylarida tuya go‘zalligi musobaqalaridan farqli o‘laroq, bu nafaqat go‘zallik, balki sof zot haqida ham. Ishtirok etayotgan tuyalar sof Ummon zotidan va hech qanday naslsiz bo‘lishi kerak. Aqlli zotli tuyani tuyalarni baholaydigan mutaxassislar osongina payqashlari mumkin.

Adabiyotlar:

1. Альберт Гор. Земля в балансе: Экология ичеловеческий дух (перевод с англ. АватыфАбд аль-Джалиль) / А. Гор Каир: «Марказ аль-Ахрам Литтарджамава ан-Нашр», 1994. - 404 с.
2. Аль-Амам Абу аль-Касим Махмуд Ибн Умар Аз-Замахшари. Горы, места и воды / Аз-Замахшари А. - Багдад: Изд-во «Ас-Садун», 1967. - 256 с.
3. Гринев С.В. Введение в терминоведение / С.В. Гринев М.: Московский лицей, 1993 - 309 с.
4. Даниленко В.П. Терминология современного языка науки // Терминоведение и терминография в индоевропейских языках. Владивосток, 1987. - с. 61 -66.
5. Интернациональные элементы в лексике и терминологии / Под общ.ред. Акуленко В.В. Харьков: Вища школа. Изд-во при Харьковском университете, 1980. - 208 с.
6. Использование старых карт в географических и исторических исследованиях / Отв. ред. Гольденберг Л.А. М.: Московский филиал Географического общества СССР, 1980 - 175 с.

7. Канделаки Т.Л. Семантика и мотивированность терминов / Т.Л. Канделаки -
8. Комиссаров В.Н. Современноепереводоведение. Учебное пособие / В.Н. Комиссаров М.: Изд-во «ЭТС», 2002 - 424М.: Наука, 1977-168 с.
9. Капанадзе Л.А. О понятиях "термин" и "терминология" // Развитие лексики современного русского языка-М., 1965, с. 77.
10. https://www.vjcyber.com/blog/desert-blog/item/13-camel-the-ship-of-arabian-desert
11. https://arabiconline.eu/camels-and-beauty/
12. https://lifestyle.iloveindia.com

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ КАК НАУЧНАЯ ОБЛАСТЬ

Маматкулова К.А.- ст. преподаватель СамИСИ
Садыков О.Б. - преподаватель СамИСИ

Аннотация: В данной статье рассматриваетсяметодика обучения иностранным языкам как самостоятельная наука, так как обладает характеристиками, присущими любой науке: предметом, объектом, научными теоретическими основами, экспериментальными данными и собственным категориальным аппаратом.

Ключевые слова: методика обучения иностранным языкам, предмет, объект, научная основа, базисные науки, смежные науки, экспериментальные данные, методы научно-эмпирического уровня, теоретические и научно-экспериментальные методы.

Процесс обучения иностранным языкам можно охарактеризовать как комплексный и многоаспектный, поэтому представляется невозможным сформировать представление об особенностях его функционирования на базе однойнауки. Теоретическую основу обучения иностранным языкам составляют данные таких наук, как методика обучения иностранным языкам, лингвистика, педагогика, дидактика, психология и психолингвистика. Прежде всего определим термин «методика обучения» и рассмотрим его значения.

Термин «методика обучения иностранным языкам» используется для обозначения содержательно различных понятий:

- приемов и форм работы отдельных преподавателей представленных в материалах различных научно-практических конференций; в данном

случае методика приравнивается к технологии профессиональной деятельности;

- учебной дисциплины, теоретического курса в педагогических высших учебных заведениях, освоение которой должно обеспечить формирование профессиональной методической компетентности студентов, их теоретическую и практическую подготовку;
- самостоятельной научной дисциплины.

Остановимся подробнее на трактовке методики как самостоятельной науки.Методика обучения иностранным языкам — это наука, исследующая цель и содержание, методы и средства обучения, способы учения и воспитания на материале иностранного языка.

Отметим, что методика обучения иностранным языкам рассматривается как самостоятельная наука, так как обладает характеристиками, присущими любой науке: предметом, объектом, научными теоретическими основами, экспериментальными данными и собственным категориальным аппаратом. Как и любую науку, ее отличает целостность накопления знаний и формирование связей между ними. В основе методики как науки лежит учебный процесс, компонентами которого являются:

- обучающая деятельность учителя;
- организация обучения (цели, содержание, методы, приемы и средства);
- учебная деятельность учащихся.

Предметом методики обучения иностранным языкам является иностранный язык и процесс его усвоения как средства коммуникации, совокупность знаний о процессе обучения в виде теорий и методических рекомендаций, научное обоснование целей, содержания обучения, организации материала, последовательности его изучения, его воспитательной ценности, характера требований к уровню владения им, а также научная разработка наиболее эффективных методов, приемов и форм обучения с учетом поставленных целей, содержания и конкретных условий обучения. По сути, в предмет методики входит вся проблематика, связанная с обучением иностранным языкам.

Методику и дидактику как раздел педагогики роднит наличие общего объекта исследования — процесса обучения. Уточним, что объектом исследования методики обучения иностранным языкам является процесс обучения учащихся коммуникативной деятельности на иностранных языках и закономерности их усвоения как средства коммуникации, а также особенности образования и воспитания всесторонне развитой личности, способной к саморазвитию и личностному самоопределению, средствами иностранного языка в различных условиях.

Научную основу методики обучения иностранным языкам, помимо ее собственных теоретических положений и экспериментальных данных методических исследований, составляют закономерности базисных и смежных с методикой наук.

К базисным для методики обучения иностранным языкам наукам относятся: лингвистика, педагогика, дидактика, психология и психолингвистика.

Методика обучения иностранным языкам опирается на *лингвистику* как одну из базисных наук и использует такие ее данные, как характеристика лингвистических закономерностей изучаемого языка, разграничение понятий «язык» и «речь», особенности фонетической, лексической систем и грамматического строя иностранного языка, стилистические особенности контекстов и употребительность различных языковых явлений в них, функциональные особенности видов речевой деятельности и т.д.

Базисной для методики обучения иностранным языкам наукой является и *педагогика.* Методические исследования опираются на общие положения педагогической теории и теорию воспитания, описывающую процесс целенаправленного формирования личности учащихся. В процессе обучения иностранному языку должны быть сформированы, например, такие качества личности учащихся, как гражданская идентичность, сознательность, активность, осознание своего места в поликультурном мире, способность к саморазвитию и самовоспитанию в соответствии с общечеловеческими нравственными ценностями, готовность к самостоятельной, творческой и ответственной деятельности и т.д.

Обучение иностранному языку строится на единой *дидактической* основе, которая реализуется в системе общепринятых дидактических принципов: принцип научности, доступности в обучении иностранным языкам; принцип воспитания и всестороннего развития личности учащихся в процессе обучения (воспитывающего обучения); принцип сознательности и активности учащихся; принцип связи теории с практикой; принцип наглядности; принцип учета индивидуальных особенностей учащихся и пр. Дидактика и методика, как уже отмечалось, имеют общий объект исследования — учебно-воспитательный процесс, но дидактика изучает этот процесс в целом, а методика обучения иностранным языкам — применительно к определенному учебному предмету — иностранному языку.

К базисным для методики наукам без сомнения можно отнести и *психологию.* Связь психологии с методикой обучения иностранным языкам прослеживается по двум направлениям — психологии речи и педагогической психологии. Из различных разделов психологии методика черпает такие

данные, как соотношение устной и письменной, внутренней и внешней речи, психологические особенности овладения и владения различными видами речевой деятельности, психологические особенности учащихся различных возрастных групп, осуществление учащимися высших психологических функций (восприятие, память, мышление, речь) в процессе обучения иностранным языкам.

В основе методики обучения иностранным языкам лежат и положения *психолингвистики*, которые позволили определить такие важные для методики категории, как: речевая деятельность, ее виды, структура, процесс порождения и восприятия речи, развитие речи ребенка и т.д. Важно отметить, что опора на базисные науки — важнейшее условие повышения научного уровня методики, а одной из ее задач является синтез данных базисных наук, на основе которых формулируются собственно методические законы.

Необходимо отметить, что свое влияние на методику оказывают и другие науки, однако происходит это опосредованно.Наряду с базисными науками, методика опирается на данные смежных с ней паук, к которым относятся: информатика, теория информации, культурология, кибернетика, математика, дефектология, статистика (статистический анализ данных) и др.

Методика обучения иностранным языкам обоснованно привлекает данные базисных и смежных с ней наук при решении теоретических и практических вопросов обучения, избегая односторонней ориентации на какую-либо одну науку.

Методика обучения иностранным языкам может считаться самостоятельной наукой, так как она доказывает эффективность своих теоретических положений на практике и обладает необходимыми экспериментальными данными, полученными путем анализа методической, педагогической, лингистической литературы, ретроспективного изучения опыта отечественной и зарубежной школы, обобщения опыта преподавания, наблюдения и самонаблюдения, беседы, анкетирования, тестирования, эксперимента, массового экспериментально-опытного обучения.

Ко второй группе методов исследования относятся теоретические и научно-экспериментальные методы:

- *анализ научной литературы в области методики, лингвистики, психолингвистики, педагогики,* нормативных документов, позволяющий выявить различные точки зрения на анализируемую методическую проблему, изученные стороны проблемы, дискуссионные вопросы, устаревшие аспекты, малоисследованную проблематику и предложить собственную методическую концепцию;

- *тестирование,* которое приобрело особую актуальность в настоящее время из-за своей объективности, краткости, однородности, стандартизированное, возможности количественно выразить результат и осуществить его обработку. Педагогическая практика показывает, что различные по направленности тесты, такие как тесты достижений, способностей, личности, критериально-ориентированные тесты и др., являются прогрессивным методическим инструментарием, позволяют объективно выявить типичные ошибки обучаемых и трудности, с которыми они сталкиваются, определить уровень владения иностранным языком, а также на основе анализа полученных данных выстроить обоснованную систему обучения иностранному языку;
- *эксперимент,* который занимает в методике обучения иностранным языкам очень важное место. Фактически эксперимент — это научно поставленный опыт, целенаправленное изучение явления в определенных условиях, когда имеется возможность следить за ходом изменений, воздействовать на него, воссоздавать ситуацию в аналогичных условиях. В методической литературе по цели различают разведывательный/поисковый, констатирующий, обучающий, повторный эксперимент; по условиям — естественный и лабораторный эксперимент; по методике проведения — традиционный или перекрестный эксперимент, по срокам — длительный или кратковременный эксперимент;
- *массовое экспериментально-опытное обучение* завершает методическое исследование и позволяет апробировать новые учебные материалы, распространить положительный педагогический опыт, получить сведения, имеющие особую значимость для процесса обучения, в непосредственном взаимодействии с реальностью, т.е. в ходе обучения иностранным языкам в различных учебных условиях.

Подводя итоги, необходимо отметить, что все вышеперечисленные методы получения научного знания (теоретические и эмпирические) должны использоваться в методических исследованиях не изолированно, а в сочетании друг с другом, благодаря чему увеличится степень надежности и научной объективности результатов исследований, а их выбор зависит в значительной степени от типа и характера исследования.

Методика обучения иностранным языкам обладает и собственным категориальным аппаратом, т.е. понятийным аппаратом в виде системы терминов, отражающих ее содержание и предмет обучения.

Методика обучения иностранным языкам оперирует следующими терминами: подход, метод, прием, способ, цели, принципы, средства, упражнения, технология и др.

Понятие «метод» — одно из самых употребительных в методической литературе. Оно многозначно и может быть определено как система целенаправленных действий учителя, с одной стороны, и учебныхдействий и деятельности учащихся — с другой, обеспечивающих достижение целей обучения иностранному языку.

Термин «метод» зачастую употребляется для обозначения методического направления в истории методики (например, грамматико-переводной метод).

Под методом обучения также понимают систему обучения внутри какого-то направления, т.е. фактически авторский метод (например, метод Пальмера).

В связи с понятием «метод обучения» целесообразно рассмотреть и понятие «прием», которое трактуется в методической литературе как элементарный методический поступок, направленный на решение определенной задачи обучения на конкретном этапе.

Определим также термин «технология обучения», под которым будем понимать модель (описание) процесса обучения, которая разрабатывается в соответствии с той или иной идеей и может быть воспроизведена в реальных условиях обучения.

Некоторые ученые описывают это понятие как средство достижения цели, другие — как способ освоения программного содержания обучения, третьи — как систему приемов, форм и средств обучения, оптимально используемую для достижения цели. В лингводидактике примерами технологий обучения могут быть: проектные технологии, интерактивные технологии, компьютерные технологии, игровые технологии и др.

Общая методика предполагает изучение закономерностей и особенностей процесса обучения иностранному языку независимо от того, о каком языке идет речь.

Частная методика, в свою очередь, исследует языковые и речевые явления, специфичные для конкретного иностранного языка. Наряду с частными методиками отдельных языков существуют и частные методики для различных этапов обучения (например, основной школы или высшей школы).

Таким образом, в частных методиках наиболее полно учитываются не только особенности иностранного языка, но и специфика условий обучения.

Подводя итог вышесказанному, отметим, что методика обучения иностранным языкам является самостоятельной наукой, основу которой составляют данные лингвистики, педагогики, дидактики, психологии и психолингвистики, демонстрирующие ее комплексный и интегративный характер.

Литература:

1. Барышников, Н. В. Обучение иностранным языкам и культурам: методология, цель, метод / Н. В. Барышников // Иностранные языки в школе. — 2014. — № 9.
2. Гальскова, Н. Д. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика / Н. Д. Гальскова, Н. И. Гез. — М.: Академия, 2013.
3. Копылова, В. В. Федеральный государственный образовательный стандарт начального общего образования: назначение, структура, требования / В. В. Копылова // Иностранные языки в школе. 2010. № 5.
4. Крупченко, А. К. Интегративность и междисциплинарность как основа преподавания иностранного языка в профессиональных целях / А. К. Крупченко, // Иностранные языки в школе. — 2013. — № 5.
5. Трубицина О.И. Методика обучени иностранному языку 201

ЎЗБЕКИСТОНДА КИТОБ САВДОСИ ТАРИХИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ

Усманова Нигина Маъруповна
СамИСИ ўқитувчиси

Аннотация: Жаҳон миқёсида китоб савдосини ривожлантириш ва уни самарали ташкил этиш борасида илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда. Буларга китоб савдосида инновацион усуллардан фойдаланган ҳолда медиа-технологияларни қўллаш, интернет ва электрон савдони йўлга қўйиш, почта орқали китоб савдосини ташкил этиш, аҳолида китоб ўқиш маданиятини ошириш, китобларни сотиш ва тарқатишда илғор коммуникация технологиялардан самарали фойдаланиш.

Калит сўзлар: Китоб савдоси, китоб бозори, субъект, маҳсулот.

Мамлакатимизда ёшлар маънавиятини юксалтириш ва уларнинг бўш вақтини мазмунли ташкил этиш бўйича бешта муҳим ташаббуслардан бири бўлган, ёшларимизнинг маънавиятини юксалтириш, улар ўртасида китобхонликни кенг тарғиб қилиш бўйича тизимли ишларни ташкил этишга йўналтирилган тўртинчи ташаббус бўлиб, унга асосан китоб савдосини ривожлантириш муҳим аҳамият касб этади.

Китоб савдоси билим иқтисодининг муҳим таркибий қисмидир. Жаҳон аҳолиси интеллектуал салоҳиятининг ошиб бориши китобларни нашр этиш ва сотиш хизматларининг ташкил этилганлигига бевосита боғлиқдир. Шунинг учун бугунги кунда қатор ривожланган мамлакатлар китоблар нашри ва савдоси бўйича етакчи ўринларни эгаллаб келмоқда. Фақат АҚШ, Германия, Франция, Англия каби мамлакатлар китоблар савдосининг умумий ҳажми 100 млрд. АҚШ долларини ташкил этиб, жаҳонда етакчилик қилмоқда. Манбаларда таъкидланишича, Россия аҳолиси бир ҳафтада ўртача 7,5 соат китоб ўқийди ва

Ҳиндистон, Тайланд, Хитой, Филиппин, Миср ва Чехиядан кейин 7 ўринда туради[14]. Ушбу кўрсаткичлар даражаси мамлакатимизда анча пастлигича сақланиб қолаётганлиги мазкур соҳани тадқиқ қилиш ва такомиллаштириш заруратини кўрсатади.

Халқаро статистикада ЮНЕСКО тавсиясига кўра, ҳажми 48 саҳифадан кам бўлмаган, табоқлаб тикилган нодаврий нашрни, шартли равишда, Китоб дейиш қабул қилинган.

Китоб иши, уни яратиш, тайёрлаш, уни тарқатиш, сақлаш, тавсифлаш ва ўрганиш билан боғлиқ катта жараённи ўз ичига олади. Фан, адабиёт, санъат асарларидан матбаада кўпайтириш ва tarsatиш учун танлаш, уларга илмий ва бадиий нуқтаи назардан ёндашиш, таҳрир қилиш, бадиий безаш, матбаа ижросини белгилаш ва нашрга тайёрлаш ноширликнинг вазифаси ҳисобланади.

Китобнинг пайдо бўлиш тарихи ёзувнинг яратилиши ва шаклланиши жараёни билан ўзвий боғлиқ. Ёзувнинг тузилиш хусусиятлари (белгилар тизими, уларнинг жойлашиш тартиби), ёзув материали ва қуролининг ўзига хос томони ва бошқа маълум даражада китобнинг тузилишини белгилаб беради. Қад. Миср, Рим, Юнонистон ва Ўрта Осиёда кишилар тош, палма дарахти барглари, сопол ва бошқа материалларга ёзиб фикрларини билдирганлар. Ҳар бир китоб ўнлаб шундай материаллардан тайёрланган плиталардан иборат бўлиб, оғирлиги бир неча кг бўлган. Ёзув материали сифатида папирус ўсимлиги ишлатилиши (милоддан аввалги 4-3 минг йилликларда) билан ўрама китоблар пайдо бўлган. Бундай китобларнинг узунлиги ўртача 10 м атрофида бўлиб, ингичка, юмалоқ таёқларга ўралган ва махсус чарм ёки ёғоч ғилофларда сақланган.

Ўрта Осиёда, Хоразмда милоддан аввалги 1-минг йилликнинг 1-ярмида вужудга келган зардўштийлик динининг муқаддас китобларидан Авестонинг қадимий нусхаси ҳам 12 минг мол терисига битилган. Арабларнинг Ўрта Осиёдаги истилосига қадар (VIII-X асрлар) у ерда кўп нодир китоблар сақланган кутубхоналар бўлган. Лекин уларнинг кўпи босқинчилик урушлари натижасида йўқотиб юборилган. II-IV асрлардан бошлаб Қад. Римда худди ҳозирги китобларнинг варақалари сингари буклаб, тикиб тайёрланган ва бир-бирига бириктирилган, муқовали китоблар — кодекс пайдо бўлди. Улар дастлаб папирус, сўнг пергаментга ёзилган. Бундай китоблар оғир ва ноқулай эди.

VI асрдан бошлаб кодекс шакли асосида ҳозирги кўринишдаги китоблар пайдо бўлди. Терига ишланган ноёб китоблардан бири — Мус-ҳафи Усмон Куръонидир. Қуръони каримнинг бу нусхаси 644-656 йилларда халифа Усмон кўрсатмаси билан Муҳаммад(с.а.в)нинг котиблари Зайд ибн Собит, Амир ибн

[14]Дайжест исследования. “Книжный рынок России”. www.Bookmix.ru.

алўс ва Ҳишом ибн Ҳакимлар томонидан куфий хатида ёзилган. Мазкур қўлёзма Амир Темур томонидан Самарқандга олиб келинган. Жами 353 варақ, ҳажми 68х53х22 см. Ҳозирда Ўзбекистон мусулмонлари идораси кутубхонасида сақланиб келмоқда.

Туркистонда босма усули билан китоб ишлаб чиқариш Ўрта Осиё Россияга қўшиб олингандан кейин тарқалди. 1868-йил Тошкентда Туркистон ҳарбий округи штабининг босмахонаси ташкил этилди. Шу босмахонада нашр этилган рус олими ва сайёҳи Н.А.Северсовнинг "Чу ва Норин тизмалари этагидаги тоғли ўлка тўғрисида лавҳалар" (рус тилида) китоби Туркистондаги илк босма китобдир. Ўзбек тилидаги биринчи босма китоб Шоҳимардон Иброҳимовнинг 1871-йил Хивада босилган “Календар”идир. Бирин-кетин Туркистоннинг бошқа шаҳарларида ҳам хусусий литографиялар ташкил этилган. Булардан Отажон Абдалов (Хивада), Семён Лахтин (Тошкентда), Ғулом Ҳасан Орифжонов (Тошкентда) литографиялари машҳур. Бу босмахоналарда адабий, фалсафий, диний, тарихий асарлар ва дарсликлар чиқарилган.

Мустақилликдан кейинги йилларда китоб маҳсулотлари мавзу-мундарижасида кескин ўзгариш бўлди. Тарихий, диний, миллий қадриятларга тааллуқли китоблар нашрига алоҳида аҳамият берилди. Қуръони каримнинг ўзбек тилидаги таржимаси икки бор нашр этилди (1991-йил, “Чўлпон” нашриётида; 2001-йил, Тошкент Ислом ун-ти нашриётида). Имом Бухорийнинг 4 жилдли "Ҳадис"лари (1991-96 йиллар, Комуслар Бош таҳририяти), Амир Темур мавзуи билан боғлиқ ўнлаб китоблар чиқарилди. Алишер Навоийнинг 20 жилдли тўла асарлари (1998 — 2002, Ўзбекистон ФА “Фан” нашриёти) чоп этилди. Турли нашриётларда Форобий, Беруний, Ибн Сино, Нажмиддин Кубро, Маҳмудаз-Замахшарий, Улуғбек, Яссавий, Абдулла Қодирий, Чўлпон, Мунавварқори, Фитрат, Усмон Носир ва бошқаларнинг асарлари, 33 жилдли “Хотира” К.и чиқарилди. “Ўзбекистон” нашриётида Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 10 жилдли асарлари нашр қилинди (1997-2002). Мавжуд нашриётлар омманинг талабэҳтиёжларидан келиб чиқиб бадиий, илмий, оммабоп, дарслик ва бошқа китоб маҳсулотлари нашр этмоқдалар.

Жаҳон миқёсида китоб савдосини ривожлантириш ва уни самарали ташкил этиш борасида илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда. Буларга китоб савдосида инновацион усуллардан фойдаланган ҳолда медиа-технологияларни қўллаш, интернет ва электрон савдони йўлга қўйиш, почтаорқали китоб савдосини ташкил этиш, аҳолида китоб ўқиш маданиятини ошириш, китобларни сотиш ва тарқатишда илғор коммуникация технологиялардан самарали фойдаланиш асосида соҳанинг ижтимоий-иқтисодий самарадорлигини оширишга қаратилган илмий тадқиқотларни киритиш мумкин.

Ўзбекистон миллий энциклопедиясида “Савдо” тушунчасига:

1) товар муомаласининг бир тури, меҳнат маҳсулотлари ва хизматларни олди-сотди йўли билан айирбошлаш шакли. Бунда товар хариди миқдори, товар сифати, сотишдан олдин ёки кейин хизмат ҳақини ҳисоб-китоб қилиш тартиби ва бошқалар шартлашилади;

2) сотувчилар ва харидорлар ўртасидаги қиймат алмашинувига доир муносабатлар»[15].

Китоб бозори - бу китоб маҳсулотларини ишлаб чиқарувчилар ва истеъмолчилар, шунингдек, китоб сотувчилар ўртасидаги пулни китобга ва китобни пулга алмаштиришни таъминлайдиган объектив зарурий алоқа шакли. Бу боғлиқлик натижасида, бир томондан, китоблар айирбошлаш учун мўлжалланган меҳнат маҳсулотлари сифатида амалга оширилади, бошқа томондан, жамият аъзоларининг маҳсулотларни нашр этишга бўлган эҳтиёжлари қондирилади.

Таркибига кўра, китоб маҳсулотлари бозори тоифаси иқтисодий муносабатларнинг маълум бир соҳасини ифодалайди, бу фойдаланиш қийматлари сифатида табиий-моддий шаклга эга бўлган ва маълум пул қийматига эга бўлган китоб товарлари ҳаракати билан боғлиқ. Китоб бозори миллий иқтисодиётнинг бир тармоғи (кичик тармоғи) эмас, балки ижтимоий-иқтисодий муносабатларнинг ажралмас қисми ҳисобланади.

Китоб бозорида кўплаб жисмоний ва юридик шахслар қатнашади, улар **бозор субъектлари** деб аталади. Шу билан бирга, улар айирбошлаш субъекти сифатида ҳаракат қилишади. Китоб бозорининг субъектлари китоб ишлаб чиқарувчилар (нашриётлар), воситачилар - китоб сотиш корхоналари, улгуржи ва чакана савдо, истеъмолчилар - жисмоний шахслар, кутубхоналар, корхоналар, ташкилотлар, хизматлар кутубхоналарини яратиш учун китоб сотиб оладиган муассасалар.

Китоб сотувчи корхоналар китоб бозорининг барча номланган субъектлари билан муайян муносабатларга киришади ва бу муносабатлар барча иқтисодий муносабатлар тизимида асосий, бирламчи (бозор) ҳисобланади.

Нашриёт маҳсулотлари ва бошқа товарларни сотиб олиш ва сотиш бўйича операцияларни амалга ошириш учун китоб савдоси корхоналари зарур хизматларни кўрсатадиган хўжалик юритувчи субъектлар билан иқтисодий муносабатларга киришади: транспорт, алоқа, коммунал хизматлар, банклар, суғурта компаниялари, молиявий институтлар, реклама агентликлари, маркетинг ташкилотлари ва бошқалар. Шунинг учун, китоб савдоси корхоналарининг барча иқтисодий муносабатлар тизими унинг бозор

[15]Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 7 т. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. Тошкент. 2004. 410-б.

муносабатлари тизимидан кенгроқ бўлиб, нашриёт маҳсулотларининг ҳаракати билан шартланади.

Бу мақсадларга эришиш учун китоб сотувчи компания доимий равишда шериклар ва пудратчилар билан ўзаро алоқада бўлиши, харидорларнинг эҳтиёжларини қондириш вазифасини ҳисобга олган ҳолда иқтисодий алоқаларни ўрнатиши ва сақлаб туриши керак.

Адабиётлар:

1. Катспржак И., “История книги”, М., 1964
2. Сидиров А.А., “Книга и жизнь” М., 1972
3. Дайжест исследования. “Книжный рынок России”. www. Bookmix.ru.
4. Рустамов М., “Ўрта Осиё хаттотлик Санъати тарихидан”, Т., 1971
5. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 7 т. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. Тошкент. 2004. 410-б.
6. “Ўзбекистонда китоб савдосининг ривожланиши ва унинг ижтимоий-иқтисодий самарадорлигини ошириш омиллари”. Г.А. Солиева. Самарқанд. 2018. 165-б.
7. Уз.м.википидия.орг

ЎЗБЕК ТИЛИ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА АДАБИЙ МАТНЛАРНИ ЎРГАНИШ МУАММОЛАРИ

Норбоева Д.Ж. - СамИСИ катта ўқитувчиси

Чернова Т.А. - СамИСИ ўқитувчиси

Аннотация: Мақолада русийзабон ўқувчи(талаба)ларга ўзбек тили машғулотларида ўрганиладиган насрий асар юзасидан, берилиши лозим бўлган савол ва топшириқлар тизими ишлаб чиқилган ҳамда талабаларнинг адабий тайёргарлигини ошириш, ривожлантириш, нутқини ўстириш, ўзбек тилидаги матнларни ўқиб тушуниш кўникмаси таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: Насрий, асар, бадиий матн, рус гуруҳ, савол ва топшириқ,нутқини ўстириш, ўрганиш, муаммо, машғулот

Таълими рус тилида олиб бориладиган синф(гурух)ларнинг ўзбек тили дарс(машғулот)ларида насрий асарлар юзасидан бериладиган савол ва топшириқларнинг вазифалари ва ахамияти ўзига ҳосдир. Ушбу савол ва топшириқлар бадиий матн юзасидан ташкил этиладиган ишлар мундарижасини ифода этади: матнни адабий-тасвирий воситалари жиҳатидан таҳлил қилиш тартиби ва изчиллигини кўрсатади; талабаларнинг ўзбекча нутқини ўстириш мазмунига ишора қилади; насрий асар таҳлилини нутқ ўстириш ишлари билан

органик қўшиб олиб бориш ишини уюштиради; талабларнинг матнни ўқиб-ўрганишларидаги мустақиллик ва фаоллик даражасини тайин этади.

Насрий асарни ўқиш жараёнида таълим олдига қўйилган юқоридаги икки мақсадни қўлга киритаборишда ҳар бир матн юзасидан бериладиган савол ва топшириқларнинг бир тизимга бирлашган тавсифда бўлиши муҳим аҳамият касб этади. М.Б.Ганженко мактаб адабиёт дарсликларида келтириладиган савол ва топшириқлар ҳақида гапириб, улар ўқув материалини ўзлаштиришни ташкил этувчи асосий методик омил эканлигини алоҳида таъкидлайди.

Дарҳақиқат, "...савол ва топшириқлар адабий асарни ўрганишга доир барча ишларнинг йўналишини белгилаб беради, бадиий матнни ўрганишнинг энг тўғри ва рационал йўлини танлаш учун имконият яратади, таълим олдида турган вазифаларни мажмуавий ҳал этишга кўмаклашади"[1].

Русийзабон ўқувчи(талаба)ларга ўзбек тили машғулотларида ўрганиладиган насрий асар юзасидан берилиши лозим бўлган савол ва топшириқлар тизими қандай бўлиши кераклиги масаласи методик жиҳатдан етарлича ўрганилмаганлиги бугунги кунда ўқитувчиларнинг иш тажрибасида муайян қийинчиликларни келтириб чиқармоқда. Тизимга қўйиладиган асосий талабларга амал қилинмаган ўринларда асосан нутқ устиришга устувор аҳамият берилмоқда. Аксинча, насрий асардан олинган парчанинг ғоявий-бадиий мазмунини англаш, матн таҳлили кўникмаларини шакллантириш сари йўналтирилган савол ва топшириқлар эътибордан четда қолиб кетмоқда.

Дидактикада савол ва топшириқлар таснифи муаммолари атрофлича ёритилган (Д.Д.Зуев, В.Ф.Паламарчук, Т.С.Голубева ва б.). Бунда асосий принцип сифатида бадиий матнни ўрганиш жараёнида ўқувчилар ўқув фаолиятининг мустақиллик даражасини ошириш мулжал қилиб олинган. Шу принципга мувофиқ савол ва топшириқларнинг қўйидаги уч асосий гуруҳи ажратилган: 1) репродуктив тавсифдаги савол ва топшириқлар; 2) репродуктив-ижодий тавсифдаги савол ва топшириқлар; 3) ижодий тавсифдаги савол ва топшириқлар. [2]

М.Б.Ганженко савол ва топшириқларни юқоридаги тасниф асосида жадвалда акс эттиради. Биз улардан фақат насрий асарларни ўрганишга доирларини келтириб ўтишни маъқул топдик.[3]

САВОЛ ВА ТОПШИРИҚЛАРНИНГ ТУРЛАРИ

Ўқувчилар ўқув фаолияти мустақиллиги даражаси	**Савол ва топшириқлар типи**
Ўқувчилар ўқув фаолияти мустақиллиги даражаси	1. Матн мазмунини оғзаки шаклда қайта ифода этиш (қайта ҳикоялаш).

	2. Матн мазмунини ёзма шаклда қайта ифода этиш (баён).
Репродуктив-ижодий	1. Матн мазмунини оғзаки шаклда ижодий ёндашган ҳолда қайта ифода этиш (ижодий қайта ҳикоялаш). 2. Матн мазмунини ёзма шаклда ижодий ёндашган ҳолда қайта ифода этиш (ижодий тавсифдаги баён). 3. Ифодали ўқиш.
Ижодий	1. Ўқилганларни англаб идрок этиш ва нутқда ифодалаш. -ўқилган парча мазмуни асосида расм чизиш; -муқобил, муаммоли саволлар ўз мушоҳадаларини баён этиш. 2. Сўзларнинг луғавий маъносини тушунтириш ва уларни нутқда қўллаш: -нотаниш сўзларни, сўз бирикмаларини ўзбек ва рус тили воситалари ёрдамида тушунтириш; -сўзнинг ўз ва кўчма маъноларини, маъно жилоларини тушунтириш ва ўқувчиларга изоҳлатиш; -янги сўзларни оғзаки ва ёзма нутқда ишлатиш; синоним ва антонимлар танлаш, сўз бирикмалари ва гаплар тузиш. 3. Сўз ёки сўзли образнинг маъносини тушунтириш ва уни асар ғоявий-бадиий мазмунини аниқлаш муносабати билан нутқда қўллаш: -сўзнинг образлилигини тушуниш (сўзни унинг луғавий ва образли маъносида таққослаш). -асардан бадиий-тасвирий воситаларни ажратиш; -бадиий-тасвирий воситаларнинг роли ва аҳамиятини тушунтириш; 4. Асарнинг ғоявий-бадиий мазмунини англаб етиш:

	-матннинг ғоявий мазмунини тушуниш; -муаллифнинг кайфиятини, унинг тасвирланаётганларга муносабатини тушуниш; -адабий қаҳрамонларга тавсиф бериш ва буни асослаш; -бадиий тафсилни, бадиий-тасвирий воситаларнинг (портрет, интерьер, пейзаж, истиоралар) ролини тушуниш; -мотивлаган ҳолдаги баҳо (адабий қаҳрамонга, умуман асарга). 5. Ўзбек ва рус адабиётини: мавзу, ғоявий мазмун, адабий қаҳрамонлар образлари бирлигида таққослаш. 6. Ўрганилган адабий асар билан мавзу жиҳатидан боғлиқ тасвирий санъат асари, шахсий таассуротлар ва кўзатишларни тасвирлаш (якуний ижодий иш): расмга қараб, шахсий кузатишлар бўйича, ҳаётий тажриба асосида иншо ёзиш.

Юқоридаги савол ва топшириқларнинг турлари намуна (модель) сифатида қабул қилиниши мумкин. Лекин фақат репродуктив ёки репродуктив-ижодий, ёхуд ижодий бўлиб қолмаслиги керак. “Ўзбек тили” дарсликларини яратиш амалиётида матнга доир савол ва топшириқлар аксарият ҳолатларда репродуктив даража билан чегараланмоқда. Мисолларга мурожаат этайлик:
“Ўзбек тили ва адабиёти” дарслиги да насрий асар юзасидан келтирилган савол ва топшириқлар орасида репродуктивлари кўп. Масалан, Н.Хайитқуловнинг “Йўллар” асаридан олинган парча юзасидан қуйидаги саволлар тавсия этилган: 1. Жабборовкимдан хат олди? 2. Унда нима дейилган эди? 3. Хатни олиб Жабборов нима қилди? 4. У кимга телефон қилди?

Дарсликда “Тўмарис” афсонаси юзасидан қуйидаги савол ва топшириқлар берилган (19-бет): 1. Нима учун бу жанр тарихий афсона деб аталади? 2. “Тўмарис” афсонасининг асосий ғояси нимадан иборат? 3. Асарнинг бош қаҳрамони ким, у қандай хизматлар кўрсатди? 4. Тўмариснинг қайсим фазилатлари сизга ёқади? 5. Кир ҳақида қандай фикрдасиз? 6. Тўмарис образи тўғрисида гапиринг.

Ушбу савол ва топшириқлар ўқувчиларни асосан репродуктив-ижодий ва қисман ижодий ўқув фаолиятига ундайди. 1-савол ўқувчилар эътиборини

асар жанрига қаратади. 2-савол афсонанинг ғояси ҳақида мушоҳада юритишга даъват этади. 3-6-савол ва топшириқлар асар қаҳрамони га тавсиф беришни кўзда тўтади.

Савол ва топшириқлар орасида бадиий асарни идрок этишнинг тўғрилигини таъминловчи, сўзларнинг луғавий маъноси ва сўз воситасида образ яратилган жиҳатлар, асардан бадиий тафсилни, бадиий-тасвирий воситаларни ажратиш ва изоҳлаш ҳамда бошқа иш турлари учрамайди. Шунга кўра ҳам савол ва топшириқлар тизимини аввало дарсликларда акс эттиришга интилиш мақсадга мувофиқдир.

Хулоса қилиб айтганда, бугунги кунда русийзабон талабалар билан насрий асарлар устида олиб бориладиган ишларни ташкил этишда дарсликда матн юзасидан бериладиган савол ва топшириқлар тизимининг ўрни ва аҳамияти катта бўлиб, улар бадиий асарни ўқиш ва ўрганишда маълум даражада йўл кўрсатувчилик вазифасини бажаради.

TIL RIVOJIDA MUOMALA ODOBINING ORNI

Muhammadov Aminjon IK-721 guruh talabasi
Ilmiy rahbar:Norboyeva.D.J SamISI katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada til haqida fikr yuritilib, uning inson xulq-odobini namoyon etishda beqiyos kuch ekanligi haqida fikr yuritilgan. Maqolada o‘zbek tilining davlat sifatidagi o`rni va nufuzi, til sofligini boyitishda muhim bo‘lgan dolzarb muammolar haqida atroflicha to‘xtab o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: til, millat ma‘naviyati, ijtimoiy soha, ma‘naviy meros.

Til insonlar o‘rtasida muomala vositasi bo‘lishi bilan birgalikda, har bir millatning ma‘naviyati, madaniyati va tarixini ko‘rsatib beruvchi hamda kelajagini ta‘minlab beruvchi mohiyatan ijtimoiy vosita hamdir. Asrlar davomida evalutsiya sababli insonlar yashab tirik qolishi uchun o‘z aql-idroki bilan hayot tarzini osonlashtirib kelgan. Haqiqatdan ham til inson uchun berilgan buyuk ne‘mat, u milliy madaniyatning ham muhim tarkibiy qismidir. U nafaqat aloqa quroli, balki inson shaxsini fazlu kamolga yetkazuvchi, uning xulqi-odobi, insoniy xislat va fazilatlari uyg‘unligini ta’minlovchi ibrat va tarbiya manbai hamdir. Zero, u xalqqa kuch-quvvat, ruhiy barkamollik bag‘ishlaydi.

Bundan tashqari, jamiyat hayoti, inson kechinmalari naqadar rang-barang bo‘lsa, til ham shu qadar serjilodir. Til qanchalik serqirra bo‘lsa, millat ma‘naviyati ham shu qadar yuksaladi. Ona tiliga hurmat, avvalo, uning sofligini ta’minlashga intilish orqali yuzaga chiqadi. Til sofligi dolzarb masala sanaladi. Ayni kunda til

mavzusi barchaning diqqat markazida. Misli tilloga teng ona tilimiz qadrini bilmayapmiz. Ko‘cha-kuyda g‘aliz va o‘rinsiz qo‘llanilayotgan so‘z va iboralar odamning ta’birini xira qiladi. Shuningdek, bir nechta tillarni buzib gapirishni ko‘p tillarni biladigan insonga teng deb hisoblaydigan ma’naviyatsiz insonlar oramizda yo‘q emas. Bir qancha so‘zlar, ayniqsa, rus va ingliz tillaridagi ba’zi-bir so‘zlar hozirgi yoshlarimizni og‘zidan tushmaydi.

1989-yili o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi amalda tilimiz ravnaqi uchun butunlay yangi davrni boshlab berdi. Mana qariyb 30 yildan oshdi. Lekin o‘tmishga nazar soladigan bo‘lsak, ne-ne ulamolar, ilmiy xodimlar, fan arboblari o‘z ona tili bo‘la turib ilmiy ishlarini rus tilida himoya qilganliklari, darsliklarda ham o‘sha vaqtlarda deyarli ko‘pchilik atamalarning boshqa tillarda ifodalanishi juda achinarli holat, albatta. Vaholanki, biz haligacha ona tilimizning ichki imkoniyatlaridan, adabiy tilimizning tuganmas bebaho boyligidan to‘liq foydalanayotganimiz yo‘q. Shu asnoda “Nega ko‘cha qoidalarini buzganlarga xushtak chalinadi-yu, nega o‘z tilimizni buzib gapirayotganlarga xushtak chalinmaydi” degan purma’no gaplar ko‘nglingdan o‘tadi. Demak, biz shunday yoshlarga befarq bo‘lmasdan ularni to‘g‘ri va ravon gapirishga, tilimizga nisbatan beodoblik qilmaslikka undashimiz zarur. Shu bois ona tilimizning sofligini saqlash uchun nimalarga e’tibor berishimiz kerak?

Birinchidan, ijtimoiy sohalardagi ko‘plab atamalarni o‘zbekchalashtirish, yangi atamalarga mos muqobil so‘zlarni topish, sheva so‘zlarini o‘rganishni takomillashtirish, tilimiz sofligini ta’minlash uchun zaruriy choralarni ko‘rishimiz kerak. Shuningdek, dars mobaynida har bir mavzuni o‘rgatish mobaynida oddiygina misollar bilan chegaralanib qolmasdan, balki nasihatomuz gaplardan ham keng foydalanganimiz ma’qul. Chunki til ta’limi orqali nafaqat ta’lim, balki tarbiya ham berishimiz kerak. Qisqacha qilib aytganda, “Ahmad maktabga bordi” yoki “Ahmad maktabdan qaytdi” kabi misollar o`rniga xalq maqollari, ibratli so‘zlaridan ham unumli foydalansak tilimizning rivoji uchun o‘z hissamizni qo‘shgan bo‘lar edik. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, o’tmish tariximizda tilimiz ham bir qancha qiyinchiliklarni o‘tkazdi. Keyinchalik mustaqillikni qo‘lga kiritgach, tilimizga alohida e’tibor qaratila boshlandi. Ayniqsa, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek ailfbosini qabul qilishimiz har qanday rivojlanishga asos bo‘la oladi, chunki bu yozuv ko‘pchilik rivojlangan mamlakatlar uchun ham qulay va bizning ham boshqa tillarni yaxshi ozlashtirib tez va to‘g‘ri o‘qishimiz uchun qulaydir.

“Qobusnoma” asarida ham shunday fikrlar keltirilgan: “Kishi suhandon, suhango‘y (notiq) bo‘lishi kerak. Ammo, ey farzand, sen suhango‘y bo‘lg‘il va lekin durug‘go‘y (yolg‘onchi) bo‘lmag‘il rostgo‘ylikda o‘zing shuhrat qozong‘il, tokim biror vaqt zarurat yuzidan yolg‘on so‘z desang qabul qilg‘aylar. Har so‘z desang ham rost deg`il va lekin yolg‘onga o`xshag`on rostni demag`ilkim, rostga o‘xshagan

durug‘ durug‘ga o‘xshag‘on rostdin yaxshidur, nedinkim ul durug‘ maqbul bo‘lar, ammo ul rost maqbul bo`lmas. Demak, nomaqbul rostni aytishdin parhez qil, toki mening bila Abu Suvor Shopur bilan Abu al-Fazlning orasindag‘ voqea sening boshingda sodir bo‘lmasin.”

Qolaversa, bu ma’naviy meroslarimizni o‘z ona tilimizning qanchalik teran boy tarixga ega ekanligini namoyon qilish uchun ularni boshqa tillarga tarjima qilib o‘zligimizni namoyon qilmoqdamiz. Bu bilan biz jahonda faqatgina tabiiy yoki qazilma boyliklarimiz bilangina emas, balki ma’naviy jihatdan ham boy ekanligimizni dunyoga tanitmoqdamiz. Bittagina “Assalomu alaykum” so‘zining o‘zi bizning O‘zbekistonlik ekanligimizdan darak bermayaptimi? Bu borada qaysidir chet elik madaniyatshunos olimning bitta fikrlari esimga tushib ketdi, ya‘ni: “Shu o‘zbek xalqining boshiga do‘ppisi yarashib, bir qo‘li ko‘ksida, bir qo‘lida choy uzatib tabassum bilan “Assalomu alaykum” degan so‘zlarini umrim bo‘yi yiqqan madaniyatlarimga almashishga roziman” degan ekanlar. Ona tilimizning shirinligi, xushmuomalaligi, ko‘rkamligi, ma‘naviyatimiz ko‘zgusida o‘z aksini topayapti desak mubolag‘a emas.

Darhaqiqat, o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligi o‘zbek xalqining siyosiy va madaniy hayotida eng yirik voqealardan biri bo‘ldi. Endilikda biz qanchadan-qancha ulug‘ bobolarimiz ilmiy meroslarini, ma‘naviy meros hisoblanmish hikmat durdonalarini, badiiy asarlarini, tarixiy memuar asarlarini o‘z ona tilimizda sevib mutolaa qilayapmiz. Ayni damda davlatimizning muhim hujjatlari ham shu tilda yozilmoqda. Ona tilimiz davlatlararo muloqotlarda, dunyoning nufuzli minbarlarida, xalqaro anjumanlarda ham keng qo‘llanmoqda. Hatto Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ham BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida davlat tilida nutq so‘zlashi tilimizning yanada yuksakligi, ona tilimizga bo‘lgan e’tibori va hurmati ramzidir. Tilimizning millatimiz ruhi ekanligini yana bir karra dunyo miqyosiga isbotladi.

Xulosa qilib aytganda, ona tilini sevish ham vatanparvarlik belgisi, ajdodlar ruhiga hurmat ramzidir. O‘z tilini hurmat qilgan xalq o‘zligini, o‘z g‘ururini asrab-avaylagan bo‘ladi. Ona tiliga muhabbat har bir so‘zning ma`nosini chuqur anglagan holda ishlatish, uni yaxshi bilish, asrab-avaylash kabi fazilatlarda namoyon bo‘ladi. Shunday ekan, biz, ayniqsa, o‘zbek tili o‘qituvchilari tilimizning beqiyosligini, rang-barangligini, kelgusi avlodga teran yetkazishimiz muqaddas burchimiz ekanligini aslo unutmasligimiz kerak. Zero, davlat tili birligimiz, borligimiz ramzidir. Shuningdek, ayni damda yoshlarimiz ongiga milliy g‘urur va nafosatni yuksaklarga ko‘tarishni mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma‘naviy jihatdan taraqqiy etishi, xalqaro obro‘-e’tiborining yuksalishi uchun ona tilimizni yanada boyitish, uni puxta egallashimizga ham ko‘p jihatdan bog‘liq ekanligini takror va takror uqtirishimiz zarur. Ana shunda

yosh avlod qalbida tilimizga yanada mehr oshadi, kelajakda ular o‘z ma‘naviy barkamolligini ko‘rsata olishi, shubhasizdir.

Adabiyotlar:

1.Турсунов Ў. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т.: Ўқитувчи, 2004. – Б. .56-60

2. Усмонов С. Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент, 1964. – № 3. – Б. 67-72

МЕТАФОРА –БАДИИЙ ТАСВИР ВОСИТА СИФАТИДА

Баҳодир Ўринов

СамДУ тадқиқотчиси

Бадиий нутқдаги бадиий сўз бошқа сўзлар билан синтагматик муносабатга киришар экан, турли услубий бўёқлар, нозик маъно оттенкаларининг ўзаро муносабатини юзага чиқаради ва прагматик мазмунни шакллантириш учун хизмат қилади. Мазмундор нутқда сўзлар, энг аввало, улар ифодалаган маъно орқали бирикадилар. Шундай экан, бир сўзнинг бошқа бир сўз билан бирикувида ҳар сафар унинг янги семантик хусусиятлари намоён бўлади. Ижодкор асар яратар экан тилнинг коммуникатив ва эстетик вазифаларини юзага чиқарувчи тасвирий ва экспрессив воситалар, сўзларнинг образли ифодаси ҳамда метафорик кўринишлардан фойдаланади. Чунки бадиий нутқ услубида тил материалини қамраб олиш имконияти кенг бўлиб, унинг ўзига хос хусусияти умумхалқ тилида мавжуд бўлган барча луғавий бирликлардан эстетик-эмоционаллик ярата олиши билан белгиланади. Ёзувчининг маҳорати ҳам шунда кўринади. Буни лингвистика фанида деннотатив структура деб юритилади. Бундай имконият бошқа услубга хос матнларда чегараланган бўлади. “Адабий тилда диалектизмлар, жаргонлар, варваризмлардан, дағал сўзлардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ бўлмагани ҳолда уларни бадиий услубда ўрни билан қўллаш мумкин. Услубнинг ҳеч бирида тил ўзининг тузилиш жиҳатлари, луғат таркиби, яъни сўзнинг маъно бойлиги ва ранг-баранглигини, тўғри ва кўчма маъноларни бадиий нутқ услубидагичалик намойиш қила олмайди, грамматик қурилиши, яъни гапларнинг барча типлари билан иштирок эта олмайди. Бадиий адабиётнинг барча жанрларида сўз ишлатиш ва сўз танлаш имкониятларига бир мезон билан ёндашиб бўлмайди. Бадиий нутқ услубида ёзилган асарларни тасвирий воситаларсиз тасаввур қилиб бўлмайди. Услубий фигуралар деб аталувчи тасвир воситалари —такрор, ўхшатиш, сифатлаш, метафора, жонлантириш,

антитеза, градация, эллипсис, риторик сўроқларнинг бадиий услубда фаол қўлланиши бу услубнинг ўзига хос таркиби мавжудлигини кўрсатади”[16].

Ўзбек тили тартибига кирган сўзлар ўзига хос маъноларни англатади. Сўзга янги маъно ҳосил қилишнинг бу усули кўчма маънодаги сўз ҳосил қилишдир. Кўчма ма]нони билдирган бу сўзлар уч турга булинади:

1.Метафора.

2.Метонимия.

3. Синекдоха.

Метафора-кўчма маънодаги сўзларнинг кенг тарқалган, кўп ишлатиладиган тури. Метафора термини тилшуносликда, адабиётшуносликда кўп қўлланилади, бирок унинг аҳамияти кенг ўрганилмаган.

Адабиётшуносликда сўзларнинг кўчма маънода қўлланишини тропга киритилиши ҳаракатдаги нарсанинг тавсифланаётганида аниқ ва ёркин ифода этилади.

Тилшуносликдаги метафора-бу ҳар қандай сўзларнинг кўчма маънодаги ўхшашлиги, унга боғлик бўлмаган ҳолатда бадиий восита сифтида намоён бўлса-да, лекин ишлатилмайди.

Метафорасиз бадиий асарларда тилнинг таъсирчанлигини ва эстетик вазифасини тасаввур этиш қийин.

А.И.Ефимов от-метафораларнинг қуйидагича шажарага бўлади:

1.Хайвон номлари.

2.Кушлар номлари.

3.Ҳар хил судралувчилар.

4.Қимматбахо минераллар. Қазилма бойликлар номи.

5.Кийим-кечак матераллари номлари.

6.Дарахт ва гуллар номлари.

7.Табиат ҳодисалари номлари

Биз от –метафораларнинг куйидаги шажарасини келтирамиз:

1.Ҳайвонот номлари

2.Қушлар номлари .

3.Судралувчилар, ҳашоратлар, сувда, қуруқликда яшовчилар номлари.

4.Ўсимликлар дунёси номлари.

5.Табиат ҳодисалари номлари.

6.Қазилма бойлик ва минераллар номлари.

7.Нарса номлари.

8.Таом номлари.

Ҳайвонот номлари билан ифодаланган метафоралар.

---

[16]Қаранг: Ўзбек тили стилистикаси, Т., 1983; Қўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё., Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Т., 1992.

Ҳайвон номлари билан ифодаланган метафоралар тавсиф таркиби ҳар хил қиёсий конструкциялардан ташкил топади.

Ижодкорнинг оғзаки ва бошқа нутқида энг кўп ишлатиладиган метафора отдан ташкил топган “ит” сўзидир. Бу кўп маънолилиги билан ажралиб туради.

“Ит” сўзи “йиртқич”, “заҳарли”, “очкўз” “қадрсиз”, аҳамиятсиз маъноларни билдиради. Бу метафораларнинг услубий ишлатилишини кўрайлик:

Қайдан ҳам келди бу ит
Қайдан ҳам елди бу ит. *(Қ.М)*

Ўзбек тилидаги салбий тушунчани англатувчи “итвачча” метафораси “ит” метафорасига нисбатан ҳис-хаяжонлилиги билан бир мунча кучли:

“Йўқол”, нодон, итвачча (*Сўзлашувдан*)

Ўзбек тилида “қашқир”, “бўри”, «алвасти», “аждар” метафоралари ҳам учрайди:

Чўлнинг қашқири эди,
Бўрининг зўри эди. *(ҚМ)*

Қолди аждарнинг оти,
Алвасти йўл йўқотди. *(ҚМ)*

Сен мисолиаждарҳо,
Очасан оғзингдарҳол ,*(ҚМ)*

Бу ерда “аждарҳо” сўзи “энг қўрқинчли” сўз бирикмаси синоними сифатида ифодаланган .

Ўзбек тилида жуда кўп ҳолларда ҳайвонлар номлари билан ифодаланган метафоралар ишлатилади:

Кел ёнимга, эй қўзим,
Қўлинимса сен ўзинг. (ҚМ)

“Қўзим”, “қўлиним” метофаралари биринчи шахсдаги бирлик қўшимчаси –им билан ясалган ва сўзловчининг суҳбатдошига нисбатан эркалаш маъносини ифодалаган.

Хуллас, шоир асарларида жамиятда, хусусан, кундалик ҳаётда бўлаётган воқеаларни тафсилотини беришда, инсоннинг эмоционал ҳис-туйғуларини ифодалашда стилистик фигуралардан, тасвирий воситалардан ўринли фойдаланган. Бу эса бадиий асарларнинг стилистик хусусиятларини очиб берида лексик бирликларнинг тасвирий ифодаси муҳим аҳамиятга эга эканлигини кўрсатади.

МИЛЛИЙ ТИЛ - БУЮК МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТДИР

Убайдуллаев Беҳруз
МИС-219 гуруҳ талабаси

Маълумки, ҳар қандай тил келиб чиқиши, такомиллашиши, ифода этилиши ёки этилганлиги, қўлланилиши нуқтаи-назаридан маълум бир халққа, элат ёки миллатга тегишли бўлади. Тилнинг яралиши мана шу халқнинг ҳам келиб чиқиши, тилнинг такомиллашиши эса мана шу миллатнинг, ёки шу тилда сўзлашувчи элнинг равнақ топиши асносида амалга оширилади. Тил маълум бир миллатга тегишлилик жиҳати билан миллий тил мақомини олади. Демак, тилнинг яшаши миллатнинг яшаши билан ҳамоҳангдир. Миллатнинг йўқолиши тилнинг ҳам йўқолишига олиб келади. Ҳаммага маълум бўлган рақамларнинг бирини келтириб ўтамиз. Бугунги кунда дунё аҳли етти мингдан ортиқ тилда сўзлашади. Аммо, булардан фақат 250 та тилгина расмий мақомга, яъни, давлат тили мақомига эга. Яъни бир ачинарли рақам: 9000 га яқин тил йўқолиб кетиш арафасида! Ҳа, айнан тил йўқолиб кетмоқда, қайсидир шевалар, ёки лаҳжалар эмас! Мутахассисларнинг таъкидлашича, тил йўқолмаслиги учун камида бир миллион одам ундан фойдаланиши лозим экан. Хўш, ана шу фойдаланиш, нима дегани? Бу, аввало, мана шу тилда кундалик сўзлашувларда, ҳужжатлар юритишда фаол фойдаланиш, шу тилда адабий, илмий ва бошқа асарлар яратиш, шу тилни илм сифатида ўрганиш баробарида унинг такомиллашиши ёки ўзгаришига сабаб бўладиган омилларни ўрганиш, уларга баҳо бериш кабиларни амалга ошириш лозим бўлади. Юқорида таъкидлаганимиздек, тилнинг муомаладан чиқиши миллатнинг ҳам йўқолишига олиб келади. Миллатнинг йўқолиши, деганда, маълум бир миллатга тегишли халқларнинг жисмонан йўқолишинигина тушунмаслик керак. Бунинг бир қанча сабаблари бор. Жумладан:

-халқнинг босқинчи, мустамлакачилар тазйиқи остида тили, урф-одатлари ва бошқа миллий хусусиятларининг йўқ қилиниши, узоқ йиллик мустамлака остида миллатнинг йўқолиб бориши;

-қолоқ халқларнинг ривожланган давлатлар, уларнинг тили, таълими остида ўз келажакларини яратиш умидида миллийликдан узилиб бориши натижасида йўқолиш;

-глобаллашув таъсири остида маданиятлар бирлашуви натижасида миллий унсурлар билан бирга миллий тилнинг ҳам “емрилиб бориши”, ва бунинг оқибати ўлароқ, миллатнинг ҳам ўзлигини йўқотиб бориши;

-айрим халқларда мавжуд бошқарув тизими олиб борадиган антимиллий сиёсатнинг натижаси(масалан ўша ҳудудда миллий эмас, бошқа тилга расмий мақом берилиши, бошқа тилда таълим бериш ва бошқа ҳукмрон давлатлар таъсири остида сиёсат юритиш ва бқ.);

-халқларнинг мажбуран, ёки эҳтиёж юзасидан бошқа миллат яшовчи ҳудудга кўчириб ўтказилиши, ёки кўчиб ўтиши билан боғлиқ йўқотишлар, яъни “келгинди” миллатнинг маҳаллий миллат таълимини олиши(миллий таълими бўлмаслиги мумкин), уларнинг тили, урф-одатларини қабул қилиши, никоҳ муносабатларига киришиши билан миллатнинг аралашиб кетиши ва шу каби омилларнинг таъсири остида ҳам маълум бир миллат йўқолиб кетиши мумкин.

Яна рақамларга мурожаат қиламиз:

ЮНЕСКО томонидан нашр қилинган “Йўқолиб кетиш хавфи арафасида турган жаҳон тиллари атласи”да Европадаги 50та, Тинч океани минтақасида 200 та тил йўқолиб кетиш арафасида эканлиги таъкидланади. Африкадаги 1400та тилдан 600таси келажакда, 250 таси эса яқин орада бутунлай йўқолиб кетиши мумкин экан.[1]

Демак, миллатни асраб қолувчи энг биринчи омил бу – миллий тилдир. Миллий тил энг асосий миллий қадриятлардан бири ҳам ҳисобланади. Маълумки, инсон умри давомида яшаш учун бутун бир эҳтиёжлар тизимига муҳтож бўлади. У ўз эҳтиёжларини қондирар экан, уларнинг ўзи зарурийлик даражасини аниқлайди, кейин эса уларни баҳолайди. Баҳолаш натижаси ўлароқ, бу нарсалар унинг учун қадри ошади ёки ўз қимматини йўқотади. Қадри ошганлари ҳам агар давомийлик касб этиб, инсон ҳаётида маънавий аҳамият касб этиши ва азизлик даражасига кўтарилиши мумкин. У инсон учун қадрлашган ва азизлашгандан сўнг инсон уни йўқотишни истамайди, у билан ўз руҳий оламига озуқа олади, шу боис уни асраб-авайлайди ва у инсон учун қадриятга айланади. Агар мана шу қадриятлар алоҳида инсон, жамоа ёки гуруҳ эмас, балки миллат учун аҳамият касб этиб, миллат манфаатларини кўзда тутган ҳолдаунинг яшаши, ривожланиши, маънавий озуқа олиши учун хизмат қилса, у миллий қадриятга айланади.[17] Миллат ўз қадриятлаидан озуқа олади, уларга таянади, улар билан ўзининг мавжудлигини исботлайди. Миллий тил ҳам шундай. Абдулла Авлоний таъбири билан айтганда, миллий тилда миллатнинг руҳияти яшайди.[2] Бу фикрни кичик ривоят билан асослантирмоқчиман:

Қадим замонларда бир қиз юртига келган ажнабий йигит билан севишиб қолишибди. Аммо ота-онаси қизини ажнабий йигитга турмушга чиқишини исташмабди ва бунга монелик қилишибди. Бироқ ёшла ўз сўзларида қатъий туиб олишгач, ота-онанинг кўнишдан ўзга чораси қолмабди ва онаси рози бўлмоқдан олдин унга битта шарт қўйибди: “Агар она бўлсанг, болангга алла айтмайсан!” Қиз бу шартни “ҳеч гап эмас эканку”, дея, осонгина қабул қилибди. Тўй бўлиб, улар ўзга юртга жўнаб кетишибди. Йил ўтиб, қиз фарзандли бўлибди. Бола кечалари йиғлаб чиқса ҳам, қиз онасига берган ваъдаси боис,

[1]SU Akhrorova.Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) 9 (11), p.236

унга ҳеч ҳам алла айтмабди. Бола у ёки бу сабаб билан оламдан ўтибди. Маълум вақт ўтиб, оилада иккинчи фарзанд туғилибди. Ёш она бу болага ҳам алла айтмабди. Тақдирнинг тоқазоси билан бу бола ҳам нобуд бўлибди. Учинчи фарзанд туғилгач, эри унга: “Сен қанақа онасан ўзи? Нега алла айтмайсан? Агар бунга ҳам алла айтмасанг, сендан воз кечаман!” – дея, шарт қўйибди. Қиз эрининг бу кескин шартидан сўнг ва боласи учун онасига берган ваъдасини бузибди ва алла айта бошлабди. Маълумки, аллани инсон фақат ўз она тилида, миллий тилда ижро этади. Қиз ҳам болалигида онасидан, бувисидан эшитган алланинг миллий сўзларини хотирлаб, куйлай бошлабди. Куйлаш давомида унинг кўз олдидан болалиги, алла эшитган дамлари ва онасининг тафти, юти, урфодатлари, қадриятлари ўтаверибди, қўйингки, қалбининг тубида кул остидаги чўғ каби милтираб ётган юрт соғинчи юзага қалқиб чиқибди. Бола, аллани эшитгач, тинчланиб ухлаб қолибди, аммо қизнинг ўзи Ватан, жигарлари соғинчида адо бўлибди ва касал бўлиб қолибди.

Алқисса, она ўз қизини мана шу азобдан қутқариш учун ҳам, алла айтмайсан, дея шарт қўйганди. Миллат тилининг она тили, деб аталиши ҳам бежизга эмас. Тил яшаши учун у қадриятга айланиши лозим. Яъни, ҳар бир инсон ўз она тилини нафақат севиши, балки уни соф ҳолда асраб, қадрлаши, бошқа тилда сўзлашув, ёки ўз тилига бошқа “урф” бўлган тилдаги сўзларни қориштиришни “маданият белгиси” деган кўр-кўроналикдан авайлаши лозим. Шу ўринда айтиш лозим-ки, цивилизация таъсири, техника тараққиёти, иқтисодий-ижтимоий интеграция туфайли миллий тил таркибига янги сўз ва атамалар кириб келмоқда. Бу табиий ҳол, яъни ҳар қандай кириб келган ажнабий унсурнинг номланиши ҳамиша ҳам “миллийлаштириш”га зарурат бўлмайди. Масалан, самолёт, вертолёт, ракета, поезд ва ҳоказо сўзлар тажима талаб қилмайди ва умумхалқлар атамаси таркибида миллий тилни ҳам бойитади. Қадриятга айланиш эса унинг яшовчанлигини таъминлайди. Умуман, қадриятларнинг ўзи яшовчанлик хусусиятига эга эканлигини миллий қадриятга айланган Наврўз байрами мисолида кўришимиз мумкин. Манбаларда таъкидланишича, хусусан, аждодларимизнинг маънавий тафаккури маҳсули “Авесто”нинг гувоҳлик беришича, қарийб уч яим минг йилки, Наврўз халқнинг севимли байрами бўлиб нишонланиб келади. Бу йилла мобайнида юртимизга турли даврларда келган турли босқинчилар томонидан уни йўқ қилишга кўплаб уринишлар бўлганига қарамай, у қисман шаклини ўзгартириб, аммо, моҳиятини йўқотмаган ҳолда яшаб келаверди. Миллат ана шу қадиятлари билан тирик. Тил ҳам қадриятга айланмас экан, бошқа тиллар таъсири остида емрилиб бораверади.

Миллий тил тўғрисида сўзлар эканмиз, миллий тафаккур хусусида ҳам тўхталиб ўтиш жоиз. Инсоннинг фикрлаш жараёни ҳам маълум бир тилда

кечади. Яъни, соддароқ айтганда, ўзбек ўзбекча, рус эса русча ўйлайди. Бошқа тилни эгаллаганлар ўша тилда фикрларини билдиришдан олдин, бу фикрни тафаккурда миллий тилда яратадилар, уни тафаккурда таржима қиладилар ва кейин ўша фикрни мияларида таржима қилинган тилда ифода этадилар. Бундай ҳолатни ўқитувчилар бошқа тил ўрганаётган талабаларга дарс ўтиш мобайнида кўп бора дуч келганлар. Яъни, талаба ўрганаётган тилида берилган саволни аввал онгида ўз тилига ўгиради, унга ўз тилида жавоб топади, сўнг жавобни яна миясида ўрганаётган тилига ўгиради ва кейингина саволга жавоб беради. Тил ўрганаётган болаларнинг саволга бир оз муддат ўтиб жавоб беришлари шундан. Бундай ҳолатда, жавоб қайси тилда бўлмасин, унда миллий тилга хос ёндашувлар, миллий оҳанг, сўзларга урғу беришдаги миллий ёндашув, фикрнинг ифода этиш усули кабиларда миллийлик акс этиб туради. Лекин бу бошқача ҳам бўлиши мумкин. Масалан, ўзбек боласи ёшлигиданоқ рус тилидаги боғчага, сўнг мактабга боради, оилада ҳам русча сўзлашиш натижасида у нафақат рус тилини яхши ўзлаштиради, балки у энди рус тилида тафаккур қилади, рус тилида ўйлайди, рус тилида орзу қилади ва ҳоказо. Бу ҳолатдаги сўзлашувда миллий руҳият йўқолиб боради. Бу эса ўз-ўзидан миллий тилнинг қадрсизланишига олиб келади. Қадрсизланган тил ўз субъекти учун аҳамиятини ҳам йўқотиб боради. Бундан келиб чиқади-ки, болаларга тилларни ўргатиш мобайнида, биринчидан, она тилни қадриятга айлантириш; иккинчидан, миллий тафаккурни асраб қолиш лозим. Мана шу ҳар иккала омил тилнинг яшовчанлигини таъминлайди. Демак, тилни асрамоқ – ўзликни ва миллатни асрамоқ демакдир.

Адабиётлар:

1. Ш. Мирзиёев. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Т.:Ўзбекистон. 2017.14-б.
2. Ахророва Ш. Жамият ва ижтимоий муносабатларда маънавий омиллар. Архив Научных Публикаций JSPI. - 2020. -23(1).
3. S.U. Akhrorova, (2020) “National interests and their value in social relations”, Asian Journal of Multidimensional Research, Vol. 9, pp. 235-239
4. S.U. Akhrorova, (2020) “Manifestation of national spiritual features in the subjects of social policy”, ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, Vol. 10, pp. 2130-2134
5. Ахророва, Ш. У. Аспект национальных ценностей в социальной политике в Узбекистане / Ш. У. Ахророва // Credo New. – 2013. – № 4. – С. 18.
6. Ahrorova, Sh. U. The meaning of national values for social life in Uzbekistan / Sh. U. Ahrorova // Europaische Fachhochschule. – 2014. – No 3. – P. 128-129.

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИНГ НОФИЛОЛОГИК ЙЎНАЛИШИДА ДАВЛАТ ТИЛИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ

Кариева Х.И. СамИСИ

“Жисмоний маданият” кафедраси катта ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада давлат тили ҳақида тўхталиб, мамлакатимизда давлат тилига оид Қонунларнинг қабул қилиниши шунингдек, олий таълим муассасаларида давлат тилини ўқитилишнинг муҳим омиллари ҳақидаги фикрлар баён этилган.

Калит сўзлар: тил, ўзбек адабий тили, тил сиёсати

Тил-миллат кўзгуси, миллат ифтихоридир. Тил бор экан, миллат барҳаётдир. Тил энг буюк миллий қадрият сифатида муҳим аҳамият касб этади. Улуғ бобокалонимиз А. Навоий бир қанча ҳикматларида тил ҳақида кераклича пурмаъно сўзларни келтириб ўтган. Ўзбекистоннинг Биринчи Президенти И.Каримовнинг “Ўзликни англаш, миллий онг ва тафаккурнинг ифодаси, авлодлар ўртасидаги руҳий-маънавий боғлиқлик тил орқали намоён бўлади. Жамики эзгу фазилатлар инсон қалбига аввало, она алласи, она тилининг бетакрор жозибаси билан сингади. Она тили-миллатнинг руҳидир”.-дея айтган таъкидлари бугунги кунда шу мамлакатда истиқомат қилаётган ҳар бир фуқаро учун ифтихор туйғусидир.

Мамлакатимизда ўзбек тилига “Давлат тили” мақомининг берилиши адабий тилни асраш, ривожлантириш йўлидаги мақсадларни амалга оширишда муҳим босқич бўлди. Ўзбек тили давлат тили мақомини олгандан сўнг тилимизга бўлган эътибор ортди, тил орқали кўплаб ўзгаришлар, тадқиқотларнинг олиб борилиши ўзбек тилига бўлган эътиборнинг намунасидир. “Давлат тили ҳақида” ги Қонуннинг 2-моддасида “Ўзбек тилига давлат тили мақомининг берилиши республика ҳудудида яшовчи миллат ва элатларнинг ўз она тилини қўллашдан иборат конституциявий ҳуқуқларга монелик қилмайди”, 7 –моддасида “Давлат тили расмий амал қиладиган доираларда ўзбек адабий тилининг амалдаги илмий қоидалари ва меъёрларига риоя этилади. Давлат ўзбек тилининг бойитилиши ва такомиллаштиришини таъминлайди” –кабилар келтириб ўтилган.

2016 йил 13 майда А.Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетининг ташкил этилганлиги ҳам она тилимизнинг софлигини кўрсатувчи энг муносиб йўлдир. Бугун ушбулар қаторида республикамизда давлат тилига эътибор ортиб бормоқда. Бу борада Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари ттўғрисида”ги 2019 йил 21 октябрдаги ПФ 5850 сонли Фармони ҳамда

Ўзбекистон республикаси Президентининг “Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 6084 –сонли Фармони амалда ўз тасдиғини топмоқда. Ушбу Фармон жамиятимизда тил сиёсатини ривожлантириш, давлат тилининг нуфузини такомиллаштиришда таълим муассасалари, ташкилотларнинг ўрни алоҳида аҳамиятга эгадир.

Айниқса, олий таълим тизимининг нофилологик таълим йўналишларида Давлат тили –ўзбек тилини такомиллаштиришни алоҳида кучайтириш лозим. Бунда қуйидаги жиҳатларга эътиборни қаратиш лозим.

-Олий таълим муассасаларининг таълими бошқа тилда олиб борилаётган йўналишларда ўзбек тили дарсларини сифатли ташкил этиш;

-Олий таълим муассасаларининг нофилологик йўналиши ўзбек тили фани ўқитувчилари билан ўзбек тили доимий анжуманларини йўлга қўйиб бориш;

-Олий таълим муассасаларда ўзбек тили ўқув марказларини ташкил этиш;

-иқтидорли талабалар ҳамда хорижлик талабаларни институт қошида ташкил этилган “Ўзбек тили” курсларига жалб этиш.

Тил сиёсатини такомиллаштириш, мамлакатимизда ўзбек тилини ривожлантириш бўйича олий таълим муассасаларида давлат тилини ривожи, шу тилнинг софлигини оширишда алоҳида эътибор қаратиш лозим.

O‘ZBEK TILINI O‘RGANILISH VA O‘RGATILISH DARAJASI

Norkuziyeva Dildora Sheraliyevna
Samarqand veterinariya meditsinasi instituti
“O‘zbek, rus tillari va adabiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada keyingi yillarda mamlakatimizda o‘zbek tiliga munosabat, o‘zbek tilining qadr-qimmatini oshirish yo‘lida amalga oshirilayotgan ishlar va uning xorijiy davlatlarda o‘rganilish va o‘rgatilishmasalalariga e‘tibor qaratilgan hamda dunyoning qaysi hududlarida fan sifatida o‘rganilishi borasida ayrim fikr va mulohazalar o‘rin olgan.

Kirish. Globallashuv shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi kunimizda hech bir narsa yo‘qki, uni asl holicha saqlab bo‘lsa. Jumladan, xalqimizning ming yillik tarixiga ega bo‘lgan milliy tilimizni ham asl holida saqlash, qolaversa, keyingi avlod vakillariga yetkazish faqat ayrim shaxslarninggina emas, balki shu osmon ostida yashayotgan, shu tilda fikrini bayon qilayotgan barcha shaxslarning Vatan oldidagi g’oyatda muhim burchlaridan biridir. Zero, asrlar davomida sayqallanib, jilo topib, Qoshg‘ariyning kalomidan jilolangan, Hazrat Navoiyning bayoti-la boyigan o‘zbek tilimizning ravnaq topishida, dunyo sahnalarida baralla yangrashida har birimiz mas’ulmiz.

Asosoy qism. Keyingi yillarda mamlakatimizda o‘zbek tiliga munosabat, o‘zbek tilining qadr-qimmatini oshirish yo‘lida amalga oshirilayotgan bir qancha ijobiy yutuqlarni ko‘rishimiz mumkin. Eng katta yutug‘imiz esa yaqinda yurtboshimiz Sh. Mirziyoyev BMT bosh sammitida butun dunyo xalqlari oldida o‘zbek tilida – ona tilimizda nutq so‘zladilar. Bu esa ona tilimizning mavqeyini oshirish yo‘lidagi eng muhum va tarixiy qadamlardan biri bo‘lgani shubhasiz. Ma’lumki, bir necha yillardan beri turli xalqlarning ona tilida gapirish huquqini BMT doim himoya qilib va rag‘batlantirib kelgan.

Zero, millat uning tilida gaplashuvchilar mavjud bo‘lgandagina yashaydi. Millatni millat qiladigan, uning qadr-qimmatini oshiradigan vosita bu tildir. Demak, qaysi mamlakatda tilga e’tibor ko‘lami keng bo‘lsa, shu mamlakat rivojlanadi, taraqqiy topadi.

Mamlakatimizning tub aholisini o‘zbeklar tashkil qiladi. Tarixdan ma’lumki, o‘zbek tilining tarixiy negizlari Oltoy tillar oilasining turkiy tillar turkumiga mansub. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, o‘zbek tili o‘z tarixiy jarayonida ushbu bosqichlarni bosib o‘tgan:

1.Qadimgi turkiy til X asrgacha mavjud bo‘lgan.

2. Eski turkiy til X asrdan XIII asrgacha qo‘llanilgan.

3. Eski o‘zbek adabiy tili XIII asrning 2-yarmidan to XX asr boshlarigacha qo‘llanilgan.

4.Hozirgi o‘zbek adabiy tili.

Mana qariyb bir asr bo‘libdiki, muomalada hozirgi jonli o‘zbek adabiy tili qo‘llanilib kelmoqda.

Eski o‘zbek tili o‘rta asrlarda butun Sharqning umumiy adabiy tili bo‘lgan. Hazrat Mir Alisher Navoiy tomonidan e’tirof etilgan bu til Oltin O‘rda, Volga bo‘yi Sibir xonligi, Qrim xonligi, umuman olganda, Turkiyadan Mo‘g‘ulistongacha bo‘lgan hududlargacha keng tarqalgan edi.

Dunyo bo‘yicha o‘zbeklar soni 50 millionni tashkil etsa, shulardan 3 millioni (bu aslida taxmin bo‘lib, ba’zi manbalarda 7-8 million deb yuritiladi) Afg‘oniston hududida yashashadi.Butun yer yuzi aholisining 50 millioni esa bizning ona tilimiz bo‘lmish o‘zbek tilida gaplashadi. 30 milliondan ko‘proq odam esa o‘zbek tilini o‘z ona tilisi debbiladi. Ikkinchi til deb biladiganlar hisobiga esa bu ko‘rsatkich 50 millionga yetadi [2].

Hozirgi kunda Tojikiston, Afg‘oniston, Qirg‘izistonda millionlab o‘zbeklar bor; Qozog‘iston, Turkmaniston, Rossiyada ham mavjud; Turkiya, Saudiya Arabistoni, Pokiston, AQSh, Janubiy Koreyadagi diasporalarni qo‘shsak, qolaversa, o‘zbek tilining Shinjon-Uyg‘ur muxtor o‘lkasiga madaniy ta’sirini inobatga olsak, o‘zbek tilida asosiy mintaqaviy til bo‘lishiga yetarli resurslar borligini his qilamiz.

Demak, mana shunday ulkan resurslarga boy bo‘lgan tilimizning butun dunyo xalqlari orasida xalqaro mavqeyi va nufuzini yanada yaxshilash, uning ko‘lami va salmoqdorligini oshirish uchun bizning oldimizda qanday vazifalar turibdi? Bizningcha, chet elda yashayotgan o‘zbeklarni madaniy qo‘llab-quvvatlash, butun dunyo xalqlari orasida o‘zbek tili va uning madaniyatini o‘rganilishini. Xalqaro ta’lim muassasalarida esa o‘zbek tili kafedralarini ochilishini nazoratga olish va uni iqtisodiy jihatdan moliyalashtirish, ona tilimizga oid xalqaro konferensiyalarni va anjumanlarni qamrovini oshirish, o‘zbek tili mutaxassislarining ko‘lamini kengaytirish va ularni rag‘batlantirish va shu mintaqalarda mamlakatimiz biznesini salmog‘ini kengaytirib, o‘zbek tilini uning asosiy tiliga aylantirish(masalan, Janubiy Koreya, Qozog‘istondagi qo‘shma korxonalarning ishchilariga o‘zbek tilini o‘rgatish)foydali bo‘ladi.

Bularni amalga oshirish bir yoki ikki kunda emas, balki qadamba-qadam amalga oshiriladigan jarayondir.

Afsuski, o‘zbek tili hozirgi kunda jahon xalqlari orasida kam o‘rganilgan va kam o‘rgatilayotgan tillar sirasiga kiradi. Tilimizning shunchalik keng imkoniyatlari chegaralanib qolgani va bir paytlar dunyo hamjamiyatidan uzilib qolgani xalqimiz 130 yil boshidan kechirgan mustabid tuzumning ildiz otgan asoratlaridan biridir. Shunga qaramasdan dunyoning bir nechta rivojlangan mamlakatlarida o‘zbek tili o‘rgatilib kelinmoqda. Va o‘zbekistonlik bir qator hamyurtlarimiz dunyoning bir qancha rivojlangan mamlakatlarida xorijlik talabalarga o‘zbek tilidan saboq berib kelmoqda. Xorijda o‘zbek tilini o‘rgatish oson emas. Faqat tilning grammatikasini o‘rgatishgina emas, balki shu tilda xalqning butun boshli madaniyati, xalqning mentaliteti, dunyoqarashi bir so‘z bilan aytganda dunyoga “o‘zbekcha ko‘z” bilan qarashni o‘rgatish kerak.

Misol uchun bugungi kunda Yaponiyaning 8 ta universitetida, Turkiyaning 18 ta universitetida Amerikaning 8 ta universitetida, Germaniyadagi 4 ta universitetda o‘zbek tili o‘rgatiladi[3]. Shu bilan bir qatorda Yaponiyadagi Osako, Tokio chet tillar universiteti, Berlindagi Humboldt, Janubiy Koreyadagi Pusan universitetlarida Osiyo-Afrika tillari doirasidagi tanlov fan sifatida o‘rgatiladi. Berlin Humboldt universitetida birinchi til turkcha, ikkinchi til o‘zbekcha. Osaka universitetida ham shunday. Birinchi kursdan ixtiyoriy, ikkinchi kursdan majburiy fan sifatida o‘rganiladi. Bu davlatlarda o‘zbek tilining o‘qitilishiga asosiy sabablardan biri, mamlakatimizning yuqorida nomlari keltirilgan davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, diplomatik munosabatlarining yildan-yilga yaxshilanib borayotganligidandir. Har bir rivojlangan mamlakatning Markaziy Osiyodan manfaati bor.

Markaziy Osiyo javohirlar to‘la sandiq hisoblansa, O‘zbekiston bunda asosiy o‘rinni egallaydi. Demak, millatlararo hamkorlik mamlakatlarning til boradagi siyosatlarini ham yaxshilaydi. Tilning “tozaligini”, “sofligini” saqlanishi esa xalq

taraqqiyoti va kelajagini belgilaydi. Tilshunos olimlarning fikricha, yana 20 yillardan so‘ng hozir muomalada bo‘lgan tillarning o‘ntasidan bittasi saqlanib qoladi. Modomiki, shunday ekan, o‘zbek tilining xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini yuksaltirish, uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida taraqqiy etgan tillar safiga qo‘shishda har birimiz tilimizga chuqur hurmat bilan yondashishimiz lozim.

Xulosa va takliflar. O‘zbek tilini xorijda o‘rgatilishi va o‘rganilishiga oid quyidagi ba’zi bir xulosalar keltiriladi:

- Birinchi navbatda soha mutaxassislari tomonidan O‘zbekistonda chet elliklar uchun o‘zbek tili kitobining mukammal variantlarini yaratish lozim. Masalan, Rossiyaga borib rus tilini o‘rganmoqchi bo‘lgan kishilar ruscha lug‘atlarni yuzlab, yoki Janubiy Koreyaga ishlash uchun bormoqchi bo‘lgan odamlar koreys tilini o‘rganish uchun bir necha turdagi koreyscha lug‘atlarni topa oladi. Lekin taassufki, yurtimizda o‘zbek tilini o‘rganuvchi xorijliklar uchun o‘zbekcha lug‘atlar, til o‘rgatuvchi disklar va elektron kitoblar kam. Lug‘atlar asosan o‘zbekcha-fransuzcha, o‘zbekcha-ruscha, o‘zbekcha-inglizcha, o‘zbekcha-koreyscha va boshqa shu kabilardan iborat.

-Universitetlar huzurida o‘zbek tilini o‘qitish markazlarini tashkil etish orqali xorijliklarga o‘zbek tilini o‘rganish bo‘yicha qulay imkoniyatlarni yaratish;

-O‘zbekcha internet saytlari, e-kutubxonalar sonini ko‘paytirish va sifatini oshirish mexanizmini takomillashtirish;

-O‘zbek tilini xorijiy ta’lim muassasalarida o‘qitishni yo‘lga qo‘yish va bu borada tilshunoslarning salmog‘ini vasifatini oshirishni yo‘lga qo‘yish orqali xalqaro universitetlarda o‘zbek tili markazlari sonini oshirish.

Adabiyotlar:

1. Ashirboyev S., I.Azimov. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2007. 88 b.
2. МадвалиевА.Ўзбектили. Онлайн энсиклопедия. https://qomus.info.
3. Омонов Б, Ахтамова З.Дунёда неча киши ўзбек тилида сўзлашади ёхуд йўқолиб кетиш хавфи арафасида турган жаҳон тиллари. 14.10.2020. http://uza.uz/posts/183466.
4. To‘xliyev B, Shamsiyeva M, Ziyodova D. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. T.: 2006. 192 b.
5. Tojiboyev M. Tilimizni dunyoga olib chiqish zarurati. Ma’rifat gazetasi. 14.12.2019.
6. Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати. –Т.: Ўзбекистон, 1962. 35-б.
7. Ибрагимова Ф. Бадиий матнда эллипсис ва антиэллипсис. Филоло.фан.номзоди.дисс. афтореферати. –Т.: 2011. 13-б.https://qomus.info/

8. http://uza.uz/
9. http://marifat.uz/
10. https://xs.uz/

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LINGVOPOETIKA MASALALARINING O‘RGANILIShI

Ashurova Z.Sh SamISI
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligida lingvopoetika masalalariga qiziqish va uni tadqiq qilish shuningdek, til tafakkur uyg‘unligi, badiiy asarning lingvopoetik xususiyatlari kabi masalalar xususida fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar: lingvopoetika, sistem butunlik, matn, badiiylik moduslari, lingvopoeik xarakter, til estetikasi.

Joriy kunda o’zbek tilshunosligida lingvopoetika masalalariga qiziqish va uni tadqiq qilishga intilish jarayon tusini olganligi ayni haqiqatdir. Negaki, mazkur yo‘nalishlarda til va tafakkur uyg‘unligi, badiiy matnni sistem butunlikda tadqiq qilish, umuman ijodkor-matn-o‘quvchi birligi negizida nazariy jihatdan dalolatlash muhim masalalar sirasiga aynlandi. Demak, lingvopoetik tadqiqot o‘z oldiga ham shakl bilan bog‘liq, ham mazmun bilan bog‘liq, ham ijtimoiy holat, ruhiyat bilan bog‘liq qator fragmentlarni barqarorlashtiradi.

Azaldan tilning ijtimoiy hodisa ekanligi, u asrlar osha rivojlanib, sayqallanib, takomillashib, tadrijiy taraqqiy etib kelayotgani ilm-fanda yangi-yangi talqin nazariyalarini keltirib chiqarayotgani barchaga ma’lum. Shu jihatdan olib qaralganda, badiiy asarning lingvopoetik xususiyatlarini har tomonlama chuqur tahlil qilib, ob’ektga jalb qilingan materialning soni, sifati, tadqiq markazini to‘g‘ri belgilab olish muammoning mohiyatini to‘laqonli anglashga imkon beradi. Negaki, jahon tilshunosligi kontekstida tizimiy yondashuv bilan bir qatorda lingvopoetik jihatdan dalolatlash taomili bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas.

Bir qarashda “badiiylik moduslari” sistem butunlik kasb etishi bilan u tilga munosabat bildirishda zamon va davr nafasini, voqelik ro‘y berish vaqtini, hissiy-emotsional ta’sirdorligini chamalashda ham o’ziga xos ahamiyat sanaladi. Demak, Olmon faylasuf tilshunosi Gabelentsning talqin nazariyalarida aks ettirilgan fikriy munozaralari qanchadan-qancha ilmiy maktablarning rivojlanishiga turtki bo’ldi. Biroq bu hali o‘z maromiga tushdi degan xulosani bermaydi. O‘zbek tilshunosligida lingvopoetik maktab tarafdorlari ikki jihatni bir-biriga mutanosib ravishda o‘rganishni taqozolaydi, birinchidan, til –fikrning turli qismlarda aks ettirilgan yagona estetik mezoni bo‘lsa, ikkinchidan, tilning vaqt ta’sirida rivojlanishi qonuniy hodisaligini anglatishdan iborat. Buning natijasida ijtimoiy-estetik ehtiyoj natijasi

o‘laroq, tilga bo‘lgan bunday yondashuv davrning ham o‘z tutimlarining aks etishini e’tiborga olish lozim.

O‘zbek tilshunosligi tarixiga nazar tashliydigan bo‘lsak, poetik matritsa tilning mukammal holatga kelishiga qulay zamin yaratgan1. Darhaqiqat, “so‘z san’ati”ning bir uzvi sanalgan matn tarkibida ishtirok etuvchi leksik, semantik, morfologik, stilistik vositalar tag zamirida shakliy hamda ma’noviy komponentlar aks etishi sinalgan haqiqatdir. A.Rustamovning “So‘z xususida so‘z”, G‘.Abdurahmonov, A.Rustamovning “Navoiy tilining grammatik xususiyatlari”2 kitoblarida masalaning ayrim qirralari to‘g‘risida munozara yuritiladi. O‘zbek tilshunosligida badiiy matn poetikasi bilan jiddiy shug‘ullangan I.Mirzaev, S.Karimov, M.Yoqubbekova, M.Yo‘ldoshev, G.Jumanazarova singari olimlarning doktorlik dissertatsiyalari tadqiqotlari muammoning umumiy jihatlarini to‘ldirishga xizmat qiladi. Biroq bulardan tashqari G.Muhammadjonova, D.Shodieva, Sh.Haydarov, D.Jamoladdinova, F.Ibragimova S.Umirova, D.Shodmonova, D.Turdalievalarning nomzodlik dissertatsiyalari ham lingvopoetik talqin nazariyasi muammolarini ma’lum ma’noda keng qamrovli o‘rganishga qaratilganligi bilan e’tiborga molikdir.

Tilshunos G.Jumanazarova dostonlarda lingvopoetik xususiyatlarni kashf qilishga diqqat qaratgan bo‘lsa, S.Umirova she’riyatda lingvistik vositalar va poetik individuallik borasida o‘ziga xos nazariy-ilmiy qarashlarini o’rganishga erishgan. Keltirilgan manbalarning hech qaysisida hozirgi o‘zbek bolalar she’riyatida lingvopoetik xususiyatlar o’rganilgan emas. Bu jihati bilan hali oldimizda keng qamrovli ishlar bajarish lozimligini yuzaga chiqarmoqda. Tadqiqotchi S.Umirova o‘z qarashlarida shunday yozadi: “...lingvopoetik tadqiqotlar umumfilologik tadqiqotlarning o‘ziga xos cho’qqisi hisoblanadi va uning uchun insoniy tuyg‘ularning yuksak ifodsi bo’lgan tilning oliy maqomdagi imkoniyatlari kuzatish ob’ekti sifatida olinadi. Ishlab chiqilgan lingvopoetik tahlil metodlari bugun har qanday o‘zbekcha adabiy matnlarni ham tadqiq etish va uning badiiy-estetik ta’sir ko’lamini belgilashga imkon beradi”3. Bundan ko‘rinadiki, tilning shakliy-mazmuniy ustqurmasi, matn ekspressivlik ahamiyati namoyishi tarzida yuzaga chiqib, botiniy olam asrorlarini anglashga zamin yaratadi.

Tadqiqotchi G.Shodmonova shoir A.Oripov ijodida fikr bildirar ekan shunday yozadi: “She’riy nutqda metafora muhim ahamiyat kasb etadi. Metafora inson ongi rivojining, tafakkuri taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. U insonning ilmiy va badiiy tafakkuri o‘sishida katta o‘rin tutadi. Shu boisdan metaforani o‘rganish boshqa aspektlarda bo’lgani kabi lingvokognitiv va lingvopoetik ahamiyatga ham ega”5. Manba muallifi A.Oripov she’rlaridagi faqatgina bitta manbaga diqqat qaratadi: metaforik hodisaning she’r tarkibi va tabiatida, janrlarida qay tariqa qo‘llanilganligini nazariy jihatdan asoslaydi. Shuni qayt etish joizki, masalan, she’riy nutqning ajralmas halqasi – poetik olam sarhadlarni yangilashga intilayotgan shoir badiiy mahorati bilan

ham bevosita bog‘liqdir. so’z va uning ma’no maydoni, aytilayotgan fikrning mantiqiy tugalligi, mazmundorligi va ta’sirdorligi ham muhim aspektlardan hisoblanadi.

Yana bir umidli tadqiqotchi D.Turdaliyeva: “Badiiy nutq boshqa nutq turlaridan borliqni obrazli idrok etishning eng mahsuldor vositasi, estetik ta’sirining o’ta yuqori darajada ekanligi bilan ajralib turadi. Shu boisdan badiiy asar tasviri inson xotirasida uzoq saqlanib qoladi. Badiiy asar o’tmish tilini jonlantiradi, zamonaviy jonli nutqni o’z sahifalarida muhrlaydi, yosh avlod ma’naviy dunyosining o’tmish qadriyatlariga sodiq ravishda shakllanishiga xizmat qiladi”6, - deya alohida ta’kidlaydi. Badiiy asarning joriy kuda ham tilini jonlatirishga xizmat qilayotgan A.Obidjon ijodida ham o‘ziga xoslikni ko‘ramiz. B.V.Tomashevskiy fikricha: “Shoir u yo bu so‘z, u yo bu obrazni tanlar ekan, mavzu va kayfiyatga eng muvofiq keladigan, eng ta’sirchan va bizda aniq hamda yorqin tasavvurlar qo‘zg‘otuvchi ifodani izlaydi”3.

Lingvopoetik matn takomilida tadrijiy qonuniyat sanalgan har qanday – ob’ekt va sub’ekt ixcham tarzda ifodaviylikka evriladi. Bu hech qachon o‘z aksini yo‘qotmaydi. Tilshunos M.Yo‘ldoshev yozishicha: “Tilning estetik vazifasi butun o‘ziga xosligi va murakkabligi bilan, albatta, kommunikativ vazifani ham transformatsiya qilgan, badiiyat manfaatlariga to’lasicha xizmat qildirgan holda bevosita badiiy nutqda namoyon bo‘ladi. Umumxalq tilidagi barcha birliklar badiiy tilda u yoki bu darajada estetik qimmat kasb etadi”4. Anglashiladiki, til estetikasi ham mohiyatda badiiyat manfaatlariga xizmat qilishga da’vat qilinmoqda. Shu boisdan, tilning qonuniyatida lingvopoetik ustqurma transformatsiyasi o‘ziga xos voqelikni tashuvchi bo‘libgina qolmay, uni anglatish vositasi ekanligi namoyon bo‘lmoqda.

Tilshunos B.Yoriyevning “Til va uslub” nomli monografik kitobida til va uslub poetikasiga oid qator ilmiy-nazariy masalalar ham keltiriladi. Olim tilning ijtimoiy-falsafiy maqeini til tarixidan o‘rganishdan boshlaydi. Unda turk va turkiy nomlarning yuzaga kelish omillarini bir necha tarixiy ma’lumotlar bilan to‘ldirishga harakat qilgan. Undagi lingvistik xususiyatlarning o’zarishga yuz tutishi aniq ilmiy dalillar bilan o‘z isbotini topgan.

Dostonlar tili va lingvopoetikasi bilan jiddiy tadqiqot olib borgan G.Jumanazarova lingvopoetik matn ta’minotini doston timsolida tekshirishga jazm qilgan. Undagi leksik-semantik qatlam va uslubiy o‘ziga xosliklarga jiddiy e’tibor qaratganligini kuztish mumkin.

Tadqiqotchi F.Ibragimova olib borgan izlanishlarida qayd etishicha: “Badiiy asar tilini stilistik aspektda o’rganish sekin asta lingvopoetik izlanishlar uchun zamin hozirladi. Ana shu asosda lingvopoetik xarakterdagi ishlar yuzaga kela boshladi. Bu o’rinda o’zbek filologiyasidagi dastlabki ishlar sifatida, masalan, tilshunos

N.Mahmudovning Oybek, A.Qahhor, M.Shayxzoda kabi atoqli o‘zbek adiblarining asarlari lingvopoetikasini o‘rganishga bag’ishlangan bir qator maqolalarni tilga olish mumkin”5. Bu ishlar ham ma’lum ma’noda muayyan darajada olib organ tadqiqotimizning debochasidek taassurot qoldirishi mumkin. Bizni boshqa bir masala qiziqtiradi. Jamiki izlanishlarda matn tahliliga yondashuvda morfologik va sintaktik yondashuv tamoyili ko’zga tashlanadi. Matn mikro va makro qirralari tadqiq sahniga olib chiqilganda o‘sha tamoyilning morfologik, sintaktik tomoni tadqiq fegmenti sifatida “maydon”ga chiqadi. Ayniqsa, lingvopoetik unsurlar sintelizatsiyasi turdoshlik kasb etib, matnning universal modelini kashf qilishga e’tibor qaratiladi. Demak, lingvopoetik tadqiqotlarning dastlabki asosi – matnga aloqador bo‘lgan transformatsion o’ziga xoslik jihati ham keng qamrovli tadqiq sahniga jalb qilinsa maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Shuni alohida qayd etish joizki, har qanday tadqiqot asosida tahlil sintezi yotadi. Unda matn ob’ektiv va sub’ektiv qirralari kashf qilinadi. Talqin va tadqiq markazida bosh omil – obrazli tafakkur modifikatsiyasi turadi. Natijada sistem butunlik kasb etish holati namoyishi hamda uni dalolatlash printsiplari darajalanib, muayyan vaqt intensiv birikmani yuzaga chiqaradi. Morfologik va sintaktik semalar yig‘indisi qulay vaziyat tahlil metodlariga keng yo‘l ochadi. Unda shakl va mazmun yaxlitligi o‘zaro umumiylikka evrilib, tahlil metodologiyasini kengaytirishga zamin hozirlaydi.

Adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G‘. Rustamov A. Navoiy tilining grammatik xususiyatlari. –T.: “Fan”, 1964.
2. Doniyorov X., Mirzayev S. So‘z san’ati. –T.: O’zbekiston, 1962. 35-b.
3. Ibragimova F. Badiiy matnda ellipsis va antiellipsis. Filolo.fan.nomzodi.diss. aftoreferati. –T.: 2011. 13-b.
4. Turdaliyeva D. O’zbek xalq maqollarining lingvopoetik xususiyatlari. Filoll.fan.falsafa doktori avtoref. –Qarshi, 2019. –B.10.
5. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. –T.: Fan. 2006. 5-b.
6. Shodmonova G. Abdulla Oripov she’riyatining lingvopoetik xususiyatlari. Fill.fan.falsafa doktori (PhD) diss.avtoref. –Qarshi. 2019. –B.11

SEN MILLAT G‘URURISAN, ONA TILIM

Abdurashidova Surayyo

SAT – 121 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilining rivojlanish tarixi, birligi va sofligi masalasi hamda bugungi kunda ona tilimizning birligi rivojlanishi yo‘lidagi ba’zi bir xil muammolar haqida, bu muammolarning yechimi haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Soflik, millat, forsiy til, Navoiy, kelajak avlod.

Dunyoda inson zoti yaratilibdiki, bir -biri bilan gaplashadi, so‘zlashadi, o‘zaro muomalada bo‘ladi. Bunda tilning o‘rni beqiyos, albatta. Har elning o‘z tiliga munosabati, hurmati va sadoqati nafaqat ota-bobolariga, balki o‘z millati va davlatiga bo‘lgan cheksiz ehtiromining ramzi hisoblanadi. Inson til orqali boshqa tirik jonzotlardan ongli ravishda farq qiladi. Dunyoda tillar ko‘p lekin har bir xalq, har bir millat uchun o‘z tili qadrdon va sevimli chunki shu tilda u bemalol muloqot qiladi o‘z fikr- tuyg‘ularini bemalol ifoda etadi. O‘zbek xalqi qanchalik tarixga ega bo‘lsa, ona tilimiz ham shunchalik uzoq tarixga egadir. Asrlar davomida xalqimiz qanday kunlarni boshidan kechirgan bo‘lsa, tilimiz ham shunday kunlarni boshidan kechirdi. O‘zbek xalqi qadimgi davrlarda yashagan turkiy xalqlarning bo‘g‘ini hisoblangan O‘zbek tiliga davlat tili maqomi 1989-yil 21- oktabrda berilgan. Mening o‘zbek tilim ham tillar ichida o‘z o‘rniga, mavqe’iga ega bo‘lgan eng boy tillardan biridir. Dunyo tillari ichida nufuziga ko‘ra o‘zbek tili 41-o‘rinda turadi. Bu tilga tamal toshini qo‘ygan, ulkan hissa qo‘shgan alloma va mutafakkirlar ijod qilgan. Nafaqat ijod qilgan, balki uni sayqallab,boyitib avlodlarga yetkazib kelishgan. Bu yo‘lda kerak bo‘lsa kurashgan, tilining sofligini, yaxlitligini saqlab qolish uchun ma‘naviy jangga kirishgan, jonlarini fido qilishgan. Navoiy yashagan davrni olaylik bu davrga kelib fors tilining mavqe’i oshib ketdi. Bu til yozma va og’zaki adabiyot tiliga aylanib bordi. Hattoki turk tilida ijod qiluvchi ijodkorlar ham o‘z tillari qolib fors tilida ijod qilishga o‘tib olishdi bu juda achinarli hol edi. O‘zbek tili jar yoqasiga, yo’q bo’lib ketish arafasida turgan edi. Shunda Navoiy hazratlari birinchilardan bo’lib, Ona tili himoyasi uchun uni asrab qolish uchun kurash boshladi. Ma’naviy kurash, ijodiy kurash boshlandi. Navoiy ona tilining himoyasi uchun, uni asrab qolish uchun ijod qildi. Inchinun bu vazifani o‘zbek tilida yaratgan bebaho, o‘lmas asarlari orqali sharaf bilan ado etdilar. Keyingi davrlarda ham tilshunos va adabiyotshunos olimlarimiz tomonidan juda ko‘p islohotlar qilindi. Vatanimiz mustaqilligining 17 yillik bayram arafasida 80 mingdan ortiq so’z va so’z birikmalarini, fan, texnika, san’at, va madaniyat sohalariga oid terminlarni, tarixiy va eskirgan yangi 5 jildli O‘zbek tilining izohli lug‘ati’ nashr etildi. O‘zbek tili rasmiy maqom olganiga 32 yil bo‘libdiki, hali hamon rus tilining bosimidsn qutulolmayapmiz. Qancha qonun -u farmon-u qarorlar chiqmadi deysiz, lekin ayrim sohalarga o‘zbek tilining so‘zi hali hanuz o‘tmayapti. Davlat tilidan to‘g‘ri foydalanish, uning sofligi va me’yorlarini saqlash, muntazam boyitib borish, nutq madaniyatini oshirish har bir millatdoshimizning insoniy

burchidir. Albatta, ayrim shaxslarga 2021-yil 1- apreldan boshlab o‘zbek tilida rasmiy ish yuritish darajasini aniqlash, adabiyot bo‘yicha bilimlarini baholash yoqmasligi mumkin. Ammo bu tilimizni takomillashtirish konsepsiyasi va dasturida o‘z ifodasini topgan. Bu zamon talabi hamdir.

Bir paytlar ustozlar shunday ta’lim berishganki, sinfdagi 25 nafar o‘quvchidan 3- 4 nafarigina ko‘p xató qiladigan o‘quvchilar sanalgan. Maktabdagi ko‘rgazmali qurollardan tortib ustozlar yozuvida xatoliklarni ko‘rmaganmiz, chunku xató yozishlik o‘qituvchining bilimsizligidan dalolat bo’lgan. Shuning uchun shogirdlar ham ularga munosib bo’lishga intilishgan. Hozirchi? Ahvol qanday? Aytish mumkinki ahvol o’ta achinarli holatda. Savodxonlik millatni millat sifatida namoyon qiluvchi muhim etalonlardan biri ekanini yoddan chiqarib qo‘ydik.

Televideniyadagi xatoliklar. Hozirgi kunda davlat kanallari bilan bir qatorda, xususiy kanallar ko‘payib ketdi. Ularda berilayotgan matnlardagi xatoliklar anchagina.

Matbuotda ham xatoliklar mavjud. Davlat nashrlari bilan bir qatorda, xususiy nashrlar judayam ko‘payib ketgan. Istagan gazeta yoki jurnalni olib o‘qing, 5 – 6 tagacha xato topasiz.

Ommaviy-axborot vositalarida shuncha xatoliklar, oddiy muloqotda, insonlardan davlat tilini talab qilish qanday bo‘larkan? Avvalo, xoh xususiy telekanal bo‘lsin, xoh gazeta, jurnal bo‘lsin, xato kamchiliklarni birinchi marta muhokama qilinib, ogohlantirish berish kerak, ikkinchi marta intizomiy jazo, so‘ngra uzil – kesil yopish kerak.

“Til masalasi - jiddiy masala. Demak, uni chinakam ma’ruf kishilarga xos aql-zakovat va yangicha tafakkur bilan hal etish lozim” deydi buyuk adib Xayriddin Saloh. Tilning ahamiyatligi shu qadar buyukki, hech bir taraqqiyot usiz bo’lmaydi, chunki u orqali biz dunyoni taniymiz, tafakkurga ega bo‘lamiz. Bugungi kunda ko‘pgina insonlar ona tilimizni buzib, Ruscha yoki boshqa tillardagi so‘zlarni qo’shib gapirishadi. Bu esa tilga bo‘lgan behurmatlikdir.

“Har birimiz davlat tiliga bo’lgan e’tiborni mustaqillikka bo‘lgan e’tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozim. Bu oliyjanob harakatni barchamiz o‘zimizdan, o‘z oilamizdan va jamoamizdan boshlashimiz, ona tilimizga hurmat, Vatanga mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimiz kerak”. Shavkat Mirziyoyev.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, harakatlarimiz natijasida ona tilimiz mustabid tuzim va undan keyin ham ko‘p yillar davomida kechgani kabi ikkinchi darajali til emas, balki eng faol muloqot vositasiga aylanishi shart. Ulug‘ bobokalonimiz Abdulla Qodiriy aytganidek: “Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur”.

АЛИШЕР НАВОИЙ - ЎЗБЕК ТИЛШУНОСЛИГИНИНГ АСОСЧИСИ СИФАТИДА

Халикова Лола Назаровна СамИСИ
“Иқтисодиёт назарияси” кафедраси и.ф.н, доцент

Кенг жамоатчиликнинг диққат эътиборида буюк мутафаккир Алишер Навоий бадиий сўз ва назм мулкининг султони, бадиий ижодиётининг сермаҳсул ва забардаст соҳиби сифатида гавдаланишига шубҳа йўқ. Аммо унинг забардаст олим, тарих, адабиёт ва тилшунослик каби фанларнинг ҳам моҳир билимдони эканлиги эса жуда кам тилга олинади. Масалан, унинг ўзбек тилшунослиги соҳасида бажарган ишлари ниҳоятда муҳим аҳамият касб этади. У тил илмининг етук қобилиятга эга бўлган олими, ўзбек тилшунослигининг илк тадқиқотчисидир. Олимнинг бутун ижодий фаолиятида ўзбек тилига ва унга бўлган муносабати, эътибори асосий ўринни эгаллайди. Навоий ижоди синчиклаб ўрганилиб қаралса, унинг ўзбек тилининг тараққиёти учун астойдил қайғуриши ва бу йўлдаги тинимсиз курашлари яққол ўз аксини топади. Бу унинг уч йўналишдаги фаолияти билан боғлиқ. Биринчидан, бадиий сўз мулкининг султони сифатида ўзининг бадиий асарларида 26 мингдан ортиқ сўзни тахминан 1,5 миллион марта қўлланган Навоийнинг фавқулотда тил билимининг билимдони эканлигини тан олмасдан ҳеч кимнинг иложи йўқ...

Ўзбек адабий тилини ижтимоий-сиёсий жиҳатдан ҳимоя қилиш, унинг давлат тили даражасидаги мавқеига эга бўлиши соҳасида олиб борган курашлари эса Навоий фаолиятидаги иккинчи йўналишни ташкил этади. Чунки у ўзининг давлат арбоби даражасидаги фаолияти даврида бу соҳада анча самарали натижаларга эришади.

Аммо Навоий ўзбек тилининг равнақи ва амалга кенг қўлланилиши соҳасидаги бу каби ишларини қониқарли деб билмайди. Ўз мақсадининг тўлиқ амалга ошувида энг муҳим ва ўта мураккаб бир муаммони ҳал этиш лозимлигини етук олим сифатида сезади. У ҳам бўлса, эътибордан анча четда қолган ўзбек тилининг илмий жиҳатдан ўрганилиши масаласи эди. Навоий худди ана шу мураккаб ишга қўл урди. Бу эса Навоий ижодий фаолиятининг учинчи йўналишини ташкил этади. Олимнинг 1499 йилда ёзилган “Муҳокамат ул-луғатайн” асари ана шу мақсадни амалга ошириш маҳсули эди. Ушбу асар ўзбек тилшунослигида яратилган биринчи илмий-назарий иш эди. Унда ўзбек тилининг лексик бойлиги, услубияти, атамашунослиги ва баъзи бир фонетик-грамматик соҳалари ихчам ва мазмундор тарзда илмий-назарий жиҳатдан ўрганилган. Шу каби ўзбек тилининг ички ва ташқи имкониятлари таҳлил этилган ҳамда ўзбек тили қиёсий тилшунослигига асос солинган.

Алишер Навоийнинг тил билимдони эканлигини исботловчи далил-“Муҳокамат ул-луғатайн” асаридир. Бу асар ўз замонасида беқиёс шижоат ва жасурлик намунаси бўлган бўлса, кейинги асарлар тилшунослиги учун эса тилларни қиёсий тадқиқ этиш соҳасида беназир. Аммо тилшунослар назаридан четда қолиб кетган, эталон-манба бўлиб ҳисобланади. Асар ҳажми жиҳатдан унчалик катта бўлмаса-да, мазмун-эътибори билан ғоят пухта, мукаммалдир. Бундан муқояса (муҳокама) турк ва сарт тиллари мисолида баён этилган. Тилларни қиёсий ўрганиш бир тил доирасида ва икки ёки ундан ортиқ тиллар доирасида қиёслаш билан шуғулланади.

“Муҳокамат ул-луғатайн”да Навоий турк тилининг лексик қатламини (бир қанча мисоллар асосида) сарт (форс) тили билан муқояса қилгани, ўз фикрларини тасдиқлаш мақсадида кўп ҳолларда туркийда яратилган, тўғрироғи ўз шеърларидан мисоллар келтиради. Шоир бу билан чегараланмасдан, форсийда ҳам туркийдаги маънони англатувчи (ифодаловчи) воситалар йўқлигига ишора қилади.

Сўзга, нутққа, тилга ва умуман тилшуносликка муносабат, аввало, товушдан бошланади. Шунинг учун сўз мулкининг султони Мир Алишер Навоий нафақат сўзга, балки ҳар бир товушга, унинг тўғри талаффузи ва тўғри ёзилиши, урғу, ҳарф ва товуш муносабатига, сўзлардаги оҳангга жиддий эътибор беради. Бу борада буюк товушшунос олим сифатида қатор сабоқлар беради:

Қайси бир котибки, ул сўзга қалам сургай хилоф,

Ул қора юзлук боши бўлсун қалам янглиғ шикоф,

сатрларида айтилган фикрни гўё ҳозирги ёзма саводхонлигимизга ҳазратнинг бундан беш ярим аср бурун берган баҳоси деб тушунсак не ажаб!

“Жадид тилшунослиги” ғоясини “қамаш” мақсадида 1940-йиллардан кейинги дарсликларимизда ўзбек тилида ҳам ҳудди рус тилининг эгизагидек олти (6) унли товуш бор деб ўқитилиб келинди. Бироқ “Муҳокамат ул-луғатайн”да ўзбек тилидаги тўққиз унли товуши изоҳланади. Ҳозирги ўзбек тили эски ўзбек тилининг тадрижий давоми бўлганлиги сабабли бу унлиларнинг барчаси бизнинг нутқимизда сақланиб қолди. Уларни чалкаштириш эса, сўзнинг йўсинини, кўринишини бузадики, бу борада бобомиз шундай демиш:

Сўзки, васфида ҳар намат бўлғай,

Рост бўлса, доғи ғалат бўлғай.0

“Муҳокамат ул-луғатайн”дан сўзлар этимологияси, келиб чиқишининг товуш жараёнларига алоқадорлиги ҳақида ҳам етарли сабоқлар оламиз:

Менгизлари гул-гул, мижжалари хор,

Қобоғлари кенг-кенг, оғизлари тор.

қоп+қоқ қоб+оқ қовоқ.

“Муҳокамат ул-луғатайн”да ўзбек тилида фонетик усул билан сўз ясаш ҳам сермаҳсул эканлиги қайд этилади:

Узорингни очарға қимсанурмен,

Вале эл кўрмагига қизғанурмен.

Одатда урғу сўз маъносининг нозикликларини ифодалашда муҳим ўрин тутади. “Муҳокамат ул-луғатайн”да урғунинг “тажнис” санъатини яратишдаги хизматларига чиройли ишора бор.

Чун нарию ҳурдур отинг бегим,

Санъат ичра дев эрур отинг, бегим,

Ҳар ҳадангиким, улус андин қочар,

Нотавон жоним сари отинг, бегим.

Зеро, Навоийнинг товушшуносликка доир сабоқларини синчиклаб ўрганиш ўзбек тилшунослигининг шу соҳасидаги кемтикларини тўлдирар, деган умиддамиз.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ МЕЖЯЗЫКОВОЙ РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Комилова Мукаррам Кобилжоновна СамИСИ

Преподаватель кафедры“Узбекского языка и литературы”

Аннотация: В этой статье рассматривается теоретическая часть лингвистики перевода, которую составляет лингвистическая теория перевода.

Ключевые слова: лингвистические аспекты, переводческая деятельность, иноязычный оригинал, билингвы, толмачи, тональность, теория непереводимости, переводоведение, переводческая эквивалентность, эквивалентное единство.

В последние годы среди многочисленных сложных проблем, все чаще поднимается вопрос о применении новых информационных технологий на уроках.

Важное место занимает изучение лингвистических аспектов межъязыковой речевой деятельности, которую называют "переводом" или "переводческой деятельностью", которая способствует не только овладению системой лингвистических знаний и закономерностей функционирования изучаемого иностранного языка, его разновидностей, развитию умений работы с компьютером, получения, анализа и переработки информации из глобальной сети, но также и развитию личности обучаемого, раскрытию его творческих

способностей, самостоятельности мышления. Что такое перевод? – это такой вид языкового посредничества, который целиком ориентирован на иноязычный оригинал.

Изначально перевод выполнял важнейшую социальную функцию, делая возможным межъязыковое общение людей. В истории человечества образовались группы людей "билингвы", их язык отличались друг от друга, они помогали общению между "разноязычными" коллективами.» Толмачи» – так называли устных переводчиков. Они переводили различные тексты официального, религиозного и делового характера.

Широкий доступ к культурным достижениям других народов открыло людям распространение письменных переводов, и также это сделало возможным взаимодействие и взаимообогащение литератур и культур.

Вопрос о степени близости перевода к оригиналу, широко обсуждали еще переводчики античного мира. В ранних переводах Библии или других произведений, считавшихся священными или образцовыми, преобладало стремление буквального копирования оригинала, приводившее порой к неясности или даже полной непонятности перевода. В итоге, позднее, некоторые переводчики пытались теоретически обосновать право переводчика на большую свободу в отношении оригинала, необходимость воспроизводить не букву, а смысл или даже общее впечатление, "очарование" оригинала. Начало теоретических споров нашего времени о допустимости буквального или вольного перевода, о необходимости сохранить в переводе то же воздействие на читателя, которым обладает оригинал можно найти уже в этих первых высказываниях о целях, которые должен преследовать переводчик.

Этьенн Доле (1509-1546) французский гуманист, поэт и переводчик считал, что хороший переводчик должен соблюдать следующие пять основных принципов перевода:

1) понимать содержание переводимого текста и намерение автора, которого он переводит, в совершенстве;

2) владеть языком, с которого переводит, и столь же превосходно знать язык, на который переводит, в совершенстве;

3) избегать тенденции переводить слово в слово, ибо это исказило бы содержание оригинала и погубило бы красоту его формы;

4) в переводе использовать общеупотребительные формы речи;

5) воспроизводить общее впечатление, производимое оригиналом в соответствующей "тональности» правильно выбирая и располагая слова".

В. Гумбольдт в письме четко выразил отношение языковедов к переводу к известному немецкому писателю и переводчику Августу Шлегелю: "Всякий перевод представляется мне безусловно попыткой разрешить невыполнимую

задачу. Ибо каждый переводчик неизбежно должен разбиться об один из двух подводных камней, слишком точно придерживаясь либо своего подлинника за счет вкуса и языка собственного народа, либо своеобразия собственного народа за счет своего подлинника". Позднее подобные взгляды, получили название "теория непереводимости", и разделялись многими лингвистами, в том числе и теми, которые сами много и успешно выступали в роли переводчиков. Разумеется "теория непереводимости" не оказала, какого-либо влияния на переводческую практику, так как переводчики продолжали выполнять "невыполнимую" задачу. Эта теория была одним из препятствий на пути лингвистического анализа перевода. В современномпереводоведении ведущее место принадлежит лингвистическому переводоведению (лингвистике перевода), изучающему перевод как лингвистическое явление.

Основными задачами, теория перевода, т.е. переводоведение, ставит перед собой следующие:

-описать и раскрыть общелингвистические основы перевода, т.е. указать, какие особенности языковых систем и закономерности функционирования языков лежат в основе переводческого процесса, делают этот процесс возможным и определяют его характер и границы;

-указать его отличие от других видов языкового посредничества;

разработать основы классификации видов переводческой деятельности, определить перевод как объект лингвистического исследования;

-раскрыть сущность переводческой эквивалентности как основы коммуникативной равноценности текстов оригинала и перевода;

-разработать общие принципы и особенности построения частных и специальных теорий перевода для различных комбинаций языков;

-разработать общие принципы научного описания процесса перевода как действий переводчика по преобразованию текста оригинала в текст перевода;

-раскрыть воздействие на процесс перевода прагматических и социолингвистических факторов;

-определить понятие "норма перевода" и разработать принципы оценки качества перевода.

Кроме теоретических разделов, лингвистика перевода включает разработку ряда прикладных аспектов, связанных с методикой обучения переводу, составлением и использованием всевозможных справочников и словарей, методикой оценки и редактирования переводов. Всех их объединяет с переводом их коммуникативная вторичность: это всегда та или иная репрезентация оригинала на другом языке.

Литература:

1. Джон Лайонз - Введение в теоретическую лингвистику.- «Прогресс»,1978.
2. В.В.Гриншкун. - М.: Педагогика, 2002.
3. Т.Н.Носкова. - СПб.: СПбГУКиТ, 2004.
4. А.А.Волков. – Грамматология, Издательство Московского университета, 1982.

ДАВЛАТ ТИЛИ ТАЪЛИМИ: ТЕСТОЛОГИЯДА МУАММО ВА ЕЧИМЛАРНИНГ ФУНКЦИОНАЛ-ТАШКИЛИЙ МАСАЛАЛАРИ

Бердиев Х.Х.
филология фанлари бўйича фалсафа доктори

Аннотация: ушбу илмий мақолада тестология соҳасидаги муаммолар ва уларнинг ечимлари билан боғлиқ масалалар тавсифий характерда баён этилади. Хусусан, бу соҳада мамлакатимиз услубчи олимлари, педагог ходимлари томонидан амалга оширилиб келинаётган ишлар, бевосита жараёнда кузатилаётган мавжуд ҳолатга доир фикрлар билдирилган. Муаммоларнинг ечимига алоқадор масалалар кўрсатиб берилишига ҳаракат қилинган.

Калит сўзлар: тестология, таълим, параметрлар, ечим, тест-синов, талаблар.

Ватанимиз тараққиётининг асосий пойдевори таълим ва тарбия бўлиб, бу борадаги фаолиятимизни ҳар томонлама пухта, аниқ режалар асосида тизимли ташкил этишимиз лозим. Таълим ўқувчининг ёш имкониятларини ҳисобга олади, лекин унга эришилган ривожланиш даражаси билан қаноатланишига йўл қўймайди. Шу маънода таълимнинг вазифаси тараққиётнинг эришилган даражасидан ўзиб кетишдир. Таълим натижалари ва уни баҳолашга қўйилган талаблар ва стратегиялар, таълим жараёнини уюштиришда манбалардан (ресурслардан) фойдаланиш ва ўқувчиларнинг фанга бўлган қизиқиши (мотивация) асослари кўрсатилган. Албатта, мустақиллик йилларида таълим соҳаси тубдан янгиланиб, ўқитишнинг илғор усул ва методларини амалда қўллаш бўйича улкан тажриба тўпланди. Таълим жараёнига замонавий ахборот-коммуникация технологиялари, ўқув-лаборатория анжомлари, замонавий ўқув-методик база татбиқ этилмоқда.

Ҳозирги кунда тестология ва педагогик ўлчовлар борасида илмий, илмий-услубий, ташкилий ишларни олиб бориш, натижаларини амалиётга татбиқ этиш долзарб вазифалардан биридир. Шу маънода, педагогик ўлчовлар, яъни тест-синов топшириқларнинг амалиётга татбиқ этилиши, тест топшириқларига

қўйиладиган умумий талаблар ва уларнинг классификацияси бўйича илмий-услубий маълумотлар юзасидан айрим ишлар яратилган бўлса-да, бу йўналишда амалга ошириладиган масалалар кўлами бир қадар кенг. Шунинг учун ҳам, мазкур конференция йиғилиши доирасида қатор мавзулар муҳокамаси кўзда тутилган.

Бу жараёнда умумтаълим мактаб, ўрта махсус-касб-ҳунар тизимидаги педагоглар ва олий таълим тизимидаги профессор-ўқитувчилар ҳамда тест соҳасидаги фан мутахассислари (экспертлар) ўз амалиётида ҳамкорликда илмий-тадқиқот, эксперимантал кузатувлар олиб бормоғи, амалий кўникмалар асосида тавсиялар ишлаб чиқмоғи лозим бўлади.

Янги тест-синов турларини ишлаб чиқиш ва уларнинг сифатини баҳолаш, статистик жиҳатдан ўрганиш ривожланган хорижий давлатлар таълим муассасаларида яхши йўлга қўйилган. Мамлакатимизда тестларнинг янги турларини ишлаб чиқиш, педагогик ўлчов назарияси илмий методларини ўрганиш долзарб вазифалардан бири бўлиб қолмоқда ҳамда соҳа мутахассислари томонидан бир қатор йўналишларда илмий, илмий-услубий, статистик тадқиқотлар олиб борилмоқда. Чунончи, З.З.Мирвалиевнинг “Педагогик ўлчовларда тест топшириқ турлари”, проф.М.Ш.Зокирова ва Н.Н.Эрматовалар ҳаммуаллифлигида нашр этилган “Тест тузиш методикаси ва экспертизаси”, ф.-м. ф.н. А.А.Баратовнинг “Педагогик ўлчовлар назарияси асослари” номли услубий қўлланмалари фикримизнинг далилидир.

Ушбу қўлланмаларда тестологиянинг муҳим жиҳатларига оид маълумотлар ва амалий масалалар ёритиб берилган. Шу билан бир қаторда, илмий манбаларда, тестология психологиянинг етакчи йўналишларидан бири сифатида талқин қилинишини ҳам айтиб ўтмоқ жоиз [1, http].

Тест материаллари ишлаб чиқишда тестология ўлчов жараёнлари етарлича стандартлаштирилиши ва тест топшириқ шаклларининг қиёсий характеристикаси, мунозара учун амалий топшириқ ва назарий саволлар методикасининг самарали усулларини ишлаб чиқиш илмий-амалий аҳамиятга эга. Бунда қуйидаги масалалар муҳим:

-Танлов тест топшириқларига мисоллар ва уларнинг таҳлили;

- Жавоблари тузиладиган топшириқлар;

- Топшириқни бажаришнинг баҳолаш мезонлари;

- Топшириқларда мувофиқликни таминлаш;

- Тўғри кетма-кетликни тузиш топшириқлари;

- Тест топшириқ шаклларининг қиёсий характеристикаси

тестологиянинг бу каби методологик масалалари асоси юзасидан хорижий тажрибага доир илмий-назарий, амалий аҳамиятга эга бўлган адабиётларга мурожаат этилиш, хусусан, Колумбия, Москва, Санкт-Тетербург ва

мамлакатимиз олимларининг соҳага оид тадқиқот ҳамда тавсиялари асосида илмий-методологик муаммоларни ҳал этиш алоҳида аҳамият касб этади.

Яна бир муҳим масала шундаки, тест тузиш методикаси ва тест мазмуни сифатини экспертиза қилиш йўналишлари, тест материалларини тайёрлаш методикасининг мазмуни, тест топшириқлари турлари, уларни тузиш методикаси, тест материалларининг сифатини баҳолаш билан боғлиқ масала ҳам долзарб ҳисобланади.

Тест топшириқлари, тестология асосларига кўра, амалда қўлланилишидан аввал бир неча босқичда мутахассислар томонидан экспертиза қилиниши, апробациядан (ҳар бир янгидан тузилган тест топшириғи махсус синовдан) ўтказилиб, натижалари асосида тест топшириқларининг сифати ташхисланиши лозим бўлади.

Жаҳон таълимида муҳим ўрин тутишини АҚШ, Нидерландия, Германия, Туркия, Япония ва бошқа кўпгина мамлакатларда кенг ривож топганлигида ҳам кўришимиз мумкин.

- ўқувчилар, талабалар билимини баҳолашда тестлардан фойдаланадиган педагогларга, тест тузувчи фан мутахассисларига (экспертларга) ҳамда педагогик ўлчовлар бўйича илмий изланиш олиб бораётган тадқиқотчиларга яқиндан ёрдам берадиган илмий-назарий базани шакллантириш;

- миқдорий ҳамда сифат жиҳатидан баҳолаш, улар орасидаги боғлиқлик, объектнинг баҳоланадиган тавсифи сифатида қабул қилиниши билан боғлиқ жиҳатлар, анъанавий баҳолаш каби масалаларнинг илмий-амалий аниқ механизмларини ишлаб чиқиш, таълим тизимига кенг жорий этилишининг услубий таъминотини яратиш.

Ҳозирги пайтда таълимнинг қуйи босқичларида тест ва баҳолаш даражаларининг муайян шаклларидан фойдаланилмоқда. Жумладан, ўқувчиларнинг аввал ўрганган материални танишини текшириш, яъни эсда қолганларни айтиб беришларсиз қайта такрор тиклашни талаб эиш жараёнига йўналтирувчи; ташқи белгиларсиз эсда қолганлар бўйича ўзлаштирилган маълумотларни қайта айтиб бериш ва шулар асосида намунавий топшириқлар ечиш кўникмаларини текширишга йўналтирувчи; Ижодий фикрлаш кўникмаларини текшириш; маълум бўлган қоидаларни қайта тиклаш ва уни изланаётган натижа учун қўллаш талаб этилишига йўналтирувчи тестлар ккабилардан фойдаланилмоқда.

Умуман, тестларни ишлаб чиқишда ва синалувчиларнинг шкалали кўрсаткичларига ўтишда, талабаларнинг балларини интервал шкалага айлантириш имконини берувчи, синалувчиларнинг параметрларини ва тест топшириқларининг қийинчиликларини баҳолаш учун мўлжалланган ягона

бўлган замонавий тест назарияси усулларини қўллаш ҳозирги замонавий таълим сифатини ошириш билан чамбарчас боғликдир.

Адабиётлар:

1. Носс И. Н. Психодиагностика: учебник для академического бакалавриата / И. Н. Носс. – 2-е изд., перераб. и доп. – Москва : Издательство Юрайт, 2019. – 500 с. (Бакалавр. Академический курс). – ISBN 978-5-9916-6464-6. –
2. Текст : электронный // ЭБС Юрайт [сайт]. – URL: http://biblio-online.ru/bcode/431829 (сана: 07.07.2020).

ПОЯВЛЕНИЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА КАК ГОСУДАРСТВЕННОГО ЯЗЫКА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Убайдуллаева Сарафроз студенка 4-курса
факультета "Русского языка и литературы" ДГПИ

Аннотация: в статье анализируется проведение языковой политики в многонациональном Узбекистане. Анализ данной проблемы указывает на то, что руководство Республики Узбекистан проводит поэтапное выполнение Закона «О Государственном языке», предоставляя равные права и возможности всем народам республики. Ярким подтверждением позитивных процессов в этой сфере стало увеличение сети школ и средств массовой информации на различных языках, а также создание национальных культурных центров, что способствует совершенствованию и гармонизации межнациональных отношений, укреплению стабильности в республике.

Ключевые слова: языковая политика, Узбекистан, права, этнические меньшинства, диаспоры, национальные культурные центры.

Провозглашение 31 августа 1991 г. государственной независимости Республикой Узбекистан послужило началом новой эры в жизни не только узбекского народа, но и всех наций и народностей, проживающих в Узбекистане. Самое главное достижение этого периода - это межнациональное и межконфессиональное согласие, которое послужило залогом мира и стабильности, повышения эффективности проведении реформ. По пути к достижению межнационального согласия народ Узбекистана прошел нелегкий путь. Толерантная этнополитика с первых дней обретения независимости была направлена на отказ от старых догм и внедрение в сознание людей идей и принципов национальной независимости и духовного обновления общества. Данные принципы были заложены в Конституцию Республики Узбекистан и легли в основу государственной национальной политики, проводимой Первым

Президентом Узбекистана И.А. Каримовым, что явилось гарантом стабильности в межнациональных отношениях.

Для улучшения межличностных отношений, адаптации в полиэтнической среде существенное значение имело и имеет овладение лицами всех национальностей, проживающих в той или иной стране, государственным языком. И решение этой сложной и долговременной задачи не должно сопровождаться нагнетанием межнационального противостояния. «И разве не прекрасно, - отмечал Первый Президент И.А. Каримов, -если представители русской национальности будут знать узбекский язык, а узбеки -русский, а наша молодежь к тому же будет учить ещё и третий язык» [1].

Снятию напряженности в жизни народов Узбекистана способствовало поэтапное выполнение Закона «О Государственном языке», принятого в 1989г., в котором обеспечивалось уважительное отношение к языкам всех наций и народностей, проживающих в Узбекистане, что создавало условия для их развития. Весьма положительным было то, что в претворении в жизнь языковой программы государственная власть не проявляла спешки, учитывая многонациональность народа Узбекистана, где бок о бок проживали и проживают представители 130 этносов. Для достижения этой важной цели на государственном уровне была принята специальная программа по расширению сферы влияния узбекского языка. В соответствии с ней была создана широкая сеть бесплатных курсов по изучению государственного языка, усилилось внимание к его преподаванию в учебных заведениях, увеличились публикации учебников, словарей, разнообразной литературы на узбекском языке.

В языковой политике строго соблюдался и соблюдается принцип равноправия представителей всех наций и народностей страны, закрепленный в Конституции Республики Узбекистан. Большое значение для межнационального согласия в стране имел также Закон Республики Узбекистан «О государственном языке» (в новой редакции), утвержденный Олий Мажлисом 21 декабря 1995 г., в котором, наряду с государственным языком значительно расширилось право использования русского и других языков национальных меньшинств во всех сферах жизни. «В Республике Узбекистан, - указано в статье 24 данного закона, - запрещается пренебрежительное или враждебное отношение к государственному или другим языкам. Лица, препятствующие осуществлению прав граждан на свободный выбор языка в общении, воспитании и обучении, несут ответственность в соответствии с законодательством» [2]. Именно такое широкомасштабное осуществление закона позволяло решать языковую проблему, не ущемляя интересов других национальностей. Адекватно реагируя на проводимую в стране языковую политику многие русские и русскоязычные меньшинства, оставшиеся жить в

республике, стали отдавать своих детей в детские сады и в начальные школы с узбекским языком обучения. Важно констатировать, что объявление узбекского языка государственным не стало негативным фактором влияния на развитие других языков. Важным показателем эффективности этнической и языковой политики Республики Узбекистан, направленным на межнациональное согласие в обществе, стало функционирование системы образования на 7 языках. Всего в республике функционирует 8867 школ с обучением на узбекском языке, 383 - на каракалпакском, 739 - на русском, 505 – на казахском, 267 - на таджикском, 62 - на кыргызском, 50 - на туркменском [3]. Во всех вузах Узбекистана обучение осуществляется на узбекском и русском языках, а в Республике Каракалпакстан - на каракалпакском, узбекском и русском языках. Кроме того, во многих вузах есть отделения и группы с обучением на языках коренных этносов Узбекистана: на казахском, таджикском, туркменском [4]. В стране также уделяется серьезное внимание изучению иностранных языков. Функционируют лицеи с углубленным изучением английского, немецкого, корейского, китайского, японского, арабского, иранского языка и иврита.

Весомый вклад в формирование многоязычия вносит развитие сети средств массовой информации на 12 языках. Так, из общего количества печатных изданий, выпускавшихся во второй половине 1990-х годов газет и журналов 238 газет и 31 журнал издавались на узбекском языке; 52 газеты и 15 журналов - на русском языке; 44 газеты и 15 журналов на русском и узбекском языках; 20 газет и 7 журналов - на каракалпакском языке; 15 газет - на таджикском языке; 8 газет - на казахском языке и т. д. Осуществлялись также теле и радио передачи на узбекском, русском, казахском, таджикском, киргизском, туркменском и других языках. В современной общественно-политической и культурной жизни республики немаловажное место занимает русский язык, который являясь одним из 10 крупнейших мировых языков, воспринимается в Узбекистане как язык-посредник в полиэтничной среде и как язык – носитель научно-технической информации, поэтому ему уделяется особое внимание. Таким образом, анализ данной проблемы указывает на то, что руководство Республики Узбекистан уделяет приоритетное значение в решении вопросов этнической политики лингвистической сфере, предоставляя равные права и возможности всем народам республики.

Ярким подтверждением позитивных процессов в этой сфере стало увеличение сети школ и средств массовой информации на различных языка, а также создание национальных культурных центров, что способствует совершенствованию и гармонизации межнациональных отношений, укреплению стабильности в республике.

Литература:

1. Каримов И.А. Узбекистан на пороге достижения независимости. Ташкент, 2011. С. 48.

2. Муртазаева Р.Х. Узбекистан - уникальный край межнационального согласия и толерантности // Узбекистан - страна мира и согласия: Сб. материалов конференции. Ташкент: Узбекистан, 2017. С. 343.

3. Толерантность - основа демократии в Республике Узбекистан. [Электронный ресурс]. Режим доступа: http://ovnews.com/2017/07/23/толерантность-основа-демократии-в/ (дата обращения: 25.09.2018).

4. Назаров Р.Р. Этническая политика в полиэтническом социуме (на примере Узбекистана). [Электронный ресурс] http://elar.urfu.rU/bitstream/10995/32345/1/klo_2015_198.pdf/ (дата обращения: 25.09.2018).

БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИ АРТ-ПЕДАГОГИКА АСОСИДА КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ НАЗАРИЙ МАСАЛАЛАРИ

Ў.Р.Зубайдуллаев, СамИСИ,
“Жисмоний маданият” кафедраси ўқитувчиси

Аннотация: Мақолада бўлажак ўқитувчиларни арт-педагогика асосида касбий фаолиятга тайёрлашнинг назарий масалалари, бу борада аждодлар меросидан кенг қамровли фойдаланиш масалалари келтирилган.

Калит сўзлар: Авесто зардўштийлик динининг муқаддас китоби, арт-педагогика, таълим, тарбия, касб¬-ҳунар, педагог.

Мамлакатимизда ижтимоий-иқтисодий ривожланиш билан бир қаторда бугунги кунда таълим тизимининг ривожланиб бориши замон талабига мос таълим-тарбияга қаратилгандир. Педагогларнинг ўз устида ишлаши, тинмай изланиш олиб бориши ҳамда ўқув-тарбия жараёнини замон талаблари даражасида, илмий асосда ташкил этиш учун зарурий шароитларни яратиб бериш билан бир қаторда, ижтимоий тажрибаларга асосан иш олиб бориш лозимдир.

Педагоглик касби муҳим ижтимоий аҳамият касб этади. Зеро, педагог ёш қалблар камолотининг меъморидир. Бугун у болаларни ғоявий – сиёсий жиҳатдан чиниқтириб, табиат, жамият, тафаккур тараққиёти, қонуниятларини ўргатар экан, аввало, у ёш авлодни келажак меҳнат фаолиятига тайёрлаши, касб – ҳунар эгаллашларига кўмаклашиши ва жамият учун муҳим бўлган ижтимоий – иқтисодий вазифани ҳал этишга чоғланмоғи даркор. Ана шу масъулият ўқитувчидан ўз касбининг моҳир устаси бўлишни, ўқувчиларга тарбиявий

таъсир кўрсатиб, уларнинг қизиқиши, қобилияти, истеъдоди, эътиқоди ва амалий кўникмаларини ҳар томонлама ривожлантиришнинг оптимал йўлларини излаб топадиган касб эгаси бўлишни талаб этади. Бунинг учун педагогик маҳорат ўқитувчидан доимо касбий маҳорати устида изланиш учун, унга турли шарт – шароитлар яратиши, керакли моддий ва илмий – методик ёрдам кўрсатиши ҳамда ўқитувчининг ижодий ташаббускорлигини оширишига кўмаклашади.

Ҳозирги замон касб-ҳунар таълими тизими инсоният жамиятининг узоқ ўтмиш тарихида тўплаган тажрибаси, олимлар, мутафаккирлар, педагоглар, ишлаб чиқаришнинг турли соҳаларидаги меҳнатига асосланган. Келажак ва ҳозирги замон касбий таълимини ривожлантириш учун ўтмишдан нафақат бизгача етиб келган, балки вақт синовидан ўтмаганларни ҳам билиш зарур бўлади. Ўқитиш ва тарбиялашнинг қадимги моделларини билмаслик қилинган нарсаларни қайтадан “кашф қилиш”га, хатоларни такрорлашга олиб келиши мумкин.

Бизга маълумки, Авесто зардўштийлик динининг муқаддас китоби бўлиб, унинг илк саҳифалари Зардўшт томонидан 548-529 йиллар орасида Амударё соҳилларида яратилган. Бу китоб 12 минг ҳўкиз терисига битилган. Унда оламдаги барча – диний, дунёвий, табиий фанлар бўйича маълумотлар мавжуд. Авестода шундай ёзувлар ёзилган: “....Меҳнат қилмайдиган одам! Сен ҳақиқатдан ҳам тиланчилар қаторида, ёт эшикларга таъзим қилиб, абадул-абад бош эгиб туражаксан! Ҳақиқатдан ҳам сенинг ёнингдан турли хил зироатларни олиб ўтадилар, бу ноз-неъматларнинг барчаси меҳнат қилаётган, тўқ ва фаровон яшаётган хонадонга насиб қилади. Абадул-абад шундай бўлажак!”

Қуръони Каримда илмга катта эътибор берилган. Бу муқаддас китобда илм олиш ҳар бир инсон учун фарзлиги, илм ўрганишдан мақсад мансаб эмас, аввал ўқиган илмига ўзи амал қилиб, сўнг халқ ва Ватан олдидаги бурчни адо этишдир.

Имом ал-Бухорий “Ал-адаб ал-муфрад” (“Адаб дурдоналари”) асарида Абдуллоҳ ибн Аббосдан ривоят қилади: Расулуллоҳ “Кишиларга илм ўргатинглар, уларга қийин эмас, енгил йўлни кўрсатинглар, қачон жаҳлингиз чиқса, жим туришга ўрганинг”, - дедилар.

Марказий Осиёда меҳнат тарбияси ва мутахассис кадрлар тайёрлашнинг фундаментал асослари VIII-XIII асрларданоқ яратилган эди.

Шарқ мутафаккирлари ўз асарларида ёшларнинг касб-ҳунар таълими ва тарбиясига жуда катта эътибор берганлар. Улар маънавий баркамолликка инсон ўз меҳнати билан эришиши мумкинлигини ҳаётда исботлаганлар. Шунинг учун ҳам меҳнат уларнинг асарларида инсон ҳаётининг моддий ва ахлоқий негизи, инсон бахтининг манбаси деб ҳисобланган.

Шарқ мутафаккирларининг асарларида касб-ҳунар инсон бахтининг манбаси сифатида қаралади. Касб-ҳунарсиз инсонлар ҳақида Кайковус шундай дейди: “Ёдингда сақла, ўғлим, бирор нарсага қодир бўлмаган инсон, доимо фойдасиздир ва у ҳеч кимга ёрдам бера олмайди. У бамисоли пояга эга, лекин соя бермайдиган тиканакдир. На ўзига, на бошқаларга фойда бермаган касб-ҳунарсиз одам ҳам худди ана шундайдир. Инсоннинг насл ва насаби, келиб чиқиши қанчалик баланд бўлмасин, агар у касб-ҳунарга эга бўлмаса, одамлар томонидан иззат ва ҳурматда бўлмайди. Агар унда олижаноблик ва бирор-бир нарсага қодирлик ҳам бўлмаса, бу янада ёмонроқдир. Чунки буюклик насл-насабининг гўзаллиги ва олижаноблигида эмас, балки ақл ва маҳоратдадир. Агар сен ота-онанга мос бўлмасанг, фақат улар берган нарсалар билан мағрурланма. Агар сен олийжаноблик дурдоналарига ва маҳоратга эга инсон билан учрашиб қолсанг, унга қаттиқ чирмашиб ол, чунки бундай инсонлар бошқаларнинг қийинчиликларини енгиллатиш қобилиятига эгадирлар”.

Абу Наср Форобий таълим фақат сўз ва ўрганиш билан, тарбия эса, амалий иш, тажриба билан амалга оширилишини айтади ва тарбияни ҳар бир халқ, миллатнинг амалий малакаларидан иборат бўлган иш ҳаракат, касб-ҳунарга ўрганишдан иборат деб ҳисоблайди.

Ибн Сино ўқитувчи болаларга таълим беришга киришишдан аввал, уларнинг хулқ-атворини ўрганиши ва билимларини текшириб кўриши ҳам лозим. Аввало, у талабанинг нимага моил ва қодир эканлигини текшириб кўриши, сўнгра унга ҳунар ёки илм турини тавсия этиши керак, дейди.

Амир Темурнинг Темур тузуклари асарида “Салтанат ишларини муросаю мадора, мурувват ва сабр-тоқат билан юргиздим. Тажрибамдан кўрилганки, ишбилармон одам, мард ва шижоат соҳиби, азми (қатъий) тадбиркор ва сергак бир киши, минг минглаб тадбирсиз, соғлом кишилардан яхшидир”, - дейилади.

Алишер Навоий болани камолга етказишда касб-ҳунар ўргатишнинг аҳамияти ҳақида кўплаб асарларида намуналар билан изоҳлайди ва ўз даврининг ёшларига “Қуёшлиқ истасанг, касби камол эт, Камол ар касб этарсен, бемалол эт” дейдилар.

Саъдий Шерозий “Гулистон” асарида: “...Икки тоифа одам беҳуда ишлаб, беҳуда ҳаракат қилган бўлади: бири мол-мулк йиғиб, фойдаланмаган, иккинчиси эса илм олиб, амал қилмаган одам.”, -дея:
Ҳарчанд ўқибсан, билимдонсан,
Агар амал қилмадинг, нодонсан.

Саъдий ўз асарларида меҳнат тарбиясига катта эътибор беради. Ҳар бир ёш авлод оиласидаги аҳволидан қатъий назар, ҳунар ўрганиши кераклигини айтади. “Гулистон” асарида Саъдий бир отанинг ўз ўғлига ҳунар ўрганиш кераклигини уқтирганини баён этади. Ота дейди: “Азиз ўғлонларим, ҳунар

ўрганинглар, ... ҳунар қайнар булоқ, туганмас давлатдир, агар ҳунарманд молидан маҳрум бўлса, қайғуси йўқдир, чунки ҳунарнинг ўзи давлатдир. Ҳунарманд қаерга борса қадрланади ва уйнинг тўридан жой олади. Ҳунарсиз одам эса ҳамиша машаққат чекади, ўзгалар қўлига қарайди".

Биламизки, агар касб тўғри танланган бўлса, инсон учун меҳнат қувонч, ижодий илҳом манбаига айланади, бу эса шахс учун ҳам, жамият учун ҳам фойдалидир.

Таълим-тарбия жараёнларини илмий асосларда ташкил этиш, ўқувчилар фаоллигини таъминлаш ва фаолиятини мувофиқлаштириш асосида педагогик жараёнларнинг сифат ва самарадорлигини таъминлашда замонавий ёндашувларга асосланадиган, юксак ахлоқий сифатларга эга бўлган, ўзини-ўзи ва ўз фаолиятини ўзи таҳлил қиладиган ва объектив баҳолай оладиган, бой фалсафий ва маънавий дунёқарашга, психологик-педагогик ва ташкилий-технологик салоҳиятга эга бўлган, шунингдек, ахборотлар тўплаш, таҳлил қилиш, объектив баҳолаш, қайта ишлаш ва ахборотлар алмашиниш, педагогик жараёнларда вужудга келган муаммоли вазиятларда таълим олувчилар фаоллигини таъминлаш ва фаолиятини мувофиқлаштириш, педагогик жараёнлар самарадорлигига ва ўқувчилар фаоллигига салбий таъсир кўрсатувчи омилларни олдиндан аниқлаш асосида таълим-тарбия жараёни самарадорлигини олдиндан кўриш кўникмаларига эга бўлган ҳамда таълим-тарбия жараёни субъектлари фаолиятини илмий асосда ташкил этиш ва бошқариш, мувофиқлаштириш, фаоллигини таъминлаш йўналишида зарурий билим, кўникма ва малакаларга эга бўлган педагогни компетентли дейишимиз мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Олимхон Исохон ўғли, "Одаблар дурдонаси" Самарқанд, "Имом Бухорий халқаро маркази", 2018й.
2. м.т.Миҳридинова. Касб таълими методикаси. Маърузалар матни. Тошкент – 2010
3. http://art-psychology.org/

ЯЗЫК КАК СРЕДСТВО КОММУНИКАЦИИ В МЕЖДУНАРОДНОМ ОБЩЕНИИ

Баракаева Д.Х.

ст. преподаватель Сам.ИСИ

Аннотация: Язык не только как средство общения, но и как общественное достояние и духовное богатство.

Ключевые слова: язык, мысли, общество, образованность, познание, коммуникация.

Язык - это исторически сформировавшаяся система содержательных форм, с ее помощью люди могут превращать свои мысли в некое общественное достояние и даже в духовное богатство общества.

Понятие «общение» может быть намного обширнее, глубже. Это становится ясно, если заглянуть в прошлое. Образованные люди, начиная с шестнадцатого века, общались на столь высоком уровне, на котором сегодня общаться просто не дано. Язык служил средством общения, но не только - он был средством познания, настоящим искусством. Сегодня язык общения на достаточно низком, ограниченном уровне. Главная цель речевой коммуникации – обмен информацией различного рода. Очевидно, что общение и обмен информацией между людьми осуществляются не только с помощью языка. С древнейших времен в человеческом обществе использовались дополнительные средства общения и передачи информации, многие из которых существуют до сих пор. Упрощенно можно сказать, что язык – это система знаков, отношения между которыми образуют упорядоченную структуру. В этом смысле говорят о системе русского, английского или какого-либо другого языка. Универсальными языковыми единицами являются звуки, морфемы (корни, суффиксы и т. д.), слова, словосочетания, предложения. В каждом языке существуют правила, нормы употребления тех или иных единиц. Язык – это система фонетических, лексических, грамматических единиц, являющаяся средством общения людей и выражения ими своих мыслей, чувств, желаний, намерений. К основным функциям языка относятся:

а) конструктивная (формирование мыслей);

б) коммуникативная (функция обмена информацией);

в) эмотивная (выражение отношения говорящего к предмету речи и непосредственная эмоциональная реакция на ситуацию);

г) воздействие на адресата (делового партнера).

Язык реализуется в речи и только через нее выполняет свое коммуникативное предназначение. Речь – это внешнее проявление языка, это последовательность единиц языка, организованная и структурированная по его законам и в соответствии с потребностями выражаемой информации. В отличие от языка речь можно оценивать как хорошую или плохую, ясную или непонятную, экспресивную или невыразительную и т. д. Связь истории языка с историей общества -аксиома современной лингвистики. Раз язык существует только в обществе, он не может не зависеть от общества. При этом неверно понимать такую зависимость как жесткую обу87словленность изменений в языке общественными факторами. В действительности процесс развития

общества стимулирует развитие языка: ускоряет или тормозит темпы языковых изменений (механизм которых обусловлен внутренними, присущими языку закономерностями), способствует перестройке некоторых участков языковой системы, их обогащению новыми элементами и т. п. В качестве собственно социальных факторов, влияющих на развитие языка, обычно рассматривают такие: изменение круга носителей языка, распространение просвещения, развитие науки, перемещение народных масс, создание новой государственности, изменение форм законодательства и делопроизводства и др. Воздействие этих факторов на язык различно и по форме, и по силе. Речевая деятельность состоит из нескольких последовательных фаз: ориентировки, планирования, реализации, контроля или реагирования. Началом речевого высказывания служит речевая ситуация, т. е. стечение обстоятельств, побуждающих человека к действию: ответить на вопрос, приветствие, позвонить по телефону. Речевая ситуация диктует правила ведения разговора и определяет формы его выражения. Например, на приеме у доктора, на зачете, на семинаре, в разговоре с другом или с руководителем используются разные конструкции и модели речевого поведения. В реализации речевого действия выделяются этапы: – подготовка, когда происходит осознание целей, мотивов, потребностей и осуществляется прогноз результатов;

БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИ АРТ-ПЕДАГОГИКА АСОСИДА КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ НАЗАРИЙ МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ

Ў.Р.Зубайдуллаев, СамИСИ,
“Жисмоний маданият” кафедраси ўқитувчиси

Аннотация: Мақолада бўлажак ўқитувчиларни арт-педагогика асосида касбий фаолиятга тайёрлашнинг назарий методологик асослари, бундан тарбия жараёнида кенг қамровли фойдаланиш масалалари келтирилган.

Калит сўз ва иборалар: Авесто зардўштийлик дининг муқаддас китоби, арт-педагогика, таълим, тарбия, касб-ҳунар, педагог

Касб - кишининг меҳнат фаолияти, доимий машғулоти тури; муайян иш турини малакали бажаришга имкон берадиган билим, маҳорат, тажрибани талаб этади. Касблар ичида меҳнат фаолиятининг энг тор соҳаси билан ажралиб турадиган ихтисослар бор (мас, врачлик касбида хирург, офтальмолог, дерматолог ва б.). Касблар одатда, шахснинг асосий тирикчилик манбаи ҳисобланади.

Касб махсус тайёргарлик ёки махсус таълим жараёнида олинган назарий билимларга ва амалий кўникмаларга эга бўлишни талаб қилади.

Касбий фаолият – бу маълум бир соҳада ва тармоқда инсоннинг касби ва ихтисослиги бўйича фаолиятидир.

Касбий фаолият – бу маълум соҳада инсоннинг ўзига хос хусусияти саналиб, меҳнат фаолиятининг қиймати одамларнинг бажарган ишига қараб белгиланади.

Ҳар қандай фаолиятнинг марказида “субъект” - яъни шу фаолиятни амалга оширувчи туради. “Объект” - фаолият нимага йўналтирилган бўлса шу ва “маҳсулот” - фаолиятнинг ўзгарган объекти туради.[18]

Маълумки, олий таълим муассасаларида педагоглар жамиятимиз келажак тараққиётининг асоси - талаба шахси билан иш олиб боради. Талаба таълим марказининг субъекти ҳисобланади. Талабанинг ички кучларига, салоҳиятига, эҳтиёжларига мурожаат қилинмаса педагогик жараён самарали бўлмайди, дейди М.Миҳриддинова.

Талаба олий таълим муассасасига киришдан олдин касб танлайди ва бу бўлғуси профессионал сифатида субъект позициясини аниқлаб беради: янги вазифалар (касбий фаолиятни ўзлаштириш) ва мавжуд имкониятлар орасида, янги тизимлар муносабати билан шунга ўхшаш муносабатларнинг мактабда одатланиб қолинган стереотиплари орасида зиддият келиб чиқади. Касбий тайёргарлик йўлининг ўзи талаба роли позициясининг жуда тез ўзгаришини талаб қилади: ўқишнинг бошида у мактаб талабаси бўлиши керак эмас, унинг охирида эса – талаба бўлиши керак эмас. Буларнинг ҳаммаси талабаларнинг жадал ижтимоий улғайишини ва касбий - шахсий жиҳатдан ривожланишини талаб қилади.[19]

Олимларнинг фикрича, педагогик фаолиятнинг ўзига хос хусусияти унинг бошқарувчанлиги метофаолиятлигидан иборатдир, яъни педагог ўз фаолиятини талаба фаолиятига қараб қуриши лозим бўлади. Кўпчилик касб эгалари ўз фаолиятларини малакали даражада ташкил этиш бўлса, олий таълим педагоглар учун талабаларнинг ўқув фаолиятини ташкиллаштиришидан иборат. Шунинг учун халқда шундай фикр юради “ёмон ўқитувчи ҳақиқатни айтиб беради, яхши ўқитувчи эса уни топишга кўмаклашади”.

Олий таълим муассасаси ўқитувчиси талабага нафақат билим беради, балки унга келгусидаги касбий фаолиятини ташкил этиш сир асрорларини ўзининг олиб бораётган педагогик маҳоратида намоён этади, ўргатади.

Шу нуқтаи назардан ўқитувчининг педагогик позицияси, қадриятлари муҳим аҳамият касб этади. Унинг асосида талабани қадр-қимматли шахси сифатида қабул қилиш, унга фаол муносабатда бўлиш, «субъект-субъект» муносабатларини, яъни ўқитиш жараёнида, ижодий фаолиятда ҳамкорлик

---

[18] м.т.Миҳридинова. Касб таълими методикаси. Маърузалар матни.Тошкент - 2010

[19] М.Т.Миҳридинова. Касб таълими методикаси. Маърузалар матни. Тошкент - 2010

қилиш, унга таълим марказининг асоси деб қараш лозим. Бундай шароитларда педагог ва талабанинг ҳамкорликдаги фаолияти қаратилган «объект» сифатида ўрганувчилар эмас, балки, профессионал фаолиятни ўзлаштириш ҳисобланади. Шундай қилиб, педагогик фаолиятнинг моҳияти «шахсни объектдан субъектга айлантириш» дан иборат. Шу нуқтаи назардан В.А.Сластенин ва А.И.Мищенконинг педагогик фаолиятнинг ҳақиқий объекти педагогик жараёндан юлиб олинган талаба эмас, балки, «ўзаро боғланган ўқув-тарбиявий вазифалар тизимидан иборат бўлган педагогик жараён бўлиб, унда тарбиялануви бевосита иштирок этади ва унинг асосий компонентаридан бири сифатида фаолият кўрсатади».[20]

Р.Г.Муллаҳметовнинг “Касб танлашга йўллаш” фани буйича ёзган ўқув адабиётида инсоният тарихий тараққиётида Шарқу-Ғарбда ҳам, Америкада ҳам ёшларни касб-ҳунар эгаллашларига алоҳида эътибор билан қаралганлиги, уларни касб-ҳунар эгаллашларига оталик, устозлик маслаҳатлари, йўл-йўриқлари мунтазам бериб келингани айтилган. Расман касбга оид маслаҳат идоралари асримиз бошларида пайдо бўла бошлаган.

Биринчи касбий маслаҳат бюроси 1908 йил АҚШнинг Бостон шаҳрида ташкил этилган бўлиб, бу сана касбга йўналтиришнинг бошланиши деб юритилиб келинмоқда. Бирок тарихий маълумотларга асосланиб айтишимиз мумкинки, юқорида кўрсатиб кетганимиздек, касбга йўналтириш ишлари кадимдан шаклланиб келган.

Арт-педагогика бўлажак ўқитувчиларни касбий фаолиятга тайёрлашнинг шундай самарали усулларидан бири саналади.[21]

Арт-педагогика атамаси нисбатан яқинда, ўтган асрнинг ўрталарида Россияда пайдо бўлди. Педагог ва психологлар бу атамага турли хил маъно беришди. Психологлар учун арт-педагогика атамаси кўпинча арт терапия билан синоним ишлатилиб, имконияти чекланган болалар билан олиб бориладиган ишларда фойдаланилади. Бироқ, сўнгги йилларда педагоглар арт-педагогикага нормал, шунингдек, иқтидорли болалар билан олиб бориладиган метод ва технология сифатида қарашмоқда.[22]

Н.Ю.Сергеева арт-педагогика тушунчасини арт-терапия, бадиий таълим, нафосат педагогикаси, санъатнинг психо-педагогикаси тушунчалари билан ажратади.[23]

---

[20]**М.Т.Миҳридинова. Касб таълими методикаси. Маърузалар матни.** Тошкент - 2010

[21] http://art-psychology.org/

[22]Т.А.Соколова. Научно-методические подходы к выявлению одаренных детей и решение их проблем с использованием артпедагогических технологий. Рукопись., 2011.

[23] Сергеева, Н.Ю. К вопросу о содержании понятия арт-педагогика /. Н.Ю. Сергеева // Вестник докторантов, аспирантов, студентов: ЧГПУ – 2008. — № 1 (11). – Т.2. – с. 114 -120

В.И.Скворцов, Д.С.Лотте, Г.И.Железовский ва бошқаларнинг тадқиқотига кўра, арт-педагогика ортида санъат педагогикаси: таълим, тарбия ва санъат орқали инсон камолоти тушунилади.

Ҳозиргача арт-педагогиканинг таърифи борасида ягона қараш мавжуд эмас.

Н.Ю.Сергеева арт-педагогикани “педагогика фанининг амалиётга йўналтирилган замонавий йўналиши бўлиб, профессионал педагогиканинг муаммоларини ҳал қилувчи санъат ва бадиий фаолиятнинг табиатини, қонуниятлари, тамойиллари, механизмларини ўрганувчи фан” сифатида таърифлайди.[24]

Арт-педагогика – замонавий таълим мақсадларига эришиш ва муаммоларини ҳал қилувчи, ўзининг махсус мақсад ва вазифларига эга соҳа саналади. Шуни таъкидлаш керакки, “арт” сўзининг ўзаги нафақат педагогик муаммоларни ҳал қилувчи санъат воситаларидан фойдаланиш (воқеиликни ижодий акс эттириш, уни бадиий образларда кўрсатиш), балки “арт” – маҳорат сифатида таржима қилинади.

Педагогика нафақат фан, балки санъат, яъни маҳоратдир. Таълим-тарбия беришда зўравонлик билан эмас, балки таълим олувчининг мустақил изланишга ва топишга ўргатиш, ўқиш ва ўрганишга даъват этиш, шахсий сифатларини таркиб топтириш, ўз-ўзини англашга ва муваффақиятга эришишига маҳорат билан ёндашиш саналади.

Кўпинча, таълим қатъий тартиб-интизом, маълум қонун-қоидалар, кўрсатмаларга амал қилиб берилади. Бу эса ички низо ва норозиликка ҳамда инсон руҳиятига салбий таъсир кўрсатишига олиб келади. Етук педагог Г.Сковорода [25] ёзганидек, қачонки инсон ўзида билим, кўникма, малака эгаллашга ички хоҳишни сезса ҳамда маҳоратга эга бўлишини ҳис қила олса, таълим жараёни сифатли ва самарали бўлади. Бундан келиб чиқиб шуни айтиш мумкинки, таълимни самарали бўлиши ва кейинчалик жамиятда муваффақиятли амалга ошишида, талабанинг ўз хатти-ҳаракатини англаши, ўзини тушуниши ҳамда билишига ёрдам бериш жуда муҳимдир.[26]

Юқоридагиларга асосланиб, арт-педагогиканинг мақсади таълим ва тарбиянинг самарали ва сифатли бўлишига ёрдам берувчи восита, метод ва технологияларни излаш, ишлаб чиқиш ва жорий этиш, дея таърифлаш мумкин.

---

[24]Сергеева, Н.Ю. К вопросу о содержании понятия арт-педагогика /. Н.Ю. Сергеева // Вестник докторантов, аспирантов, студентов: ЧГПУ – 2008. — № 1 (11). – Т.2. – с. 114 -120

[25]Сковорода Г. Соч.: в 2 т. М.. 1973. Т. 2.

[26]Майер Р. В пространстве – время здесь… М., «Энигма», 1997.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Олимхон Исохон ўғли, “Одаблар дурдонаси” Самарқанд, “Имом Бухорий халқаро маркази”, 2018й.
2. Т.А.Соколова. Научно-методические подходы к выявлению одаренных детей и решение их проблем с использованием артпедагогических технологий. Рукопись., 2011
3. Сергеева, Н.Ю. К вопросу о содержании понятия арт-педагогика /. Н.Ю. Сергеева // Вестник докторантов, аспирантов, студентов: ЧГПУ – 2008. — № 1 (11). – Т.2. – с. 114 -120

O‘Z TILINI ASRAB-AVAYLAGAN XALQ O‘ZLIGINI HAM ASRAB-AVAYLAGAN BO‘LADI

Z.Sh.Ashurova SamISIo‘qituvchisi
I.Quvondiqova Payariq tumani XTB ga qarashli
54-umumiy o’rta ta’lim maktabi ma’naviy-ma’rifiy
ishlar bo’yicha direktor o’rinbosari

Annotatsiya: Ushbu maqolada Davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinishi hamda o‘zbek adabiy tili yozuvlaridagi yo‘l quyilayotgan xatolar, ish qog‘ozlarining lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida yuritilishi xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek adabiy tili, milliy iftixor, millat tili, milliy g‘urur

1989 yil 21 oktabr ushbu sana shubhasiz, mamlakatimiz o‘tmishidagi eng qutlug‘ sanalardan biri. Zero, bu kunda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilingan. Shuni alohida e’tirof etish lozimki, bu hujjat o‘z vaqtida xalqimizning Istiqlolga bo‘lgan umid-ishonchini, milliy g‘urur tuyg‘usini kuchaytirgan. Mustaqilligimizning o‘ziga xos poydevori vazifasini bajargan desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

“O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga ko‘ra 21-oktabr sanasi yurtimizda “O‘zbek tili bayrami kuni” deb belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 21- oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5850-sonli farmoniga muvofiq, mamlakatmiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishish, davlat tilining xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzini oshirish, bu borada xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish kabilar alohida belgilab qo‘yilgan. 2020-2030 yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasida jamiyatda o‘zbek tiliga (davlat tiliga) hurmat-ye’tibor va mehr-muhabbat muhitini shakllantirish, mamlakatimizda har bir fuqaroning davlat tilini bilishiga va buni burch va majburiyat sifatida his etishiga

erishish, respublikamiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida davlat tilining to‘liq joriy etilishini ta’minlash, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish kabi masalalar alohida ko‘rsatib o‘tilgan.

1995- yil 24- avgustda “O‘zbek tilining asosiy imlo qodalari” ni tasdiqlash to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasining qarori e’lon qilindi. Qonunga asosan eng muhim qadriyatlardan biri hisoblangan til qonun darajasida huquqiy asosga ega bo‘ldi. Bu qonun bilan o‘zbek millatining ma’naviyatini, ruhiyatini, qadriyatini ko‘rsatadigan muhim omil, ya’ni tilning maqomi huquqiy mustahkamlandi.

O‘zbek adabiy tili yozuvlaridagi yo‘l qo‘yilayotgan xatolar yuzasidan matbuot vositalarida qayta va qayta maqolalar chop etilmoqda. Hatto teleko‘rsatuvlar orqali ham bir necha bor tanqidga uchradi. Biroq, atrofimizda uchrayotgan xato kamchiliklarimiz bir talay. Davlat tili qabul qilinganligining 30 yilligi munosabati bilan tilimizda qator o‘zgarish va yangiliklar bo‘lishiga qaramasdan, ayniqsa, idoralarda ish qog‘ozlarini lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi asosida yuritilishi haqida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning qarorlari ham e’lon qilinishiga qaramasdan, bu kabi chalasavodlik hamda tilimizga bo‘lgan hurmatsizliklar mahoratli qissanavis A.Qahhorning ushbu so‘zlarini beixtiyor yodimizga soladi. “Ko‘chada yo‘l harakati xavfsizligi qoidalarini buzgan kishiga ichki ishlar xodimi hushtak chaladi-yu, butun bir millat tilini buzayotgan odamlarga nisbatan nimaga hech kim “hushtak chalmaydi?” bu savolga ayni davrda ham tuzukroq javob topish dushvor ishlarimizdan biriga aylanib ulgurgan desam, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bundan ko‘rinadiki, nafaqat hozir, balki o‘sha zamonlarda ham adibimiz A.Qahhor bu savolga javob topa olmagan chog‘i...

Kishilarning husnixati uning savodxonligidan dalolat beradi. Shunday ekan nafaqat reklama va targ‘ibot bannerlari, balki oddiy mobil aloqa vositalaridagi sms xabarlarida ham bexato yozishga odatlanish kerak, bu bizning nafaqat savodxonligimiz, balki ma’nan barkamol inson ekanligimizni ham anglatadi.

Til har bir millatning ulkan boyligi, benazir qadriyati va bebaho mulki hisoblanadi. Har bir halq, har bir elat o‘zi hurmat va ehtirom qiladigan tilga ega.

Til har bir millatning qalbi, g‘ururidir. Tilsiz hech bir Vatanning erki yo‘q. o‘zbek tili ham millatimizning faxri, dunyo tan olishiga hissa qo‘shgan aloqa vositasidir.

Barcha bilishi lozim bo‘lgan jihat shuki, Ona ili shunchaki so‘zlashuv vositasi emas, balki Vatanga muhabbat, milliy iftixor, ajdodlarga hurmat va shuning barobarida avlodlarimizga izzat ramzi hamdir. O‘z tilini asrab-avaylagan xalq o‘zligini ham asrab –avaylagan bo‘ladi.

Фойдаланилган адабиётлар

1.Ўзбекистон республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сон Фармони
2.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 20 октябрдаги ПФ-6084 –сон Фармони

O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTIDA INNOVATSION G‘OYALAR HAMDA TASHABBUSKOR YOSHLARNING O‘RNI

Tog‘ayev Odil
“Oliy matematika” kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Maqola O‘zbek tili taraqqiyotida innovatsion g‘oyalar hamda tashabbuskor yoshlarning o‘rni mavzusida bo‘lib asosan, davlat tilini rivojlantirish va uning mavqeini yuksaltirish borasida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: davlat tili, innovatsion g‘oyalar, o‘zbek tili, yangilanayotgan zamon, tashabbuskor yoshlar.

Ona tili har bir insonning taqdiri, o‘tmishi va kelajagida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ulug‘ shoirimiz yozganidek:

Tug‘ilgan yurt menga vatan, Ona tilim jonimdir.
Tilu yurtdan ayrilsam gar, Shu kun o‘lgan onimdir.

Ha, donolar ona tilidan ayrilishni o‘limga mengzaydilar. Chindan shunday. Bugun dunyodagi kam sonli xalqlar ham o‘z ona tilisi uchun kurashmoqda. Uning yashab qolishini ta'minlash uchun bor imkoniyatini sarflamoqda. Shunday ekan, biz – shonli tarix, ulug‘ allomalariga ega bo‘lgan o’zbek xalqi o‘z davlat tilimizni qadrlash, uni rivojlantirish, nufuzini oshirishdek savobli va xayrli ishlarda hamisha faol bo’lishimiz lozim. Davlat tilini rivojlantirish faqat tilshunoslar, shoir yoki yozuvchilarning ishi emas, balki mana shu yurtda yashab, shu yurtning changini yutib, suvini ichib, tuzini totib yashayotgan har bir insonning vazifasi hisoblanadi. Oddiy dehqon bo’laylik yoki quruvchi, qaysi soha vakili bo‘lishimizdan qat'iy nazar, davlat tilining rivoji uchun hissa qo’shish shu Vatan, shu xalqqa bo’lgan farzandlik burchimizdir. Bundan yuz yil avval jadid bobolarimiz milliy uyg‘onishni boshlab berishgan va ona tilimizning rivoji borasida ko‘plab amaliy ishlarni qilishgan. Bugun ham davlatimiz milliy yuksalish sari odimlamoqda.

Bugun biz yoshlar yurtimiz ravnaqi ona tilimiz rivoji uchun bor kuch g‘ayratimiz bilan harakat qilishimiz zarur.

Tilni shunchaki “aloqa vositasi” deguvchilar adashadi. U insonning ichki dunyosi ko‘rsatadi, olamni idrok qilishiga yordamlashadi, tafakkur tarzi va kamolotini belgilab beradi. U dunyoni anglashga yo‘l. Til - milliy g‘urur. Bugun O‘zbekiston yangilanyapti. Milliy yuksalish yo‘liga chiqmoqda. Milliy yuksalish davri talablaridan kelib chiqib, ona tilimizning jamiyatdagi o‘rnini oshirish bo‘yicha katta ishlar boshlandi.

Tilsiz millat bo‘lmaydi. Davlat ham. Abdulla Avloniy bejiz “Milliy tilni yo‘qatmak – millatning ruhini yo‘qatmakdir”, demagan. Shuning uchun yuksalaman degan mamlakat borki, millatining ruhini, g‘ururini ko‘taradi, davlat tilining obro‘sini oshiradi. Shunda u haqiqiy taraqqiyot chuqqisini zabt eta oladi. O‘zbek tilining ildizlari uzoqlarga qadalgan. Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri hisoblanadi. Bu bilan qancha faxrlansak arziydi. Bugungi kunda har qanday davlatning barqaror taraqqiyoti asosini innovatsion faoliyat tashkil etadi. Har bir soha o’z rivojlanish darajasini ushbu faoliyatga bog’liq ravishda o’zgartirayotgani ham sir emas. Chunki yangilanayotgan zamon, yangi tashabbus va yangi g‘oyalarni talab qilmoqda. O‘z-o‘zidan ayni qonuniyatga proporsional ravishda qarama-qarshi harakat qilish esa biror soha inqilobiga hissa qo‘shadi deb ayta olmaymiz.

not been studied in a comparative aspect.In this sense, one of the most important issues is the comparative and comparative lexicographical coverage of the terms investment and credit in Russian and Uzbek.As there is no special study of investment and credit terminology in Uzbekistan, the analysis of investment and credit terms serves to expand the use of the Uzbek language.A number of studies on general and specific terminology in foreign languages and Russian linguistics have been conducted.Jamal Mohamed Giaber, MTCabre, V.V.Antimirova, V.I.Gataulina, E.A.Kolesnikova, I.S.Kulakova, D.S.Salmina, N.N.Lantyuxova, O.V.Zagorovskaya, T .A. In the works of such scientists as Litvinova, LN Utkina studied various issues of the sector.Terminological systems of the Uzbek language are reflected in the researches of M.E Umarkhodjaev, H. Dadaboev, T. Urunov, A. Kasimov, K. Khurramov, K. Sapaev, A. Madvaliev, I. Yuldashev, N. Usmanov, Z. Mirahmedova, N. Mamatov, M.Saidova, G.Gulamov, I.X.Sadikova, S.H.Nurmatova, O.Tursunova, P.P.Nishonov, O.S.Akhmedov, D.H.Kadirbekova, H.V.Mirzakhmedova and S.T.Mustafaeva.

3. Conclusion

According to the available scientific literature, the term is derived from the Latin word "terminus" - a border, a sign of the border, which means a check [3, 503]. VN Shevchuk defines the term as follows"The term is a word that in the Middle Ages meant 'to determine', 'to express', and the lexeme 'term', which existed in ancient French, meant 'word'" [5, 6].According to A.A. Reformatsky, a term is a word, which is limited by its separate and special features, the terms are unambiguous, clear words in the fields of science, technology, economics, politics and diplomacy [4, 110].

According to VP Danilenko, "Terms are part of the vocabulary and are a determinant of the subject of science and industry" [2, 15].In general, it should be noted that the comparative analysis of the terms of different languages is based on language features, structure, national mentality and tradition.The comparative study of *investment and credit* terminology on the basis of Russian and Uzbek materials is especially relevant today in terms of the development of international cooperation and the creation of certain benefits for participants in foreign economic activity.

4. References

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 13 майдаги «Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиш тўғрисида»ги ПФ-4797 Фармони // Халқ сўзи, 2016 йил, 17 май.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамаси мажлисидаги

“Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак” номли маърузаси //“Халқ сўзи” газетаси. 2017 йил 16 январь.

Адабиётлар:

1.The European Higher Education Area in 2015: Implementation Report. (2015) http://ec.europa.eu/eurydice

2. Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания.–М., 1977.

3. Крысин Л.П. Толковый словарь иноязычных слов. –М., 1998.

4. Реформатский А.А. Термин как член лексической системы языка // Проблемы структурной лингвистики.– М., 1968.

БОЛАЛАР АДАБИЁТИДА НАВОИЙ СИЙМОСИ

СамИСИ доценти Р.Д. Самандаров
СамИСИ ўқитувчиси З.Ш.Ашурова

Annotatsiya: Ushbu maqolada yetuk kadrlar tayyorlashda mustaqillik bolalar adabiyotining o‘rni va roli haqida fikr yuritilgan. Bolalar shoiri O.Daminning A.Navoiy ijodiga bag‘ishlab yozilgan “Dohiy shoir” she’rining tahlili keltirib o‘tilgan.

Калит сўзлар: O’xshatish, perifraz, kadrlar tayyorlash milliy dasturi, poetika, lingvopoetika.

Маълумки, Алишер Навоий аънаналари ва шоир сиймоси кейинги давр адабиётида ҳам ўз аксини топиб келмоқда. Мустақиллик даври болалар шеърияти вакиллари, хусуан, О.Дамин шеърларида Навоийнинг бадиий портретига оид намуналар ҳам мавжуд. Бу эса мутафаккир ҳақидаги шеърларни таҳлилий ўрганиш, тадқиқ этиш бугунги адабиётшунослик ҳамда тилшунослик олдидаги долзарб вазифалардан ҳисобланади. Бу ўринда, бадиий матннинг лингвопоэтик таҳлили алоҳида аҳамият касб этади. Бадиий матнда поэтик актуаллашган тил воситаларини аниқлаш ҳам муҳим тамойиллардандир. Бундай воситаларнинг лингвистик ва бадиий моҳиятини очиб бериш орқали бадиий матн мазмунининг шаклланиши ва ифодаланиши механизмларини аниқ тасаввур қилиш мумкин [3].

Олқор Даминнинг “Афсона шаҳрим” (“Тошкент -2016” “Зарқалам” нашриёти) туркумига кирган “Доҳий шоир” шеъри улуғ мутафаккир, сўз мулкининг султони Алишер Навоий ижодига эҳтиром сифатида битилган [4]. Кузатишлардан маълум бўлишича, шеър жами 5 банддан иборат бўлиб, қофиядош сўзлар қуйидагилардир: султони, ўғлони, ҳомийси, Монийси. Шеърда “келур” сўзи ҳар бир мисра охирида такрорланиб келган.

Шеърни ўқиш жараёнида китобхон шоирнинг Алишер Навоий ҳақидаги кечинмалари маҳоратли тасвирлагани, шоир тасвирий воситалардан муваффақиятли фойдаланганига гувоҳ бўлади. Чунончи, шеърнинг 4-бандидаги қуйидаги мисраларни келтириб ўтсак:

Сен она тилимнинг шердек ҳомийси,
Сен бу тил биносин толмас Монийси,
Номингдан димоққа минг хил гул иси,
То абад атирли хуш наво келур.

Юқорида келтирилган мисралар орқали ўхшатиш санъати қўлланилган. “Сен она тилимнинг шердек ҳомийси”. Мисрада келтирилган ***шердек ҳомийси*** бирикмаси орқали ўхшатиш санъати қўлланилган. Яъни, ўхшатишнинг бадиий асар тилидаги иштироки грамматик восита “-дек” орқали ифодаланган.

Эй ашъор мулкининг буюк султони,
Эй ўзбек халқининг суюк ўғлони,
“Хамса”нг боз ёритмиш шеърий самони
Лутфий шод “Дунёга не наво келур!”

Тасвир жараёнида шоир фикрни ибора орқали қўллаш усули, яъни, перифраз санъатидан ҳам ижодкорона фойдаланган. Перифраз ҳам тасвир жараёнида ижодкор учун бадиий гўзал ифодаларни шакллантирувчи кўтаринкилик, тантанаворлик руҳини бағишлайди. Шоир Олқор Дамин тасвирда айнан буюк доҳий номини ***буюк ўғлони, суюк ўғлони*** сингари бирликлар орқали тасвирлаб ўтган.

Мустақиллик даври болалар адабиётини ўрганиш ўзбек тили бадиий услубининг шаклланиши ва тараққиётида маънавиятли, етук кадрларни тарбиялашда муҳим аҳамиятга эгадир. Мамлакатимизда юксак умумий ва касб-ҳунар маданиятига, ижодий ва ижтимоий фаолиик, ижтимоий сиёсий ҳаётда мустақил равишда мўлжални тўғри ола билиш маҳоратига эга бўлган, истиқбол вазифаларини илгари суриш ва ҳал этишга қодир кадрларнинг янги авлодини шакллантириш масалалари алоҳида белгилаб қўйилган. Адабиётни ўрганиш, тадқиқ қилиш келажак авлодни мукаммал тарбиялаш демакдир. Зеро, адабиёт истилоҳи луғавий жиҳатдан олиб қараганда, маъноси “яхши хулқ” демакдир. Бироқ бу атама бугунги кунда кенг ва тор даражада қўлланилади ва иккиси қайсидир маънода бир-бири билан узвий боғлиқдир. Бу боғлиқликни биз бир нуқтада кўрамиз. Яъни, иккисини ҳам бирлаштириб турувчи “асарлар” сўзида “қишлоқ хўжалик адабиёти”, “техника адабиёти” каби атамалар шу соҳага тааллуқли асарлар, мақолалардан иборат бўлиб, кенг маънодаги адабиётни ташкил этса, “бадиий адабиёт” бадиий асарлар (роман, қисса, ҳикоя, шеър, достон, қасида) кабиларни ўз ичига олади.

Бадиий адабиёт, аниқроғи, унинг бир бўғини бўлмиш “Болалар адабиёти” каттта тарбиявий характер касб этади. Бинобарин, унинг образлар дунёси, айниқса, Навоий сиймоси тасвири ёшларни тарбиялашда муҳим воситадир. Адабиётнинг бундай жиҳатларини ҳам адабиётшунослик, ҳам тилшунослик томонларидан ўрганиш давр тақозоси. Шунинг учун бўлса керак, атоқли адабиётшунос О.Шарафиддинов ўзининг “Адабиёт тилдан бошланади” номли мақоласида шундай ёзади: “Рангсиз тасвирий санъат оҳангсиз мусиқа бўлмаганидек, тилсиз адабиёт ҳам бўлмайди. Адабиётни инсоншунослик дейдилар”[1].

Адабиётни теран англаш, шеъриятдек мустаҳкам сўз қудратини мушоҳада қилиш китобхон учун мақсадли йўлдир.

Ижодкорларнинг ўзига хос услуби, тил маҳорати тадқиқ қилинган ишлардан Н.В.Виноградовнинг Анна Ахматова, А.С.АПушкин, Н.В.Гоголь, Н.А.Некрасов, Л.Н.Толстой, К.Федин, К.Паустовскийларнинг тилдан фойдаланиш маҳорати ҳақидаги қатор илмий тадқиқотлари, Г.О.Винокурнинг Маяковский, Е.М.Галкина, Федорукнинг С.Есенин, И.С.Тургенев поэтикасининг ўзига хос хусусиятлари ва услубиятларига доир тадқиқотлари эътиборга моликдир” [2].

Бадиий адабиёт тилини ўрганиш, мустақиллик даври адабиёти масалаларини тадқиқ этиш, ўрганиш етук кадрлар тайёрлашда адабиётнинг муҳим вазифаларидан биридир.

Етук мутафаккир ва алломаларнинг асарларини ўрганиш, миллий маданий меросимизни тарғиб қилиш анъаналаримизни, урф-одатларимизни чуқур ўзлаштиришда талаба ва ўқувчиларимиз билимдонлигини оширишда янгича қараш, фикрлашда тарихий меросимизни ўрганиш келажакда мақсадли йўлга етказишда муҳимдир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Шарафиддинов О. Адабиёт тилдан бошланади // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1986 й. 5-сентябрь
2. Виноградов В.В. Избранные труды. Поэтика русской литературы. – М.: Наука; 1976
3. Юлдашев М. “Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи” номли автореферати. – Тошкент, 2009
4. Дамин О. Афсона шаҳрим. – Тошкент: “Зарқалам” нашриёти, 2006

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОИЙ ҲАМКОРЛИКНИНГ РИВОЖЛАНИШ ОМИЛЛАРИ

Муллажанова Хосият Яздоновна

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти
“Ижтимоий фанлар“ кафедраси ўқитувчиси

Мамлакатимизда мустақиллик йилларида иқтисодиёти барқарор ривожланаётган очиқ демократик ҳуқуқий давлатни, инсон ва унинг манфаатлари олий қадрият деб тан олинган фуқаролик жамиятини барпо этиш борасида кенг қамровли ишлар амалга оширилди. Бу жараён жаҳон ҳамжамияти томонидан ҳам эътироф этилди.Ўзбекистонда «Кучли давлатдан — кучли фуқаролик жамияти сари» принципининг босқичма-босқич амалга оширилиши натижасида фуқаролик жамиятининг турли институтлари шаклланиши ва айни пайтда тўхтовсиз ривожланиши учун қулай шароит яратилди. Мамлакатимизда фуқаролик жамияти институтларининг фаолият соҳасига тааллуқли икки юздан ортиқ қонун ҳужжатлари қабул қилинганлиги фикримизни тасдиқлайди.

Мамлакатимизни ривожлантиришнинг ҳозирги босқичида нодавлат нотижорат ташкилотлар ҳамда фуқаролик жамиятининг бошқа институтлари ролини кучайтириш, демократлаштириш бўйича қўйилган мақсадларни амалга ошириш фуқаролик жамиятини ривожлантиришда ҳамда юртимизнинг жаҳон ҳамжамиятига интеграциялашувида ҳал қилувчи омил бўлиб қолмоқда.

Ўзбекистон Республикасида узоқ муддатли пухта ўйланган сиёсатни амалга оширилиши натижасида бугун мамлакатимизда ижтимоий шерикликнинг турли шакллари ривожланиши ҳамда маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг нодавлат нотижорат ташкилотлар ва фуқаролик жамиятининг бошқа институтлари билан ҳамкорлик қилиши учун тегишли шарт-шароитлар яратилди.

Президентимизнинг «Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш Концепцияси»да фуқаролик жамияти институтларини ривожлантириш, ўтказилаётган ислоҳотларнинг очиқ-ошкоралиги ҳамда самарадорлигини таъминлаш ва фуқаролик жамияти институтларининг ролини кучайтиришда «Ижтимоий шериклик тўғрисида»ги Қонуннинг қабул қилиниши муҳим аҳамият касб этиши алоҳида таъкидланган. Мазкур Қонуннинг қабул қилиниши мамлакатимизда тобора ривожланиб бораётган фуқаролик жамияти институтлари фаолиятини кучайтириш учун янада кенг имкониятларнинг ҳуқуқий негизини яратади.

Таъкидлаш зарурки, ижтимоий шериклик ижтимоий консенсусга эришишга йўналтирилган бўлиб, жамиятнинг барқарорлиги, ривожланиши, самарали ижтимоий-иқтисодий тараққиётини таъминлаш имконини беради.

Концепцияда давлатимиз раҳбари томонидан ушбу Қонунда ижтимоий-иқтисодий ривожланиш дастурларини амалга ошириш, гуманитар муаммоларни

ҳал қилиш, мамлакатимиз аҳолиси турли қатламларининг ҳуқуқ ва эркинликлари, манфаатларини ҳимоялашда нодавлат нотижорат ташкилотларининг давлат тузилмалари билан ўзаро муносабатларидаги аниқ чегараларни белгилаш ва ташкилий-ҳуқуқий механизмларни такомиллаштириш каби масалалар бўйича ҳуқуқий нормалар кўзда тутилиши даркорлиги аниқ ва равшан кўрсатиб берилди.

Ижтимоий шериклик соҳасида умумэътироф этилган халқаро ҳуқуқ меъёрларини таҳлил этиш, хорижий мамлакатларнинг ижтимоий шерикликни қонунчилик асосларига биноан тартибга солиш тажрибаси ўрганилди. Ижтимоий шериклик йўналишида хориж тажрибасини ўрганиш натижалари дунёнинг кўпгина мамлакатлари, хусусан, Белгия, Германия, Франция, Австрия, АҚШ каби давлатларда ижтимоий шериклик тизимининг унумли ишлаши учун меъёрий база яратилганлигини кўрсатди.

Дарвоқе, Ўзбекистон Республикасининг «Ижтимоий шериклик тўғрисида»ги Қонунида нодавлат нотижорат ташкилотлари (ННТ) таклифларига алоҳида эътибор қаратилади. Шуни таъкидлаш жоизки, бугунги кунда ННТ ларнинг жамият ҳаётида роли ортиб бормоқда.Агар рақамларга мурожаат қилсак, Самарқанд вилоятида 2013 йил 1 апрел ҳолатига 668 та ННТлари вилоят адлия бошқармаси томонидан давлат ва ҳисоб рўйхатидан ўтказилган бўлиб, уларнинг аксарияти фуқароларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилишга дахлдор бўлган соҳаларда фаолият юритиб келади. Рўйхатга олинган ННТларнинг 113 таси давлат рўйхатидан, 555 таси эса хисоб руйхатидан ўтган бўлиб, улар:

- ижтимоий муаммоларнинг ечимида кўмаклашиш;
- қийин ҳаётий вазиятда қолган кишиларга ёрдам кўрсатиш;
- соғлом турмуш тарзини тарғиб қилиш;
- фуқароларнинг ижодий ва ижтимоий фаоллигини ошириш;
- жисмоний тарбия ва спортни ривожлантириш;
- маънавий қадриятларни тиклаш ва миллий маданиятни ривожлантириш;
- ҳунармандчилик ва тадбиркорликни ривожлантириш каби соҳаларда фаолият юритишади.

ННТлар кўплаб ижтимоий инновациялар манбаи, доимий ва вақтинчалик иш ўринлари таъминотчилари, ижтимоий соҳага қўшимча молиявий маблағлар жалб қилувчилар ҳисобланиб, улар Олий Мажлис қошидаги Жамоат фонди, Жаҳон банки, Ўзбекистон маданияти ва санъати Форуми жамғармаси, Ижтимоий ташаббусларни қўллаб-қувватлаш фонди, БМТ тараққиёт дастури каби донор ташкилотларининг молиявий кўмакларини қўлга киритиб келмоқдалар.

Таҳлиллар шуни кўрсатдики, давлат органлари ННТлар, ОАВ ва сиёсий партиялар билан яқиндан ҳамкорликда фаолият кўрсатмоқда. Аксарият ҳолларда ижтимоий шерикчилик кўпроқ давлат ташаббуси билан ташкил қилинган ННТлар фаолиятида кузатилади, булар асосан, Хотин-қизлар қўмитаси, “Камолот” ЁИҲ, “Соғлом авлод учун”, “Маҳалла”, “Нуроний” жамғармаларидир.

Ўтган давр мобайнида ННТлар вакилларига Олий Мажлис қошида ташкил этилган Жамоат фонди маблағларининг Парламент Комиссияси томонидан эълон қилинган грант танловлари, грантлар учун аризаларни расмийлаштириш қоидалари тўғрисида маълумотлар бериш мақсадида .Фуқаролик жамияти шаклланишини мониторинг қилиш мустақил институти Самарқанд ҳудудий бўлими вилоят адлия бошқармаси билан ҳамкорликда вилоятда фаолият юритаётган ННТлар билан “Устав талабларини бажариш асосида ННТлар фаолиятининг барқарорлиги”, “ННТларнинг барқарор ривожланиш индикаторлари”, “Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси”дан келиб чиқадиган ННТлар вазифалари”, “ННТлар фаолиятининг ҳуқуқий асослари”, “ННТларнинг муттасил ривожланишини таъминлаш – фуқаролик жамияти ривожланишининг устувор талаблари” мавзуларида ҳар ойда давра суҳбатлари, семинар-тренинглар ўтказилмоқда. Натижада, 2008-2012 йиллар мобайнида Самарқанд вилояти бўйича 30га яқин ННТлар Олий Мажлис Жамоат фондининг грант маблағларини совриндорлари бўлишди.

Бугунги кунда нодавлат-нотижорат ташкилотларининг айримлари ўз фаолиятларини давлат органлари билан яқин ҳамкорликда амалга ошириб келмоқдалар, лекин, ўз ташаббуслари билан тузилган нодавлат-нотижорат ташкилотларининг давлат органлари билан ижтимоий ҳамкорлигини чуқурлаштириш юзасидан зарур чораларни кўриш бугунги кунда долзарб вазифаларидан бири саналмоқда.

Шу маънода “Давлат ҳокимияти ва бошқарув органлари фаолиятининг очиқлиги тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонуни ННТ ва фуқаролик жамияти институтлари фаолиятини янада ривожлантиришда муҳим қадам бўлди. Юртбошимизнинг ташаббуси билан қабул қилинган мазкур қонунда ННТлар ва фуқаролик жамияти институтларининг давлат бошқаруви органлари билан ўзаро ҳамкорлигини янада кучайтириш назарда тутилади. Шунингдек, ушбу қонун фуқароларнинг ахборот учун конституциявий ҳуқуқини амалга ошириш шаклларини кенгайтириш, жамоатчиликни давлат ҳокимияти ва бошқарув органларининг фаолияти тўғрисида хабардор қилиш процедураларини белгилаш каби муҳим вазифаларни ўз ичига олган бўлиб,

давлат бошқаруви органлари фаолиятини таъминлаш борасида фуқароларни қизиқтирган ва уйлантираётган муаммоларнинг ўз ечимини топишда ННТларга дастурил амал бўлди.

Мазкур қонуннинг қабул қилиниши давлат ҳокимияти ва бошқаруви органларининг фаолияти тўғрисида ахборот олишдан манфаатдор бўлган шахсларга, биринчи навбатда оммавий ахборот воситалари, фуқаролик жамияти институтларига долзарб ахборотлардан фойдаланиш борасида янги, кенг имкониятларни очди.

Мухтасар қилиб айтганда, мамлакатимизда фуқаролик жамиятининг пойдевори мустаҳкам бўлиб, қабул қилинаётган қонунлар фуқаролик жамияти институтларининг давлат билан ўзаро самарали ҳамкорлигини таъминлашга хизмат қилади.

“QUTADG‘U BILIG”NING NOMLANISHI VA ASAR NOMIDAGI “QUT” VA “BILIG” SO‘ZLARINING LUG‘AVIY MA’NOLARI.

Ostonov O‘tkir Yangiboevich
SamISI “Tillarni o‘qitish“ kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari va undagi “qut” va “bilig” so‘zlarining lug‘aviy ma’nolari hamda "Qutadg‘u bilig" ustida ilmiy-tadqiqot olib borgan olimlar va ularning ilmiy fikrlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Qutadg‘u bilig, Adabul muluk, Aminul mamlakat, Pandnomai muluk, tengri qut, Autorite de l'Etat, qutыңa, qïvïn

"Qutadg‘u bilig” kitobinining nasriy muqaddimasida asarning turli mamlakatlarda turlicha nomlashi qayd qilib o‘tiladi. CHunonchi, chinliklar "Adabul muluk", mochinlar "Aminul mamlakat", SHarq eli olimlari "Ziynatul umaro", eronliklar "S:ohnomai turki", turonliklar "Qutadg‘u bilig", ba’zilar "" deb nomlaganligi ma’lum ("Qutadg‘u bilig"ning nasriy muqaddimasi).

“Qutadg‘u bilig” ustida ilmiy-tadqiqot olib borgan olimlar ham asar nomini turlicha tarjima qilganlar. Masalan, "Qutadg‘u bilig"ning zamonaviy nashrlarida: "Baxt keltiruvchi bilim" (G. Vamberi, V.V.Radlov, R. R.Arat, V.Tomsen), "Книга счастья" ("Baxt kitobi") yoki "Осчастливаюшее управление" (С. Е.Малов. “Кутадгу билиг” в факсимиле: Советское востоковедения, т.в, Москва - Ленинград, 1948, с. 327). С. Е.Малов keyinroq: "Наука о том, как делаются счастливым" (С.Е.Малов. Памятники древнетюркской письменности, с.224), "Знание образующее царей" "Podsho qiluvchi bilim" (V.V.Bartold), "Boshqaruv ilmi" (A.A.Valitova), "Благодатное знания" (А.Н.Кононов, С.Н.Иванов), "Baxtlanish bilimi" (A.Fitrat. Maorifa va o‘qitg‘uchi, 2-son, 1925, 70-b.), "Saodatga

yo‘llovchi bilim" (Q.Karimov, B.To‘xliev), "Baxt beruvchi kitob" (Li CHi), "Saodatnoma" (N.Karimov), "Saodat bergan bilim"kabi turlicha nomlangan.

Sharqshunos olimlaridan Li CHi (XXR) "Qutadg‘u" so‘zini ikkiga bo‘lib, "qut" va "adg‘u" so‘zlaridan iborat ekanini aytadi. U "qut” ni “baxt” deb izohlaydi, "adg‘u"ni “berish; ado etish” deb talqin qiladi.

"Qutadg‘u bilig" asarining 2010 yiligi nashrining 1jildida "qut"ni baxt va "edgu"ni -ezgulik, "bilig"ni bilim, ya’ni asarning nomi “baxt va ezgulik” so‘zlaridan tashkil topgan ligi qayd etiladi. SHu asosda asarni "Baxt-ezgulik” kitobi deb nomlash to‘g‘ri bo‘lar edi deyilgan.

Yusuf Hos Hojibga zamondosh bo‘lgan Mahmud Koshg‘ariy ham "bilig" so‘zining to‘rtta ma’nosi borligini qayd etib o‘tadi: 1) ilm; 2) bilim; 3) hikmat; 4) aql kabi.

Bizning fikrimizcha “Kutadgu bilig”da qo‘llangan “qut” so‘zini asosan “baxt” deb tarjima qilininishida ba’zi mulohazalar bor. Zero, eski turkiy tilda ham hozirgi turkiy dialektlarda ham bu so‘zning ko‘pgina ma’nolari mavjud. **Qut** polisemantik so‘z bo‘lib, unda “ruh, ma’naviy kuch, jasorat, omadlik, baxt, bilim, saodat, mol-mulk kabi juda ko‘p” ma’nolaridan tashqari “siyosiy jihatdan buyuk bo‘lgan qudratli saltanat, hukmronlik, hokimiyat, davlat boshqaruvi” kabi ko‘p ma’nolar ham mavjud. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida **qut** so‘zi “davlat” ma’nosida ham izohlangan. Qadimgi turk tili lug‘ati (DTS)da esa bu so‘zning “dostoinstvo velichie” degan ma’nolari qayd etilgan. Bu so‘z qadimgi O‘rxun-Enisey va uyg‘ur yozuv yodgorliklarida ham uchraydi. O‘rxun-Enisey bitiklarida **qut,** uyg‘ur, manixey yodgorligida **qutadmaq** fe’li mavjud.

Biz ushbu o‘rinda **qut** so‘zining keyingi ta’kidlangan ma’nolariga ko‘proq e’tibor berdik. Yusuf Hos Hojib o‘z asarini “Kutadg‘u bilik” deb nomlar ekan **qut** so‘zini davlatni boshqarish ma’nosida ham qo‘llagan. Umuman, bizningcha, asarda **qut** so‘zi orqali qudratli siyosiy kuchga ega bo‘lgan xon boshqaruvidagi buyuk hukmronlik, davlat, hukumat kabi tushunchalari bilan bog‘lab ko‘proq qo‘llagan.

Fikrimizni quvvatlash maqsadida quyidagi mulohazalarni bildiramiz:

Birinchidan, Markaziy Osiyoda islom dini davridan oldin ham ko‘pgina turkiy davlatlarda **qut** so‘zi hukmdorlar nomiga yoki unvonga (titulga) qo‘shib aytilgan. Miloddan avvalgi davrlarda Mo‘g‘ulistondagi sharqiy xunn davlatida hukmdorni **tengri qut** deb atashgan. Markaziy Mug‘iliston mintaqasida shad, shan deb nomlovchi turkiy beklar miloddan avvalgi 682 yilda o‘z davlatlarini barpo etgach, **qutlug‘** (273) degan unvonga (titulga) ega bo‘lgan. Hukmdorlar nomlariga qo‘shib aytiladigan **qut** unvoni **baxt** so‘zidan farq qiladigan ma’noni ham kasb etgan. YA’ni oliy hukmdor siyosiy jihatdan ustunligi, davlatni boshqarishda qudratli kuchga ega ekanligi, unda har tomonlama buyuk salohiyat mavjudligi anglashilgan. Qut so‘zini fransuz tilidagi **Autorite de l'Etat** “davlat mavqei, obro‘yi, nufizi (avtoriteti)”, yoki

Souverainete (davlat mustaqilligi (“suvereniteti)”, nemis tilidagi **Staatsmacht** “davlat qudrati”, **Staatsgevvalt** “qudratli hukumat”, rim manbalaridagi **imperium** “oliy hokimiyat yoki hukmron” kabi so‘zlari bilan qiyoslash mumkin.

Ikkinchidan, Urxun yodgorliklarida **qut** so‘zi bir necha marta uchraydi. Agar yodgorliklardagi **qut** so‘zini baxt deb tarjima qilsak matndan anglashiladigan ma’no to‘g‘ri chiqmaydi. Agar bu so‘zni “siyosiy qudrat” ma’nosida tarjima qilinsa matnda aniq ma’no paydo bo‘ladi. Masalan: “...täŋri jarlыqazu, **qutым** bar ÿchÿn, ÿlÿgim bar ÿchÿn... - tangri yorlaqasa qudratim bor uchun, buyukligim bor uchun... Ushbu o‘rinda **qut** so‘zi siyosiy jihatdan qudrat degan ma’noni beradi, chunki urushda muvafaqiyat qozonish uchun baxtni his qilish bilan birlikda, siyosiy kuch-qudrat bo‘lishi lozim. Ushbu ma’noni quyidagi misolda ham kuzatish mumkin. ol jęklär ěstani eligiŋ kùěin kùsùnin ěoʏin jalïnïn **qutïn** qïvïn körùp artuqraq qorqtilar - ul iblislar kuch-qudratli ulug‘ xon CHastanni ko‘rib yanada qo‘rqdilar (To‘rt buddiy afsonasi, 1, 43 $_{16}$).

Boshqa bir misol: Bilge hoqon aytadi: otam **Qutluq** xon (qudratli, buyuk xon)ning vafotidan so‘ng Qul Tegin mening onam Xonsha **qut**ning eri bo‘ldi (tarjimada “*mening onam hazrati oliyalari”* deb tarjima qilinadi. Yana bir misol: *qag‘an **quti** tapdi erinch* – qog‘onning munosib qudrati (ustunligi, qadr-qimmati bilan hisoblashmadilar. (Bilga hog‘on$_{35}$). YOki:Umai täg ögim qatun **qutыŋa** inim Kÿl tigin är at bo‘lты – mening onam Umai xatun oliy hazratlari....

Uchinchidan “Alp Bilge Tengrining yorlig‘i Tengridan olgan qut”, deyilgan fikrni olaylik. Urxun yodgorligiga tegishli ushbu gapda ham **qut** so‘z hukmronlik qudrati degan ma’noni berishi mumkin.

Umuman, yuqorida keltirilgan misollardan seziladiki, turkiy yozma yodgorliklarda qadimdan **qut** so‘zi “kuch, qudrat, oliy rasmiy mansab, unvon (titul)” ma’nolarida ham ishlatilgan. Xiristianlarning muquddas kitobi Bibliyadagi Evangeliyadan olingan parchaning uyg‘urcha tarjimasiga e’tibor beraylik: “*Barьp yukyunelim anьng ulug qutunga”.* F. Myuller ushbu gapni quyidagicha rus tiliga tarjima qilgan-«Мы xotim poyti i sovershit poklonы ego velichestvu» (281), ya’ni “biz borib buyuk hazrati oliylariga ta’zim qilishni xohlaymiz”. V.Bang ham **qut** so‘zining baxt degan ma’nosidan tashqari “oliy, qudrat” ma’nolari borligini ko‘rsatgan. Buni qadimgi Enisey va uyg‘ur yozma yodgorliklarida kuzatish mumkin.

To‘rtinchidan, Parij milliy kutubxonasida saqlanayotgan X asrga tegishli bo‘lgan Kalyanamqara va Papamqara shaxzodalari haqidagi uyg‘ur yozuvidagi yodgorlikda ham “kut”“oliy hazratlari” ma’nosida kelgan: tegin inja tep otunti qangim quti meni sevar-mu siz - Mening otam, Hazrati oliylari, Siz meni sevasiz-mi? (Kalyanamkara va Papamkara, 6$_5$).

Beshinchidan “Qutadg‘u bilig”da **qut** so‘zini yuqorida aytilganidek, qadimdan ko‘pgina turkiy davlatlarda **qut** so‘zi hukmdorlar nomiga yoki unvonga (titulga)

qo‘shib aytilgan. Unda “qudratli, kuchga, davlatga” (vlast)” egalik ma’nosida qo‘llanganini ham aniq kuzatish mumkin. Masalan, asarda Bug‘raxon sha’niga aytilgan fikrlarda ham anglashiladi:

Aӂun tutты Tavg‘ach ulug‘ Bug‘raxon
Qutadsu atы bersγ ekki jahan (85).

Ya’ni “Tavg‘ach ulug‘ Bug‘raxon olamni qo‘lga oldi, oti qutli (jahongir U.S.) bo‘lsin, ikki jahon unga ato bo‘lsin”. SHu o‘rinda Q.Karimov izohida **qut** so‘zi o‘zgarishsiz qo‘llangan. CHunki ushbu o‘rinda “qut” so‘zi “baxt” emas, balki, “qudratli davlatga ega bo‘lgan “**jahongir**” unvoni ma’nosini ifodalagan. SHuningdek, quyidagi baytni kuzataylik:

Bayat berdi davlat e Tγrkən **qutы**
Anың shukrы qылg‘u oqыb miң atы (106 bayt).

Ya’ni “Ey turklarning (**baxti Q.K.) hukmdori** xudo (senga) davlat berdi, mingta nomni yod etib, uning shukrini qilish kerak.

Bizningcha, ushbu baytda ham **qut** so‘zi **baxt** emas, balki **boshlig‘ (hukmdor)** deb qaralsa o‘rinli bo‘ladi:

Kitabda bitindi bu haqan atы
Bu at mangu qaldы e Tγrkən **qutы** (111 bayt).

Quyidagi misrada esa **qut** so‘zi qudratli **davlat** ma’nosida qo‘llangan:

Bu Kuntug‘dы atы belgγlγg
Aӂunda jaḂыqmыsh qutы belgγlγg (399 bayt)

Ya’ni “Bu (beg) Quntug‘di edi, oti (nomi U.S.) taniqli edi, olamda (jahonda U.S.) dong taratgan **qudratli davlati** barqaror edi. Q.Karimov esa **baxtu davlati** tarzda izohlagan. Bizningcha, **qudratli davlati** tarzda izohlash to‘ridir. CHunki asarda asosan Quntug‘di hkumronligidagi davlati va uning qudratli bo‘lishi, barqaorligi, adolat bilan boshqarishlishi haqida fikr yuritiladi.

Yuqorida qayd etilganidek, asarning ba’zi o‘rinlarida **qut** so‘zi hukmdor nomiga unvon (titul) tarzida qo‘shib qo‘llangan:

Tirilsγni Tγrkən quti miң qutun
Tirilsγni kərməz qaraqы otun (117 bayt).

Ya’ni Q.Karimov izohida “Turklar quti ming baxt(lar) bilan yashasin, ko‘ra olmaydigan(larning) ko‘zi o‘t bilan teshilsin” tarzda berilgan. Bizningcha, bu baytning “Turkon quti” birikmasida) “qut” so‘zi “hukmdor yoki boshlig‘” ma’nosida “unvon” (titul) o‘rnida qo‘llangan. SHu bois, tarjimon qutni o‘z holicha qoldirgan. YOki:

Bu turk bekərində atы belgγlγg
Tug‘a alp er erdi **qutы** belgγlγg (274 bayt).

Ya’ni “ Turk beglari orasida oti (nomi U.S.) belgilik, Tunga Alp Er edi, kuti belgilik. Bu baytda ham **qut** unvon ma’nosida qo‘llangan.

Og‘durmish bilan bog‘liq fikrlardan tashqari barcha qahramonlar bilan bog‘liq voqealarda ularning davlat boshqaruvi va hukmdorlik sifatlari haqida gapiriladi. Umuman, muallifning o‘z asarida baxt haqida emas, balki davlat va uni boshqarish haqidagi fikrlari birinchi o‘rinda gavdalanadi. Oyto‘ldining kelishigacha xon davlat ishlarini tanho o‘zi boshqarishga qiynaladi. U o‘ziga yordam bera oladigan, davlatni boshqarish sifatlariga ega bo‘lgan insonni qidirayotgan edi. Bu quyidagi misralardan seziladi:

Qылumaz ozym bu qamuz el ishin
Mennər er kerək bir bilir ish bashын

(414bayt).

YA’ni mening yakka o‘zim bu elning ishlarni qila olmayman, menga ishning ko‘zini biladigan (ish boshqaruvchi) bir er kishi kerak.

Quyidagi o‘rinda qo‘llangan “qut”ni kuzataylik. Xon davlat ishlarini boshqarishda yordam beruvchi kishiga muhtoj bo‘lib turganida Oyto‘ldi uning oldiga keladi. O‘ziga boshqaruvchi qidirayotgan xonga “men **qut**” deydi. Bunda “qut” baxt ma’nosida emas, balki hokimiyatni boshqarishga qodir kishi ma’nosida qo‘llanilgan. CHunki yuqorida qayd etilgan baytlarda “elni, davlatni boshqarish bilan bog‘liq fikrlar bayon qilingan.

Q. Karimov tarjimasida Oyto‘ldi bilan bog‘liq fikrlarida “qut” so‘zining ma’nosiga ba’zi hollarda e’tibor berilmagan:

*Elig aydы uqtum aya **qut** seni,*
Qatыg‘ sevdum erdi irər-se meni.

*(*701bayt)

YA’ni: Elig aytdi: ey **qut**, seni (yaxshi) tushunib, men seni qattiq sevib qolgan edim, sen mendan bezib, ta’qib qilayotirsan.

SHu o‘rinda Q.Karimov izohida **qut** so‘zi o‘zgarishsiz o‘z shaklida qo‘llangan. Agar u **qut** so‘zini **baxt** shaklida qo‘llaganda ma’no buzilardi. SHuning uchun Q. Karimov ko‘p o‘rinlarda **qut**ni o‘z shaklida qoldirgan. Aslida **qut**ni hukmronlikda **davlat boshqaruvga bog‘liq** ma’nolarining muhim o‘rin egallashini hisobga olish lozim edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [Li CHi “Qutadg‘u bilig” va xalqarotadqiqotlar, “Sirli olam” jurnali 7-8 son,1992.]
2. [Yusuf Hos Hojib. Qutadg‘u bilig”, 16 bet.]
3. [Mahmud Koshgariy. “Devonu lug‘otit turk”, (Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M. Mutallibov) 1-tom.-T.: “Fan”, 1960, 367 b. (-499 b.).]
4. [Mahmud Koshgariy . Ko‘rsatilgan asar 1-tom, 311-b.]
5. [Древнетюркский словарь.-Л.: “Наука”, 1969, стр.471 (-676 с.).]

6. [Малов С.Е. Памятники дренетюркский письменности.-М.-Л.: Изд.АН, 1951 (-447 с.).]
7. [Abdurahmonov G‘., Rustamov A. Qadimgi turkiy til.-T.: “O‘qituvchi”, 1982 (-168).]
8. [Малов С.Е. Памятники дренетюркский письменности, стр.31 (29).]
9. [Малов С.Е. Памятники дренетюркский письменности, стр.31 (31).]
10. [Bang W. und A.von Gabain.Ein uigurisehes Fragment ùber den manichäishen Windgot, Ujb. Bd.VIII/H.3-4, 1928., Древнетюркский словарь, стр.471-472-бб.]

“QUTADG‘U BILIG” ASARI VA UNDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY LEKSIK MAYDON

Ostonov O‘tkir Yangiboevich
SamISI “Tillarni o‘qitish“ kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yusuf Hos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridagi ijtimoiy va siyosiy terminlar haqidagi fikr-mulohazalar talqini va lug‘aviy ma’nolari hamda leksikani sistema sifatida o‘rganishda so‘zlarni ma’lum guruhlarga ajratish uchun qo‘llangan ba’zi atamalar talqini bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-siyosiy leksika, jama’a, ijtimoiy hayot, tasviriy-sinxronik yo‘nalish, tarixiy-diaxronik yo‘nalish, qiyosiy-tipologik yo‘nalish, leksik qatlam, leksik maydon, genetik gruppa.

Abstract: This article highlights the interpretation and lexical meanings of ideas about social and political terms in Yusuf Hos Hajib's Qutadghu bilig to study words as a system and to group words into specific groups.

Keywords: socio-political vocabulary, community, social life, image-synchronous direction, historical-diachronic direction, comparative-typological direction, lexical layer, lexical field, genetic group.

“Qutadg‘u bilig” tilining leksikasi rang barang bo‘lib, unda qadimgi va eski o‘zbek tiliga xos turli xil sohaga xos lug‘aviy birliklar mavjud. Jumladan, unda ijtimoiy-siyosiy leksikaga xos lug‘aviy biliklar va leksik-semantik guruhlar mavjudki, ularni lingvistik jihatdan tadqiq etilsa o‘zbek tilining ijtimoiy-siyosiy leksikasi tarixiy taraqqiyotini belgilashda o‘ziga xos o‘rin egalashi tabiiy.

“Qutadg‘u bilig” asaridagi ijtimoiy-siyosiy leksika mavzusi haqida fikr yuritishdan avval ijtimoiy va siyosiy tushunchalar va bu sohaning o‘rganilishi, leksik sistema sifatida qaralishida so‘zlarni ma’lum guruhlarga ajratish uchun qo‘llangan atamalar (qatlam, maydon kabi terminlar) talqini kabi masalalarni ham yoritish muhimdir. Hozirgi davrda zamonaviy tilshunoslikda ijtimoiy-siyosiy lug‘aviy sistemani tahlil etishda, “ijtimoiy” va “siyosiy” leksemalarning termin

sifatida qo‘llanishi hamda leksik birliklarni o‘rganish va belgilashda turlicha qarashlar mavjud. Bu sohadagi fikr-mulohazalarni talqin etib, bizga maqol bo‘lgan yo‘nalish asosida“ Qutadg‘u bilig” asaridagi ijtimoiy-siyosiy leksika va leksik birliklarni tahlil etamiz.

Ijtimoiy va siyosiy terminlar haqidagi fikr-mulohazalar talqini. Ijtimoiy termini leksikaga oid, umuman, barcha lug‘atlarda, jumladan, X.K.Baranovning “Arabcha-ruscha” lug‘atida ham quyidagicha izohlangan: Arab tilidagi “to‘pladi”, “qo‘shdi” tushunchalarini anglatuvchi “jama’a” fe’lidan hosil bo‘lgan ijtimoiy so‘zi bugungi kunda inson va jamiyat tushunchalarni anglatishga xizmat qilmoqda. Umuman, ijtimoiy terminining lug‘aviy jihatdan xizmat doirasi quyidagi munosabatlar bilan belgilangan.

1. Sinflar orasidagi asosiy farq, ularning ijtimoiy ishlab chiqarishdagi o‘rni va ishlab chiqarish vositalariga munosabati;

2. Insonlarning jamiyatdagi faoliyati, ijtimoiy harakat, ijtimoiy fikrning rivojlanishi, ijtimoiy fikr, ijtimoiy qarash, ijtimoiy hayot, siyosiy, kasbiy, madaniy kabi jamoaviy xizmatlar bilan bog‘liq bo‘lgan ;

3. Umumiy, umumga tegishli bo‘lgan sohalar bog‘liq munosabatlar;

4. Individual bo‘lmagan, hammaga tegishli bo‘lgan, hamma foydalanishi mumkin bo‘lgan muassasalardagi munosabatlar;

5. Kollektiv tomonidan tashkillashtirilgan, shaxsiy bo‘lmagan ma’nolar bog‘liq masalalar ijtimoiylikka xos deb qaralgan.

Lekin tadqiqotlarni tahlil qilish jarayonida shu narsa ma’lum bo‘ladiki, “ijtimoiy” va “siyosiy” terminlar, jumladan, ijtimoiy-siyosiy leksika bo‘yicha aniq bir fikr mavjud emas, ular olimlar tomonidan turlicha izohlangan. Ba’zi manbalardagi ma’lumotlarga ko‘ra “ijtimoiy” va “siyosiy” terminlar kuyidagicha izohlanali.

1. “Ijtimoiy” va “siyosiy terminlari ijtimoy tishunoslikda bir-biriga yaqin turdosh sohalarning majmuasi, uning o‘rganish obekti, ijtimoiy hayotning har xil sohalari hisoblanadi;

2. O‘quv fani sifatida falsafa, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, huquqshunoslik, iqtisod, siyosatshunoslik kabilar ijtimoiy fanlar sanaladi;

3. Ijtimoiylik maxsus bilimlarga tayanib, hayotning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va diniy jabhalarini o‘rganadi;

Tilshunoslikda esa ijtimoiy-siyosiy leksika bo‘yicha ham turli xil qarashlar mavjud. Bu qarashlarni 3 guruhga ajratish mumkin:

1. Tasviriy-sinxronik yo‘nalishdagi ijtimoiy-siyosiy leksika;
2. Tarixiy-diaxronik yo‘nalishdagi ijtimoiy-siyosiy leksika;
3. Qiyosiy-tipologik yo‘nalishdagi ijtimoiy-siyosiy leksika kabi.

Ko‘pgina tadqiqotlar birinchi yo‘nalishda bajarilgan.

Ma’lumki, ijtimoiy-siyosiy leksemasini tarixiy-diaxronik yo‘nalishda o‘rganilishi tilshunoslarimiz nazaridan chetga qolib kelmoqda. Bu sohadagi maxsus ishlar deyarli yo‘q darajada. Mavjud ishlarda esa, ayrim so‘zlarning tarixini talqin qilish bilan chegaralangan, xolos.

Tadqiqotlarni tahlil qilish jarayonida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, ijtimoiy-siyosiy leksika hamda “ijtimoiy” va “siyosiy” terminlar bo‘yicha olimlarning fikr-mulohazalarida birlik yo‘q, bu masalada aniq bir xulosaga kelinmagan. Lekin aytilgan fikr-mulohazalarni umumlashtirgan holda ularni uch guruhga ajratish mumkin:

Birinchi guruh olimlar ijtimoiylik tarkibiga siyosiy bilimlarning bir qismini qo‘shadilar.

Ikkinchi guruh olimlar esa ijtimoiy leksika va ijtimoiy terminni aniq farqlashadi hamda ijtimoiy leksika tarkibiga siyosiy terminlarni kiritishmaydi.

Uchinchi toifadagi olimlar esa termin va so‘zni sinonim sifatida ishlatishadi. O‘zbek tishunosi A.X.To‘raxo‘jaeva esa o‘z tadqiqotida leksema bilan termin umumiylik (umumxalq uchun tushunarli bo‘lish) va xususiylik (muayyan ijtimoiy doira uchun tushunarli bo‘lish) belgisi bilan bir-biriga zidlanadi deydi. Bunda zadlanishning xususiylik belgisiga ega bo‘lgan birliklarni termin (konferensiya, diplomat), umumiylik belgisiga ega bo‘lgan birliklarni esa leksema (yig‘ilish, vazir, islohot) sifatida ajratish mumkin deb qaraydi.

Ba’zi tilshunoslar, jumladan, P.K.Milshin, I.F. Protchenkolarning qarashlaricha, ijtimoiy siyosiy leksikaning ko‘pgina qismi hammaga ma’lum, hammaga tushunarli va hayot jarayonlarining o‘tmishi va bugungi kuni o‘rtasidagi munosabatni bildiradi deb qaraydilar. Shu kabi ayrim tadqiqotlarda ijtimoiy-siyosiy leksika ma’lum qobig‘da turgan sistemani bildirmaydi, u lesikaning boshqa razryadlariga ham xos deb qaraladi. SHuning uchun ijtimoiy-siyosiy leksikaga siyosiy terminlarni kiritmaydilar. Va nihoyat uchinchi guruh olimlar ijtimoiy-siyosiy terminga siyosiy fanlar terminlarini qo‘shmaydilar.

Leksikani sistema sifatida o‘rganishda so‘zlarni ma’lum guruhlarga ajratish uchun qo‘llangan atamalar talqini.

Leksikani sistema sifatida o‘rganishning to‘g‘ri yo‘li so‘zlarni ma’lum **guruhlarga** ajratib tahlil etish hisoblanadi. Bunda lingvistika faniga sistem tilshunoslikning kirib kelishi muhim rol o‘ynaganidek, leksikologiya sohasining fan sifatida shakllanishi va taraqqiyoti sistem-struktur tilshunoslikning rivoji uchun poydevor yaratdi.

Til birliklari, jumladan, uning leksik guruhlari ham sistema, struktura va me’yor yoki normalarining dialektik munosabati asosida yuzaga keldi. Bunda

sistema elementlarining yaxlit majmuidan, struktura esa shu majmuaning ichki tuzilishidan iborat bo‘ladi. Binobarin, til hodisalarini sistem-struktur akloqasida o‘rganish, birinchidan, sistema tashkil qiluvchi elementlar yig‘indisini belgilash va, ikkinchidan, mazkur elementlar orasidagi ichki munosabat va aloqalarni belgilash, ularning o‘zaro pag‘onali (ierarxik) joylashishi hamda bir elementning ikkinchi elementdan hosil bo‘lish yo‘llarini ochib berishni taqozo etadi. Buni til leksikasidagi so‘zlarni ma’lum guruhlarga ajratib o‘rganishda kuzatish mumkin.

Aytish joizki, til leksikasida so‘zlarni ma’lum guruhlarga ajratib o‘rganishda tilshunoslikda turli xil tushuncha va atamalar qo‘llanilib kelinmoqda. Bular orasida keng qo‘llanilayotgani **leksik qatlam** va **leksik maydon** terminlaridir. SHuningdek, bu terminlar o‘rnida har xil atamalar qo‘llanish hollari ham mavjud. SHuning uchun bu masalada ba’zi bir fikr-mulohazalarni bayon etish o‘rinli.

Tilshunolikda so‘zlarni ma’lum guruhlarga ajratishda **leksik qatlam** tushunchasi va termini keng o‘rin olgan. O‘zbek tilshunosligida lug‘aviy qatlam, shu jumladan, terminalogik tizimlar ham nafaqat ma’naviy-mazmuniy, shuningdek mavzuiy guruhlarga ajratish nuqtai nazardan ham o‘rganiladi. SHuningdek, ayrim sohaviy terminalogik tizimlar tadqiq etiladi. Ammo tilshunoslikda bir tomondan qatlam hodisasini aniq va izchil tushinish borasida, ikkinchidan bu tushunchani ifoda qiluvchi qatlam terminini sistemali qo‘llashda bir xillik yo‘q.

Tilshunos E.Begmatov o‘z ishida tilining leksik qatlamlari haqida mahsus fikr yuritib, ko‘pgina tadqiqotlarda qatlam hodisasiga munosabat va qatlam terminini qo‘llash borasida muhim fikrlar bayon etgan. Masalan:

1. Ba’zi olimlar tilshunoslikda **leksik qatlam** deb lug‘aviy hodisalarni tahlil qiladilar, ammo uni faqat **qatlam** yoki **lug‘aviy qatlam** deb atamaydilar, balki bir qator ishlarda boshqa bir terminni ham qo‘llaydilar. Bunday holat, ya’ni so‘zlarni ma’lum **guruhlarga** ajratib tahlil qilishda lug‘aviy qatlam termini o‘rnida turlicha atamalar qo‘llanganishi nafaqt o‘zbek tilidagina emas, balki, umumumtilshunoslik doirasidagi ishlarda ham mavjud.

2. Ko‘pgina tilshunoslar leksik qatlam yoki lug‘aviy qatlam tushunchasi va terminidan keng foydalanadilar. Ammo bu termin bilan bir vaqtning o‘zida turli hodisalar nomlanadi.

Lug‘aviy qatlamlar haqidagi ilmiy tushunchaning o‘zbek tilshunosligida yuzaga kelishida rus tilshunoslarining bu masalaga oid qarashlari muhim rol o‘ynadi. Tilshunoslikda qatlam tushunchasi va terminidan foydalanish bo‘yicha yuqorida qayd etilgan hollar rus tilshunosligida ham mavjud. Rus tilshunosligida (turkologiyada ham) qatlam deb yuritiluvchi tushunchalar haqida fikr yuritilganda turlicha atamalardan foydalanilgan. M.I.Fomina turli lug‘aviy qatlamlarga mansub tushunchalarni “**so‘zlarning genetik gruppasi**” deb nomlaydi. Rus tilidagi qatlam tushunchasi turkiy, umuman, boshqa tillar leksikasidagi so‘zlarni guruhlarga

ajratishda qo‘llanganini kuzatish mumkin. Rus tilida yozilgan ishlarning ko‘pida o‘zlashma so‘zi turli terminlar bilan yuritiladi. **Plast (qatlam), sloy (qavat), tyurkskaya leksika, tyurkizm, tyurkskie nazvaniya slova, element, tyurkskie leksicheskie elementы, tyurkskiy element, turetsskie zaimstvovaniya, fond (qadimiy fond, ijtimoiy fond)** kabilar. Bu terminlarni qo‘llashda har bir muallif o‘z nuqtai nazaridan ish tutgan.

Umuman, qatlam tushunchasini turli ma’noda tushunish va noizchil qo‘llash rus tilshunosligida keng tarqalgan. Ba’zi ishlarda qatlam termini tushunchasi **razryad, gruppa, aktiv zapas** terminlari bilan ham qo‘llangan. Ba’zan rus tili leksikasini stilistik nuqtai nazardan taxlil qilinishida ham qatlam termini qo‘llangan va qatlam tushunchasiga atroflicha ta’rif berishga harakat qilingani ham diqqatga molik.

O‘zbek tilshunosligida ilk bor qatlam tushunchasi V.V. Reshetov va A. K Borovkovlarning tadqiqotlarida qo‘llangan.

O‘zbek tilshunosligidagi ishlarda, masalan, Faxri Kamolning o‘zbek tili leksikasiga bag‘ishlangan ishlarida til lug‘aviy boyligi hisoblangan so‘zlarni guruhlarga **lug‘aviy qatlam** terminidan foydalanishdan qochib, dastlab ma’lum bir tildan o‘zlashgan, aniqrog‘i **tojikcha-forscha so‘zlar, arabcha so‘zlar** terminlaridan foydalangan. Ba’zan esa leksik element termini qo‘llagan. Lekin, u o‘z tadqiqotlarida **leksik qatlamlar, forsiy va arabiy so‘zlar qatlami, arabcha so‘zlar qatlami, internatsional so‘zlar qatlami, asosiy leksik qatlamlarda yuz bergan o‘zgarishlar** haqida fikr yuritib, qatlam termininidan ham foydalanganini ko‘zatish mumkin.

Ko‘zatishlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilshunosligida qatlam, leksik qatlam termini keng ishlatila boshlangan. Ammo qatlam tushunchasi so‘zlarning ma’lum bir ijtimoiy yoki nutqiy guruhlariga xos ma’nolarda ham qo‘llaniladi. YA.Pinxasov **qatlam** termini bilan so‘zlarning sotsial-dialektal guruhlarini tavsiflasa, SH.Rahmatullaev qatlam terminini **so‘zlarning ijtimoiy tarmoqlariga xos guruhlarini** atash uchun qo‘llagan. SHuningdek, so‘zlar uslubiy tarmoqlanish xususiyatlariga ko‘ra ham ma’lum qatlamlarga ajratilgan. Bunda lug‘aviy birliklar muayyan nutq ko‘rinishlariga xoslanganligiga ko‘ra ikki qatlamga bo‘lingan: **umumnutq qatlami** va **xoslangan qatlam.** X.Doniyorov qatlam terminini uslublar tavsifida qo‘llaydi. Unda leksik-stilistik qatlamlar tahlil etiladi. Akademik A. Xojiev o‘zbek tili leksikasidagi o‘z qatlam va o‘zlashgan qatlamlar va o‘zbek tilining o‘ziga xos leksik qatlamilari haqida fikr yuritganda qatlam terminidan foydalangan hamda bu termindan so‘zlarning tarixiy-funksional guruhlarga ajratish uchun ham foydalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To‘raxojaeva A.X. Mustaqillik sharoitida o‘zbek tili ijtimoiy-siyosiy leksikasining taraqqiyoti.-T.: Filol. fan.nomzodi diss... avtoref., 2012, 9-b. (-26 b.).
2. Begmatoa E.Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari.-T.: Fan, 1985.34-b.
3. Gak V.G. Fransuz tili nazariy terminalogiyasi (Ibodulla Mirzaev tarjimasi).-Samarqand: SamDCHTI
4. Faxri Kamol. Hozirgi zamon o‘zbek tili, -T.:,1953. 21-45 bet; Hozirgi zamon o‘zbek tili.-T.: “Fan”,1957,89,96-99-b.
5. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.1.-T.: 1966.164-188-b.
6. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, 186-188-bb.
7. Pinxasov YA. Hozirgi zamon o‘zbek tili leksikasi. T.: 1960, 50-b.
8. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullaev SH. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.-T.: 1975, 47-50-bb.
9. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullaev SH. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, 63-bet.
10. Doniyorov X. Qipchoq dialektlarining leksikasi.-T.: 1979. 78-b.
11. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. -T.:1980.120, 121,124, 127-bb.nashri, 2002, 15-b.

МАМЛАКАТИМИЗДА ИҚТИСОДИЁТ СОҲАСИНИ ЯНАДА ЖАДАЛЛАШТИРИШДА ИЖТИМОИЙ СОҲАЛАРНИНГ (ТИББИЁТ, ФАН, ТАЪЛИМ)НИНГ ЎРНИ

Кариева Халима Икрамжановна СамИСИ “Жисмоний маданият” кафедраси катта ўқитувчиси

Аннотация: Мақолада иқтисодиёт соҳасини ривожлантириш ва иқтисод соҳасига оид ижтимоий тармоқлар (тиббиёт, хизмат кўрсатиш, таълим муассасалари) мисолида келтириб ўтилиб, иқтисодиётнинг бош масаласи, шунингдек, ижтимоий соҳаларни ривожлантиришда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши “Ҳаракатлар стратегияси” ҳақида атрофлича тўхталиб ўтилган. Шунингдек, мақолада ижтимоий фаоллик хусусида ҳам фикр юритиб ўтилган бўлиб, жамиятимизда рақобатбардош кадрларни тайёрлашда ижтимоий фаолликнинг зарур омиллари ҳақида тўхталиб ўтилган.

Калит сўзлар: Ҳаракатлар стратегияси, иқтисодиёт, иқтисодий ресурслар, ишлаб чиқариш, ижтимоий ҳимоя, соғлом турмуш тарзи, жисмоний фаоллик, ижтимоий инфратузилма, тиббиёт, аҳоли саломатлиги, ижтимоий тармоқлар, иқтисодий тизим, ижтимоий фаоллик.

Мамлакатимиз бугунги кунда иқтисодиёт соҳасини янада жадаллаштиришда ижтимоий соҳаларни ривожлантиришдаги аҳамияти ўзига

хос тарзда ўз ўрнига эга бўлиб бормоқда. Бу борада, айниқса, хизмат кўрсатиш, таълим соҳалардаги ўзгаришлар мисолида кўриб ўтишимиз мумкин. Айниқса, таълим соҳаси иқтисодий тизимни янада ривожлантиришда алоҳида аҳамият касб этиб, ўрта таълим,олий таълим тизимлари фаолияти, ўқитиш тизими, инновацион лойиҳаларни амалга оширишда етакчи ўринга эга бўлиб бормоқда.

